

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



B.A. ALIYEV, A.K. SODIQOV, J.K. BAYALIYEV

SIYOSATSHUNOSLIK

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT

32 (05)
A-48


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.A. Aliyev, A.K. Sodiqov, J.K. Bayaliyev

SIYOSATSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi
Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lif yo'nalishlari talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



Aliyev B.A., Sodiqov A.K., Bayaliyev J.K. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2017. -166 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tishning uslublari va barcha mavzular bo'yicha namunaviy ssenariylar bayon qilingan. Mavzular bo'yicha tarqatma materiallar, mavzu mazmuni va har bir mavzuning shaklan xilma-xilligi mazkur qo'llanmaning tavsifli xususiyatidir.

O'quv qo'llanma talabaning mustaqil, ijodiy fikrlashi, keng, chuqur siyosiy dunyoqarashga ega bo'lishi uchun muammolar qo'yish asosida yozilgan.

Ma'sul muharrir: f.f.d., prof., I.Saifnazarov

Taqribchilar: t.f.n., Sh. G'oyibnazarov,

t.f.n., N. Qodirov

Алиев Б.А., Содиков А.К., Байалиев Ж.К. Политология. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2017. -166 с.

В настоящем учебном пособии излагаются методики чтения лекций на основе современной технологии и даются типовые сценарии по всем темам. Освящение раздаточных материалов, содержание и разнообразная форма каждой лекции являются характерными чертами данного пособия.

Учебное пособие написано на основе материалов, предназначенных для развития самостоятельного, творческого мышления, широкого и глубокого политического мировоззрения студентов.

Ответственные редакторы: д.ф.н., И. Санфазаров

Рецензенты: к.т.н., Ш. Гойбназаров,

к.и.н., Н. Кадиров

Aliyev B.A., Sodiqov A.K., Bayaliyev J.K. Politologiya. Book of study. – T.: TSUE, 2017. -166 p.

In this manual is shown the methodics of giving the lecture on the base of modern technologies and the typu of scripts by all themes.

The main leatures of this manual is the studing materials, texts of lectures and the differences of every lecture.

The book has ben written on the bases of problems designed for developing the independent, broad and deep political outlook and creative thinking of students.

Editor in chief: p.h.d., I. Saifnazarov

References: p.h.d., Sh. G'oyibnazarov,

t.f.n., N. Qodirov

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-bo'lim.	SIYOSATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI HAMDA SIYOSIY TA'LIMOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	5
1.1.	Siyosatshunoslik fanining predmeti, uslubi va vazifalari.....	5
1.2.	Siyosiy qarashlar, ta'lomitlarning shakllanishi va rivojlanishi.....	14
2-bo'lim.	SIYOSIY INSTITUTLAR VA SIYOSI JARAYONLAR.....	25
2.1.	Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim.....	25
2.2.	Siyosiy hokimiyat va uni amalga oshirish shakllari.....	35
2.3.	Demokratiya va uning asosiy konsepsiylari.....	44
2.4.	Davlat. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat.....	58
2.5.	Siyosiy elita.....	70
2.6.	Siyosiy yetakchi.....	79
2.7.	Ko'ppartiyaviyilik.....	87
2.8.	Siyosat va ommaviy axborot vositalari.....	97
2.9.	Siyosat va millatlararo munosabatlari.....	105
2.10.	Siyosatning subyektlari.....	114
3-bo'lim.	SIYOSIY ONG, MADANIYAT VA MAFKURALAR.....	143
3.1.	Siyosiy ong.....	124
3.2.	Siyosiy madaniyat.....	131
3.3.	Siyosiy mafkura.....	140
4-bo'lim.	XALQARO TIZIMLAR VA UMUMBASHARIY TARAQQIYOTNING SIYOSIY MUAMMOLARI.....	151
4.1.	Xalqaro munosabatlari siyosatshunosligi.....	151
	XULOSA.....	161
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	162

ОГЛАВЛЕНИЯ

	ВВЕДЕНИЕ	3
Раздел 1	ПОЛИТИЧЕСКАЯ НАУКА, ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ.....	5
1.1.	Предмет, методы и задачи науки политологии.....	5
1.2.	Формирование и развитие политических мнений и учений.....	14
Раздел 2	ПОЛИТИЧЕСКИЕ ИНСТИТУТЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	25
2.1.	Политическая жизнь, политический процесс и политическая система.....	25
2.2.	Политическая власть и формы ее осуществления.....	35
2.3.	Демократия и ее основные концепции.....	44
2.4.	Государство. Правовое государство и гражданское общество	58
2.5.	Политическая элита.....	70
2.6.	Политический лидер.....	79
2.7.	Многопартийность.....	87
2.8.	Политика и СМИ.....	97
2.9.	Политика и межнациональные отношения.....	105
2.10.	Субъекты политики.....	114
Раздел 3	ПОЛИТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ, КУЛЬТУРА И ИДЕОЛОГИЯ.....	143
3.1.	Политическое сознание.....	124
3.2.	Политическая культура.....	131
3.3.	Политическая идеология.....	140
Раздел 4	МЕЖДУНАРОДНЫЕ СИСТЕМЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ.....	151
4.1.	Политология международных отношений.....	151
	ЗАКЛЮЧЕНИЕ	161
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	162

CONTENTS

	INTRODUCTION	3
Part 1	SUBJECT, METHODS AND PROBLEMS OF POLITOLOGY, DEVELOPING OF POLITICAL SIENSES.....	5
1.1.	Subject, methods and problems of politology.....	5
1.2.	Shaping and development of political opinions and trainings.....	14
Part 2	POLITICAL LIFE AND POLITICAL PROCESS.....	25
2.1.	Political life, political process and political system.....	25
2.2.	Political power and its forms of realization.....	35
2.3.	Democracy and it's mean concepts.....	44
2.4.	State. Rule of law and civil society.....	58
2.5.	The political elite.....	70
2.6.	Political leader	79
2.7.	Multiparty system.....	87
2.8.	Politics and MMI.....	97
2.9.	Politics and international relationships.....	105
2.10.	Subjects of politics.....	114
Part 3	POLITICAL CONSCIOUSNESS, CULTURE AND IDEOLOGY....	143
3.1.	Political consciousness.....	124
3.2.	Political culture.....	131
3.3.	Political ideology.....	140
Part 4	INTERNATIONAL WAYS AND POLITIC PROBLEMS OF HUMAN DEVELOPMENT.....	151
4.1.	Politology of international relationships.....	151
	Conclusion.....	161
	LITERATURE.....	162

KIRISH

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari joriy etilishi ko'zdautilgan edi. Zamonaviy demokratik jamiyat qurishni zamonaviy ta'limsiz amalga oshirib bo'lmasligi, ta'lim tizimini tubdan isloh etish zarurati bu soha xodimlari oldiga katta, mas'uliyatlari vazifalarni qo'ydi.

Respublikamiz pedagog-olimlari, o'qituvchilari ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash borasida o'tgan yillarda salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. O'nlab o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar yaratildi, ko'plab o'qituvchilar yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib olish maqsadida malakalarini oshirdilar, qayta tayyorgarlikdan o'tdilar. Bu jarayonlarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari oldingi saflarda bormoqdalar. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga bag'ishlangan o'nlab risolalar buning isbotidir.

Zamonaviy texnologiya ta'lim sohasida quyidagilarga imkon bermoqda:

- erkin, majburlashsiz bilim olishga imkon bermoqda. O'qituvchi bu jarayonda maslahatchi, yordamchi, hamkor sifatida maydonga chiqadi;
- o'quvchi mustaqil, ijodiy fikr yuritib, yodlab emas, tushunib olishga urinadi, xatolarga yo'l qo'yishdan xavfsiramaydi;
- mashg'ulotlar shaklan bir qolipda emas, rang-barang bo'lib, o'quvchining faol ishlashini ko'zda tutadi;
- bilim faqat eshitish orqali emas, o'quvchining ko'rishi, amalda o'zi topishi va qo'llashi orqali amalga oshadi;
- faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham bir-birlariga o'rgatadilar (tushuntiradilar), ko'p muammolarning jamoa bo'lib muhokama qilinishi samarali bilim olishga imkon beradi.

O'yaymizki, zamonaviy texnologiyaning bu va boshqa afzalliklarini professor-o'qituvchilarimiz o'z faoliyatlarida qo'llab, amin bo'lishgan. Biroq ta'limning yangi shakl va uslublariga o'tish murakkab jarayon ekanligini o'tgan yillar tajribasi isbot qildi. Bir tomonidan, kam bo'lsa-da, ayrim professor-o'qituvchilarimizning yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirib olib, amalda qo'llashlari og'ir kechmoqda. Ikkinci tomonidan, ta'lim texnologiyalari uzuksiz taraqqiy etadigan jarayon bo'lib, har bir pedagog uni yaratishi, takomillashtirib borishi zarur.

Professor B.A.Aliyev, dotsentlar A.K.Sodiqov va J.K.Bayaliyevning "Siyosatshunoslik" fanidan zamonaviy texnologiyalar asosida yozilgan navbatdag'i o'quv qo'llanmasi ana shunday urinishlardan biridir.

Bu qo'llanma zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llashda, avvalo, kam tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarimiz uchun juda qo'l keladi. Barcha ma'ruzalar zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning bir namunasi sifatida yozilgan. Hech bir ma'ruza shaklan bir-birini takrorlamaydi, xilma-xil usullarda o'qish rejalshtirilgan. Ma'ruza o'qishning o'ndan ortiq turida uning o'qish uslublari bayon etilgan. Tarqatma materiallarni darsdan oldin va dars paytida taqdim qilingan sharoitda hamda tarqatma materiallarsiz ma'ruza o'qishning zamonaviy uslublari, ma'ruza

ssenariysi batafsil ko'rsatilgan. Mualliflarning o'tgan yillardagi tajribalari umumlashtirilgan.

Ataylab xatolarga yo'l qo'yib o'qiladigan, savol-javob (maslahat), konferensiya shaklidagi ma'ruza o'qishning zamonaviy uslublari pedagoglarni qiziqitirishi tayin, shuningdek, ularga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilishda katta yordam beradi.

Bu qo'llanma mualliflar tomonidan yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni yanada chuqurroq, yaxshiroq o'zlashtirib olishlari hamda samarali usullarini yaratishlari yo'lidagi bir bosqichdir. Bu borada hamkasblari bilan fikr almashinishni ham ko'zlaganlar.

Albatta, mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma o'qituvchilarga bir qolip, yagona shakl sifatida taqdim qilinmagan. Masalan, ataylab xatolarga yo'l qo'yilib, o'qilgan ma'ruza ikki mavzu bo'yicha berilgan, bu usulni boshqa mavzularda qo'llash mumkin. Boshqacha aytganda, har bir ma'ruza pedagogining o'z ijodi bo'lmog'i kerak, u har bir mavzuga o'z bilimi, uslubiy tajribasidan kelib chiqib yondashadi.

Professor B.A.Aliyev, dotsentlar A.K.Sodiqov va J.Bayaliyevning ushbu qo'llanmalarida kamchiliklar ham mavjudligi, hamma mutaxassislarni birday qoniqtira olmasligi tabiiy. Dars davomida multimedia, rasm, video, audiovoz kabi turli zamonaviy vositalardan foydalanish ham talab etiladi. Bundan tashqari bir mavzu bo'yicha ma'ruza o'qishning turli variantlari berilsa, yanada yaxshi bo'lardi.

Barcha mavzular bo'yicha tarqatma material hamda ma'ruza matnining berilishi, ma'ruzaning boshidan oxirigacha birmuncha to'la ssenariysi keltirilishi uning ahamiyatini yanada oshiradi. Berilgan tarqatma materiallarning o'zi ham bir namunadir: unda asosan mavzuning nazariy fikrlari ixcham bayon qilingan, undan zamonaviy hodisalar bilan bog'liq ma'ruza jarayonida va talabalarning mustaqil ishi jarayonida foydalanish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur qo'llanma yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llashda professor-o'qituvchilarimiz faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'yaymiz.

1-bo‘lim. SIYOSATSHUNOSLIK FANI, PREDMETI HAMDA SIYOSIY TA’LIMOTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1.1. Siyosatshunoslik fanining predmeti, uslubi va vazifalari

1-bosqich (tayyorlanish). Ushbu mavzu fan bo‘yicha birinchi – kirish mashg‘uloti bo‘lib, siyosatshunoslik fani haqida yaxlit tasavvur berish va talabalarni uni o‘rganishga yo‘naltirishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Dastlab mashg‘ulotning rejasini, ma‘ruzalar matnnini, tayanch tushunchalarni, mustaqil ish uchun topshiriqlarni, adabiyotlar ro‘yxatini (namoyish qilamiz) beramiz.

Reja:

1. Siyosatshunoslik fani, uni o‘rganish obyekti va predmeti.
2. Siyosatshunoslikda metod muammosi.
3. Siyosatshunoslikning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan o‘zaro munosabati.
4. Mustaqillik va O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi.

Tayanch so‘zlar

Siyosiy hayot, siyosiy fan, siyosatshunoslik, siyosatshunoslikning obyekti, siyosatshunoslikning predmeti, qonun va kategoriyalari, siyosatshunoslik metodlari, vazifalari, siyosatshunoslikning ahamiyati oshib borishi omillari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Tor ma‘nodagi siyosatshunoslik, siyosiy fanlar, siyosatshunoslikka yondosh fanlarni taqqoslang va farqlarini ko‘rsatib bering.
2. Yozgan essengizni tahlil qiling, seminar darsiga qadar to‘ldiring.
3. O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanining rivojlanish xususiyatlari haqida mulohazalar yuriting.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so‘zi. 2010-yil 13-noyabr.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so‘zi. 2012-yil 8-dekabr.
7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. //Xalq so‘zi. 2013-yil 20-yanvar.

8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).

9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.

10. Kamenskaya E.H. Politologiya. Ucheb. posobiye. – M., 2006.

11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.

12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

2-bosqich (talabalarni faollashtirish). Dastlab talabalarga ma'lum savollar orqali ularning bilimlarini tiklaymiz. 4-kursgacha deyarli barcha ijtimoiy fanlar o'qitilganini hisobga olish ham lozim. Savollarga javob berishda "Kim tezroq", "Aqliy hujum", "Qor parchalari" usullarini qo'llash mumkin. Oqimni taxminan 2 jamoaga bo'lib, qaysi jamoa ko'p javob berishi qayd qilib borilsa, talabalarning qiziqishi va diqqati yanada ortadi.

Savollar

1. Siyosatshunoslikning lug'aviy ma'nosi nima?
2. Siyosat haqida asar yozgan qanday faylasuflarni bilasiz?
3. Qadimgi faylasuflar siyosat haqidagi bilinga qanday qaraganlar?
4. Siyosiy bilimlar qachon paydo bo'lgan?
5. Jamiat tarixida siyosiy bilimlar rivojlanib kelganini asoslang.
6. Jamiat tarixida nega siyosiy bilimlarning ahamiyati oshib kelgan?
7. Siz uchun siyosatshunoslik fanining zarurligini asoslab bering.
8. Siyosatshunoslik nimani o'rganadi?
9. Siyosatshunos va amaliyotchi siyosatchining farqi nimada?
10. Hozirgi zamон politologlaridan kimlarni bilasiz?

Savollarga imkon boricha qisqa va aniq javoblar berilishi kerak. Talabalarning bilimiga qarab, savollar sonini qisqartirish yoki ko'paytirish mumkin.

Talabalarning siyosatshunoslik fani haqidagi ma'lum tasavvurlarini aniqlab olgach, ularning diqqatini bir maqsadga qaratish, yangi bilimlarga yo'llash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz. Ammo bu savollarga talabalarning javob berishi shart emas.


Diqqatni tortuvchi savollar

1. Siyosatshunoslik o'rganadigan asosiy muammolar qaysilar?
2. Siyosatshunoslikning qanday kategoriyalari bor?
3. Siyosatshunoslikning qanday qonunlari bor?
4. Siyosatshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar tizimidagi turi qanday?
5. Siyosatshunoslikda qo'llaniladigan metodlar?
6. Siyosatshunoslik qanday vazifalarni bajaradi?
7. Siyosatshunoslik obyektiv fan ekanligini asoslang. Uning mafkura bilan aloqasi qanday?
8. Hozirgi davrda siyosatshunoslikning ahamiyatini qaysi omillar oshirmoqda?
9. O'zbekistonda qanday omillar siyosatshunoslikning rolini oshirmoqda?

10. Iqtisodchi uchun siyosatshunoslik zarurmi?


Bu savollar talabalarni yangi bilim olishga tayyorlaydi. Shundan so'ng asosiy mazmun reja asosida turli texnologik usullar yordamida bayon qilinadi.

3-bosqich (ma'ruzaning asosiy mazmuni). Siyosatshunoslik tor ma'noda siyosatning umumiy nazariysi, keng ma'noda esa siyosat, uning shaxs va jamiyat bilan o'zaro ta'siri to'g'risidagi fandir. 1948-yilgi xalqaro kolokviumda uning 4 tarkibiy qismi ta'kidlangan (1-chizma).




1-chizma. Siyosatshunoslikning 1948-yildagi YUNESKO tashabbusi bilan o'tkazilgan xalqaro kolokviumda ta'kidlangan 4 tarkibiy qismi

Siyosatshunoslik bevosita siyosatni o'rganuvchi fanlarni o'z ichiga oladi (2-chizma).



2-chizma. Siyosatshunoslik keng ma'noda o'z ichiga oladigan 4 ta fan

Siyosatni turli sohalar bilan o'zaro aloqasini o'rganuvchi fanlar esa uning yondosh fanlari hisoblanadi (3-chizma).



3-chizma. Siyosatshunoslikka yondosh 4 ta siyosiy fan

Siyosatshunoslikni tor ma'noda tushunganda uning 2 ta o'ziga xos belgisini ta'kidlash lozim (4-chizma).

Tor ma'nodagi siyosatshunoslik fanining 2 belgisi

Siyosatni yagona tizim
sifatida olib qarash

Siyosatning umumiy
qonunlarini kashf etish

4-chizma. Tor ma'nodagi siyosatshunoslik fanining 2 belgisi

Siyosatshunoslik juda ko'p metodlardan foydalanadi. Uning metodlarini XX asrning 2-yarmida sifatiy va miqdoriy metodlarga ajratishgan. Ayrimlar funksional vazifalariga ko'ra aniq, empirik va nazariy usullarni ajratishadi. Hozirda yangi-yangi usullar shakllanmoqda. Biz obyekt tahlilining umumiylik darajasiga ko'ra siyosatshunoslik metodlarini 3 guruhga bo'lamiz va har bir guruhga kiruvchi usullarning mazmuni bilan tanishamiz (5-8-chizmalar).

Obyekt tahlilining umumiyligiga ko'ra siyosatshunoslik metodlarining 3 guruhi

Umummilliy

Ijtimoiy
gumanitar

Maxsus ilmiy

5-chizma

Siyosatshunoslik foydalananadigan umummilliy metodlarga kiruvchi 5 usul

Induksiya va
deduksiya

Tahlil va
sintez

Kuzatish va
eksperiment

Verifikatsiya
va
falsifikatsiya

Taqqoslash va
analogiya

6-chizma

Siyosatshunoslik fani tayanadigan ijtimoly-gumanitar fanlarga xos 4 usul

Tarixiy
taqqoslash

Intervyu

Hujjat va manbalar
tahlili

Anketa so'rovi

7-chizma


Huquqshunoslik fani siyosiy qarorlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmini o‘rganadi. Siyosiy hokimiyatsiz ijtimoiy normalar amalga oshmaganidek, siyosiy hokimiyat huquqiy rasmiylashmasdan normal yashay olmaydi.

Siyosiy sotsiologiya siyosat va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri tizimini, siyosiy psixologiya omma kayfiyatini hisobga olgan holda siyosiy vaziyatni tahlil qiladi. Siyosatshunoslik ularga tayangan holda nisbatan umumiy bilim beradi, siyosatning umumiy nazariyasi sifatida boshqa siyosiy fanlarga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosatshunoslikning fan sifatida bosh maqsadi siyosiy tizimlarning shakllanishi va tizimini tadqiq qilishdir. Bu maqsadga erishish uchun ilmiy-obyektiv, mantiqan izchil konsepsiylar yaratadi. Siyosiy vogelik haqida ana shunday bilimlargina siyosiy faoliyat samaradorligini ta’minlashda muhim qurol bo‘lishi mumkin.


Siyosiy bilimlarni ma’lum dunyoqarashni ifodalovchi qadriyatlarga asoslangan siyosiy-mafkuraviy yo‘nalganlik siyosat subyektining jamiyatdagi turi bilan belgilanib, har xil bo‘lishi mumkin va kishilar manfaatlariga mos maqsadni ko‘rsatishga intiladi.

Siyosatshunoslik siyosiy vogelik haqida obyektiv ma’lumotlar, ishonchli bilimlar berib, siyosatda xatolarning oldini olishga yo‘naltirilgan (15-chizma).




15-chizma

Siyosiy bilimlar ma’lum siyosiy faoliyatning oqibatini aniqlashda muhimdir. Siyosatshunoslikning bunday roli qator vazifalarni amalga oshirish bilan belgilanadi (16-chizma).



16-chizma

Siyosatshunoslik ijodiy rivojlanib boradi, aks holda u keraksiz, vogelikdan ajralgan ma’lumotlarga aylanib qoladi. Uning ijobiy tavsifini ifodalovchi 6 holatni ko‘rib chiqamiz (17-chizma).



17-chizma

Siyosatshunoslik fanini 4 bo'limda o'rganamiz. Birinchi bo'lim “Siyosatshunoslik fanining predmeti hamda siyosiy ta'llimotlarning shakllanishi va rivojlanishi” deb ataladi. Ikkinci bo'lim “Siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar deb nomlangan bo'lib, quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

1. Siyosiy hayot, siyosiy jarayon, siyosiy tizim.
2. Demokratiya va uning asosiy konsepsiylari.
3. Davlat nazariyasi. Demokratik va huquqiy davlat.
4. Siyosiy hokimiyat.
5. Siyosiy partiyalar.
6. OAV va demokratiya.
7. Siyosiy elita va siyosiy yetakchi.
8. Siyosat va millatlararo munosabatlar.
9. Siyosat subyektlari.

Uchinchi bo'lim, “Siyosiy ong, madaniyat va mafkuralar” deb nomlanib, quyidagi mavzular batafsil tahlil qilinadi:

1. Siyosiy ong.
2. Siyosiy madaniyat.
3. Siyosiy mafkura.


To'rtinchi bo'limning nomlanishi: “Xalqaro tizimlar va umumbashariy taraqqiyotining siyosiy muammo'lari” bo'lib, quyidagi mavzulardan iborat:

1. Xalqaro tizim va xalqaro siyosat.
2. Tashqi siyosat. Xalqaro siyosiy munosabatlar.
3. Xalqaro terrorizm.
4. Mintaqaviy mojarolar va ularning siyosiy yechimlari.
5. Xalqaro xavfsizlik: barqarorlik va taraqqiyot.

Yuqoridaagi mavzularni o'rganish jarayonida turli-tuman siyosiy ta'llimotlar, siyosiy hayotning muhim qirralari bilan bog'liq tushunchalar, jarayonlar


(byurokratiya, inqilob, islohot, ko'ppartiyaviylik, siyosiy tartiblar va h.k.) mohiyati bilan tanishamiz.

Hozirgi davrda siyosatshunoslikning ahamiyati oshib bormoqda. Uning 3 asosiy omilini tahlil qilaylik (18-chizma).



18-chizma

O'zbekistonning mustaqillikka erishushi va yangi erkin jamiyat qurishga kirishishi bilan bog'liq o'zgarishlar mamlakatimizda siyosiy bilimlarga ehtiyojni oshirib yubordi. Uning 4 muhim omilini mulohaza qilaylik (19-chizma).



19-chizma

Shunday ekan, O'zbekistonda siyosiy bilimlarga alohida e'tibor berilmoqda. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maxsus muammolarga bag'ishlangan asarlar yaratilmoqda. Bundan tashqari "Siyosatshunoslik" fani uchun alohida ahamiyatli bo'lgan klassik asarlar nashr qilinmoqda. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish maqsadga muvofiqdır.

4-bosqich (nazorat bosqichi). Talabalarda tug‘ilgan savollarga javob bergach, ularning mashg‘ulotda berilgan bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganlarini nazorat qilish lozim. Buning uchun turli usullar qo‘llash mumkin. Bu yerda biz talabaning diqqatini tortish maqsadida mashg‘ulot boshida havola qilingan 10 ta savolni takrorlash mumkin, garchi darsda bu savollarning hammasiga bevosita javob berilmagan bo‘lsa-da, mavzuning mazmunini o‘zlashtirgan, siyosatshunoslik fanining mohiyatini tushungan talaba bu savollarga ishonch bilan javob bera oladi. Yoki “Men siyosatshunoslikni nima uchun o‘rganaman” mavzusida har bir talaba esse yozadi (5 daqiqa davomida). 2-4 talaba yozganini o‘qib bergach, ular qisqacha muhokama qilinadi. O‘qituvchi darsga xulosa yasaydi. Tayanch so‘zlarni eslatib, mavjud qo‘srimcha adabiyotlar haqida ma’lumot beradi.

1.2. Siyosiy qarashlar, ta‘limotlarning shakllanishi va rivojlanishi

1-bosqich. Ushbu mavzu bo‘yicha katta hajmdagi material mavjudligini hisobga olib umumlashtiruvchi xulosalarga alohida ahamiyat beramiz. Mashg‘ulotning maqsadini tushuntirib, uni o’tkazish tartibini aytamiz.

Talabalarga quyidagi dars rejasini, tayanch so‘zlarni, mustaqil ish uchun topshiriqlarni, adabiyotlar ro‘yxatini taqdim etamiz:

Reja:

1. Qadimgi dunyo va O‘rtta asrlar davrida siyosiy qarashlar.
2. Yangi va eng yangi davrda siyosiy qarashlarning rivojlanishi.
3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharqda siyosiy qarashlar.
4. Mustaqillik va O‘zbekistonda siyosiy qarashlarning rivoji.

Tayanch so‘zlar

Davlat, davlat boshqaruvi shakllari, ijtimoiy shartnomalar nazariyasi, konservativizm, liberalizm, demokratiya, gandiychilik, jadidchilik, siyosiy fan yo‘nalishlari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar


1. Qadimgi Sharqda siyosiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi haqida bilganlarining aytning (Avesto, Konfutsiy va b.).

2. Siyosiy qarashlar rivojinibosqichlarga ajrating va ularning tanqidiy o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

3. Mustaqil O‘zbekistonda siyosiy qarashlarning rivojida I.Karimov asarlarining ahamiyatini ko‘rsating.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so‘zi. 2010-yil 13-noyabr.



5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.

6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.

7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.

8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).

9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.

10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие . – М., 2006.

11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.

12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

2-bosqich. Talabalarni faollashtirish va vaqt ni tejash maqsadida ularni 4 guruhga bo'lib, rejadagi savollarni taqsimlab beramiz. O'z muammolari bo'yicha quyidagi savollarga javob berishlarini so'raymiz.

1. Bu davrda qanday siyosiy ta'lilotlar yaratilgan?

2. Qanday siyosiy masalalarga asosiy e'tibor berilgan?

3. Bu davrdagi qanday manbalar va mutafakkirlarni bilasiz?

Bu savollar talabalarga yangi emas. Falsafa tarixi, tarix, huquq va boshqa fanlar tarkibida qisqa ma'lumotlar olganlar. Jamoalar 5 daqiqa davomida javoblarini bir varaqqa yozib, bir talaba tomonidan taqdim qilinadi. O'qituvchi javoblarga umumiylaho berib, ularni yanada aniqlashtiruvchi, chuqurlashtiruvchi, ya'ni talabalar ko'rsatmagan muammolarni o'rtaga qo'yadi.

Masalalar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin.


1. Siyosiy qarashlar shakllanishida 3 an'ana va ularning sabablari hamda mohiyati.

2. Yangi va eng yangi davrda kimlar qanday ta'lilotlar yaratganlar?

3. Sharqda siyosiy qarashlarning xususiyatlari.


3-bosqich (asosiy qism). Mashg'ulotning boshidayoq 1-chizma namoyish etiladi.

Jamiyat tarixida siyosat va siyosiy munosabatlarning takomillashuvida muhim bo'lgan 6 omil




1-chizma

Unda jamiyat tarixida siyosiy munosabatlarning rivojining asosiy omillari ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan omillar siyosiy qarashlar rivojining sharoiti ekanligi tushuntirilgach, 2-chizmani tahlil qilamiz.




2-chizma

Bunday an'analar (diniy, yuridik va siyosiy-sotsiologik shakllanishining ijtimoiy-tarixiy sharoitini tushuntiramiz. Har bir an'ananing tarafdoरlarini aytib (3, 4-chizmalarda namoyish qilib), uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini ochib beramiz. Qadimgi mutafakkirlarning siyosiy qarashlari haqida to'xtalishdan oldin 4-chizmada ko'rsatilgan, bu davrdagi asosiy diqqat qilingan nazariy-siyosiy muammolarning sabablarini tushuntirib beramiz.




3-chizma



4-chizma


Aflatun va Arastuning siyosiy fikr tarixidagi rolini ko'rsatish davomida 5, 6, 7, 8, 9, 10-chizmalardan foydalanamiz.




5-chizma




6-chizma




7-chizma



8-chizma




9-chizma



10-chizma

Har bir chizmani izohlashda nega? degan savol qo'yilsa, sabablari asoslansa, talaba chuqurroq tushunib oladi.


O'rta asrdagi siyosiy qarashlar rivojini ham shu taxlitda bayon qilish mumkin. O'rta asrlarga fanimiz nuqtayi nazaridan umumiy tasnif bergach, asosiy diqqatni O'siyo uyg'onish davriga qaratamiz. IX-XI asrlarda O'rta Osiyoda siyosiy qarashlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi sharoitni anglatgach, 11-chizmada ko'rsatilgan manbalar va ularning g'oyalariga to'xtalamiz.



11-chizma


Bu manbalar talabalarga boshqa ijtimoiy fanlar orqali ma'lum bo'lsa-da (Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Navoiyning "Saddi Iskandariy", Temurning "Temur tuzuklari" va b.), undagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarning tavsifli jihatlari va xususiyatlari tahlil qilinishi lozim. Shuningdek, bu davrda siyosiy qarashlar haqida yangi qo'shimcha adabiyotlarni alohida ta'kidlash lozim (adabiyotlar ro'yxatiga qarang).

Yangi davrdagi siyosiy qarashlarda siyosiy boshqarish tarzi shakllari, qonuniylilik, yuridik tenglik kafolati, shaxsning huquq va erkinliklari masalalari (12-chizma) mutafakkirlarning asosiy diqqatini jaib qilgan.




12-chizma


Nima uchun bu muammolar dolzarb bo'lganligini ishlab chiqarish rivojlanishi, jamiyat ijtimoiy-sinsiy tizimining o'zgarishi va yangi sinflarning shakllana boshlashi, sanoat inqilobi jarayonlari bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu davr mutafakkirlaridan Nikkolo Makiavelli, Jon Lokk, Monteskelarning siyosiy qarashlari tahlil qilinganda davlatga ratsionalistik yondashuvning ijtimoiy shartnomasi g'oyasining o'z davri uchun ahamiyatini ta'kidlash lozim. 3, 4, 5-chizmalar bu savollarni tahlil qilish jarayonida o'rganiladi.



13-chizma. Jon Lokk (1632-1704) fikricha, hokimiyatning 3 tarkibiy qismi




14-chizma. Jon Lokk (1632-1704) fikricha, insonning 3 ajralmas huquqi



15-chizma


XIX-XX asrlarda insonning ijtimoiy himoyalanganligi, inson huquqlari va erkinliklarining moddiy kafolati, siyosiy partiylar, siyosiy tashkilotlar bilan

davlatning o'zaro munosabati masalalari siyosiy ta'lilotlarning asosiy yo'nalishi bo'ldi (16-chizma).




16-chizma

Bu davrda ishlab chiqarishning rivojlanishi, sinfiy ziddiyatlarning ochiq va keskin bo'lishi siyosiy boshqaruvni ham o'zgartirishni taqozo qilar edi. Siyosiy hayotning talab, ehtiyojlariga javob sifatida yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarda ta'lilotlar yaratilgan. Tomas Jeffersonning tabiiy va fuqarolik huquqlarining munosabati, xalq suvereniteti, vijdon erkinligi haqidagi g'oyalari (17-chizma).




17-chizma

Aleksis Tokvilning erkinlik, tenglik, demokratiya haqidagi mulohazalari (18-chizma) siyosiy qarashlar tarixida muhim o'rin tutganligi qayd qilinadi.



18-chizma


Tahlil qilinayotgan davrda takomillashgan liberalizm, konservativizm va boshqa siyosiy ta'limotlar mazmuni qisqacha tushuntiriladi, chunki boshqa mavzularda ham ular ma'lum tomondan tahlil qilinadi. Biroq K.Marks, M.Veber va boshqa taniqli mutafakkirlarning siyosiy ta'limotlar tarixidagi o'mini ko'rsatib berish kerak. Eng yangi davrdagi siyosiy ta'limotlar to'g'risida boshqa mavzularda so'zlash va mazkur mavzu materiallari hajmidan kelib chiqib, eng yangi davr siyosiy qarashlariga umumiyl tavsif berish bilan cheklanish mumkin. Ikkinci jahon urushi va ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda siyosiy ta'limotlar ayrim mamlakatlar siyosiy muammolari bilan bog'liq holda vazifali yo'nalishlarda takomillashadi. Amerikadagi bixevoirizm siyosiy fanlar usuli sifatida qaror topdi (19-chizma).



19-chizma. Bixevoirizmning tayanch asoslari bo'lgan 5 paradigma


Amerika siyosatshunoslari ijtimoiy boshqaruv va siyosat, qiyosiy siyosat, xalqaro siyosiy munosabatlar, siyosat nazariyasi va falsafasi yo'nalishlarida tadqiqot ishlari olib borib, siyosatshunoslikning xalqaro fan sifatida qaror topishiga muhim hissa qo'shdilar. Fransiya siyosatshunoslari siyosiy institutlar va munosabatlar, saylov tizimi, ijtimoiy boshqaruv, demokratiya masalalari kabi ko'pgina muammolarni atroficha tahlil qilib, fanni nazariy va amaliy ahamiyatga ega xulosalar bilan boyitdilar.

Sharqda siyosiy qarashlarning rivojlanishini tahlil qilganda Sharqning o'ziga xosligidan kelib chiqmoq kerak. Davlat hokimiyatiga hurmat, an'analarining ustuvorligi, jamoaviyilik shular jumlasidandir. XIX-XX asrlarda milliy ozodlik g'oyalari bilan bog'liq Sharqdagi siyosiy fikrlarni Gandizmning kuch ishlatmaslik g'oyasi (20-chizma) va Turkistonda jadidchilikning milliy taraqqiyotiga ma'rifiy yo'l bilan erishish g'oyalari misolida ko'rishimiz mumkin.



20-chizma

Turkiston jadidchiligi haqida talabalar ancha ma'lumotga ega ekanliklarini hisobga olib, faqat siyosiy g'oyalarni qisqa tushuntirish bilan kifoyalanamiz. Jadidlarning umumiy maqsadlari 21-chizmada keltirilgan. Shu nuqtayi nazardan Behbudiy yozgan siyosiy dastur xalqimiz mustaqilligi va taraqqiyotini ta'minlovchi siyosiy yo'lni ifodalaydi.



21-chizma

4. Nazorat bosqichi. Avvalo, talabalarda tug'ilgan savollarga batafsil javob beriladi. "Kim tezroq" usulini qo'llab, mashg'ulotda aytilgan asosiylarni esga olish maqsadga muvofiqdir. Dars mavzusi qadimdan hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olganligidan vaqtini tejash maqsadida dastlab ajratilgan jamoalarga berilgan davrlar bo'yicha tuzilgan savollar varag'ini taqdim qilamiz. Ular 2-3 daqiqa davomida varaqqa javobni yozadilar. Javoblar tayyor bo'lgach, har jamoadan bir talaba uni taqdim qiladi. Savollarni quydagicha tuzish mumkin:

Qadimgi dunyo va O'rta asrlar davridagi siyosiy qarashlar (1-jamoaga)

1. Qadimgi Gretsiyada yuridik va siyosiy sotsiologik an'analarning rivojiga qanday siyosiy jarayon turki bo'lgan?

2. Aflatun va Arastu siyosiy qarashlarida qaysi an'anani qo'llab-quvvatlaganlar?

3. Siyosiy qarashlardagi an'anaviy yo'nalishlar Qadimgi Sharqda ham bo'lganmi?

4. Aflatun ideal davlatidagi 3 tabaqa qaysilar?

5. Arastu fikricha, davlat qurilishining shaklini aniqlashdagi 3 belgini aytинг.

6. Aflatun davlat qurilishining qaysi shakllarini to'g'ri deb hisoblagan?

7. O'rta asrlardagi nazariy-siyosiy muammolar orasida qaysi muammo markaziy o'rinni egallaydi?

8. Forobiy adolatli shaxs oldiga qanday talablar qo'ygan?
9. A.Navoiy adolatli davlatga qanday munosabatda bo'lgan?

Yangi va eng yangi davrda siyosiy qarashlarning rivojlanishi bo'yicha savollar (2-jamooga)

1. XVI asr siyosiy qarashlar tarixida yangi, alohida bosqich bo'lishining asosida qanday jarayon yotadi?
2. Tabiiy huquq nazariyasini kim ishlab chiqqan?
3. Ijtimoiy shartnomaga oyasini kimlar olg'a surgan?
4. Makiavellining qanday asarini bilasiz?
5. Lokk fikricha, hokimiyat qanday bo'linishi kerak? Nima uchun?
6. Monteske fikricha, boshqaruvning qaysi shakllariga qanday siyosiy xususiyatlар mos keladi?
7. Jefferson Lokkdan farq qilib, qanday tabiiy huquqlarni tan oлган?
8. "Amerikada demokratiya" asarining muallifi kim?
9. Siyosiy fikr rivojida K.Marksning xizmati bormi, qanday?
10. O'z davrida Marks ta'lomitiga qo'shilmagan qanday olimlarni bilasiz?

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharqda siyosiy qarashlar (3-jamooga)

1. Sharqdagi siyosiy qarashlar qanday harakat bilan bog'liq?
2. Hindistonda kim kuch ishlatmaslik g'oyasini amaliyotga qo'llagan?
3. Hindistonda kuch ishlatmaslik talabini qo'llashning 2 asosiy shakli?
4. Turkistonda milliy taraqqiyotning ma'rifiy yo'lini qaysi harakat ishlab chiqqan?
5. "Haq olinur, berilmas" degan fikrni kim aytgan?
6. "Haq olinur, berilmas" g'oyasi inqilobga chorlaydimi?
7. Behbudiyning siyosiy dasturi nimalarni ko'zlagan?
8. Mustaqil O'zbekistonda siyosiy qarashlar qanday omillarga asoslanib ishlab chiqilmoqda?
9. Mustaqil O'zbekiston siyosiy qarashlarida siyosatga qanday yondashuv ustuvor?
10. Islom Karimov asarlarida bayon qilingan biror siyosiy g'oyani aytинг.

Savollarga, asosan, bir so'z yoki gap bilan javob beriladi. Shundan so'ng o'qituvchi javoblarning xatolari bo'lsa tuzatib, ma'ruzada olingan yangi fikrlarni, asosiy xulosalarni yana bir bor alohida ta'kidlaydi.

2-bo‘lim. SIYOSIY INSTITUTLAR VA SIYOSIY JARAYONLAR

2.1. Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim

1-bosqich. Bu mavzu bo‘yicha o‘tgan mashg‘ulot oxirida har bir talabaga tarqatma material (ma’ruza matni) berilganligiga asoslanib mashg‘ulot o‘tkazamiz.

Tarqatma materialni quyida keltiramiz.

Reja:

1. Siyosiy hayot, siyosiy jarayon tushunchalari.
2. Siyosiy tizim: mohiyati, tarkibi, vazifalari.
3. Davlat hokimiyatini idora etish modellari.

Tayanch so‘zlar

Siyosiy hayot, siyosiy jarayon, siyosiy jarayon bosqichlari, siyosiy jarayon subyektlari, siyosiy tizim, siyosiy tizim tuzilishi, siyosiy tizim vazifalari, boshqarish shakllari, siyosiy qaror, monarxiya, respublika.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar


1. O‘zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qiling.
2. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida siyosiy tizimning shakllanish xususiyatlarni izohlang.
3. Vazifali siyosiy tizimlarda siyosiy ishtirokning xususiyatlarini taqqoslang.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so‘zi. 2010-yil 13-noyabr.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so‘zi. 2012-yil 8-dekabr.
7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. //Xalq so‘zi. 2013-yil 20-yanvar.
8. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi qabul qilinganining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি ma’ruzasi. //Xalq so‘zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
9. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig‘ilishidagi nutqi. //Xalq so‘zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
11. Nosirxo‘jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.


Siyosiy hayot ijtimoiy-siyosiy manfaatlarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy munosabatlar, ya'ni kishilar, ularning birliklari, tashkilot va birlashmalari o'rtaisdagi hokimiyat va ijtimoiy boshqarish bilan bog'liq munosabatlar siyosiy hayot mohiyatini tashkil qiladi.

Siyosiy munosabatlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, negaki barcha sohalar ijtimoiy boshqaruv va hokimiyat bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Demak, siyosiy hayot siyosiy munosabatlarning jami ekan, kompleks ko'p tomonlama tushuncha sifatida ko'p unsurlarni o'zida birlashtiradi. Siyosiy ehtiyojlar va manfaatlar, siyosat, hokimiyat, hokimlik munosabatlari, siyosiy ishtirok, jamiyatning siyosiy tizimi va rejimi bu unsurlarning asosiyalaridir (1-chizma).



1-chizma


Siyosiy ehtiyojlar va manfaatlar shaxsnинг yuksak ma'naviy ehtiyojlaridan bo'lib, kishilarning hamkorlik yoki raqobat munosabatlariiga asos bo'ladi. Fuqarolik huquqlari va erkinliklariga ehtiyoj g'ururi va nomusini sud orqali himoya qilish ehtiyoji, qonunni buzgan mansabdorlar ustidan shikoyat qilish imkoniyati ehtiyoji, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish ehtiyoji va manfaatlari shu kabi kishilar o'rtaisdagi munosabatlarning tavsifini belgilashi tabiiy (2-chizma).



2-chizma

Agar jamiyat va shaxs ehtiyojlari hamda manfaatlari siyosiy hayotni harakatlantirishga asos bo'lsa, uning mazmunini siyosat tashkil qiladi. Siyosatning

o'nlab talqinlari bo'lib, umumiylar tarzda kishilar va ular guruuhlarining manfaatlari asosida hokimiyatga yondashuv (egallashga yoki ta'sir qilishga intilish), jamiyat uchun majburiy qarorlarni ishlab chiqish uchun kurash va uni amalga oshirish jarayonidir, deyish mumkin (3-chizma).



Jamiyatga ta'sir quroli sifatida siyosat bir vaqtning o'zida ham fan, ham san'at sifatida maydonga chiqadi.


Fan sifatida siyosat o'z qonuniyatlari va prinsiplariga ega, o'z obyektini har tomonlama o'rGANISH asosida yondashadi. San'at sifatida siyosat yuksak mahorat, layoqatni talab qiladi.

Siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi – hokimiyat siyosatning oqibati sifatida qaror topadi. Hokimiyat – kishilar faoliyatiga ta'sir qilish layoqatidir. Siyosiy hokimiyat o'z irodasini huquqiy va siyosiy normalarni maxsus zo'rlik apparatiga tayanib o'tkazishdir.

Inson o'z siyosiy huquqlarini siyosiy hayotda ishtirok etishning vazifali shakllaridan foydalanib amalga oshiradi. Jamiyat qancha demokratik bo'lsa, shaxsning siyosiy hayotdagi ishtiroki shakllari shuncha xilma-xil bo'ladi.

Siyosiy hayotning muhim tarkibiy qismi barcha siyosat subyektlari faoliyatining yig'indisi – siyosiy jarayondir. Siyosiy jarayonni o'rGANISH, baholash


tizimini aniqlash uchun hodisalarning qandaydir izchilligini anglash zarur. Hodisalar qismlarining bog'lanish tartibini, bir-biriga o'tish, vaziyatlarni farqlash, vaziyatni (hamkorlik, kelishuv, konflikt, kurash va h.k.) bilish zarur (6-chizma).



6-chizma

Yagona siyosiy jarayon quyidagi 4 bosqichga bo'linadi:

1. Siyosiy tizimning qonuniylashuvi bir vaqtida va doimiy bo'lib, amalga oshish vazifalari, usullari ko'pdir. Siyosiy tizimni tan olish jarayoni faol yoki passiv, ochiq va yashirin, ixtiyoriy va majburiy, anglangan va anglanmagan bo'lishi mumkin.
2. Siyosiy tizim belgilari va komponentlarini qayta ishlab chiqarish – tizimning qaror topgan unsurlarini takrorlash, ulaming shaklan o'zgarishi va yangilanishi. Bunda vorislik bilan birga yangi xususiyatlar ham bo'ladi.
3. Siyosiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish – qayta ishlab chiqarish mexanizmining ichki tomoni, yuragi.
4. Siyosiy rivojining yo'naliishi va amalga oshishini nazorat qilish – nazorat ilgari o'zlashtirilgan shakllar (saylov, referendum, hisobot, normativ hujjatlar) yordamida amalga oshadi (7-chizma).




7-chizma

2. Siyosiy hayotning bosh unsuri – siyosiy tizim bo'lib, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga aloqador bo'lgan normalar, tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy

institutlarning yig'indisidir. U siyosiy hayotning tavsifi va mazmuniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy tizim vazifali davrlarda va aniq sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy tizimiga, undagi ijtimoiy kuchlar manfaatharining o'zaro mos yoki mos emasligiga qarab o'ziga xos tavsifga, ichki mazmuniga ega bo'ladi. Siyosiy tizim siyosiy hayotni tashkiliy qiluvchi sifatida namoyon bo'ladi (8-9-chizmalar).



1. Siyosiy tashkilotlarga – davlat, partiyalar va siyosat bilan o'zaro ta'sirda bo'lувчи, rasmiy yoki norasmiy barcha tashkilotlar kiradi. Tashkilotlar siyosiy

tizimda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u ma'lum maqsad, qoida, tartiblar asosida uyushgan kishilar guruhiidir.

2. Siyosiy ong – siyosat va hokimiyat haqidagi tasavvurlar, ko'nikmalar, siyosiy g'oyalari, baholar, huquqiy norma va prinsiplar, bilimlar yig'indisi.


3. Siyosiy madaniyat – siyosiy amaliyot normalari, siyosiy an'analar, vazifa, ijtimoiy-siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida g'oyalari bo'lib, siyosiy o'yin qoidalari chegarasini belgilaydigan qandaydir ramkadir.

Siyosiy tizimning bosh maqsadi – muhitning o'zgaruvchan talablariga moslashish va unga faol ta'sir etish yo'li bilan o'z-o'zini saqlab qolishdir (11-chizma).



11-chizma

Jamiyat siyosiy tizimi boshqaruvchi va umumlashtiruvchi vazifalarni bajaradi (12-chizma).



12-chizma


Boshqaruvchi vazifasi – siyosiy hayot barcha ishtirokchilarning manfaatlarini muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Ammo davlat aholi barcha guruhlarning manfaatlarini to'la ifodalay olmaydi, asosan, hukmonron guruuh manfaatini ifodalaydi. Shuning uchun davlat bilan bir qatorda vazifali ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi fuqarolar tashkilotlarining butun tizimi mayjud bo'ladi. Siyosiy tizim jamiyatda mayjud ijtimoiy qatlamlar va ular tashkilotlarining manfaatlarini kelishtirishni, ziddiyatlarni hal qilib, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishga urinadi.

Davlat qabul qilgan qarorlar tizimi uchun ustuvor bo'lgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalaydi.

Umumlashtiruvchi vazifasi siyosiy tizimning o'ziga xos barqarorligini ta'minlaydi, aholi barcha qatlamlarining birlashishiga xizmat qilib, davlat hokimiyatining keng ijtimoiy bazasini yaratadi va siyosiy tizimning ko'pchilik tomonidan ma'qullanishini ta'minlaydi.


Siyosiy tizimning eng ta'sirchan, hal qiluvchi unsuri davlat va uning hokimiyatı bo'lib, u murakkab tarkibga, shakllarga ega. Biz bu yerda davlatni boshqarish shakllari va milliy-hududiy tuzilishiga ko'ra qisqacha ko'rib chiqamiz.

Boshqarish shakllariga ko'ra monarxiya bilan respublika o'zaro farqlanadi (13-chizma).




13-chizma


Monarxiya – boshqarishning qadimgi shakllaridan bo'lib, odatda, avloddan avlodga o'tadigan yakka hokimiyatshilidir. Monarxiyaning tarixda siyosiy sharoitga ko'ra vazifali ko'rinishlari mavjud (14, 15, 16-chizmalar).




14-chizma



15-chizma



16-chizma



17-chizma


Mutlaq monarxiya. Bunda monarx – hokimiyatning manbai, qonunlar chiqaradi, hukumatni tuzadi, xalqdan soliq oladi va daromadni o‘z xohishicha sarflaydi. Xalq huquqsiz, siyosiy hayotda ochiq ishtirok etmaydi. Hozirda Saudiya Arabistonida, Qatarda, Omanda, Birlashgan Arab Amirliklarida saqlanib qolgan.

Dualistik monarxiya. Bir vaqtida monarxik tashkilotlar va parlament mayjud bo‘ladi. Monarx katta ijro hokimiyatini egallaydi: o‘zi oldida mas’ul hukumatni shakllantiradi, parlamentga ta’sir qiladi, veto huquqiga, parlamentni tarqatib yuborish huquqiga, yuqori palataga tasdiqlash huquqiga ega. Hozirgi vaqtida Jordaniyada, Quvaytda, Marokkoda saqlanib qolgan.

Konstitutsion (parlementar) monarxiya. Bunda monarx rasman hukumat boshlig‘i, biroq asosan vakillik, qisman ijro vazifasini bajaradi. Hukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va unga hisob beradi. Monarxonning vetro huquqi bo‘lsa-da, undan deyarli foydalanmaydi. Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Norvegiya, Shvetsiya kabilarda mavjud.


Konstitutsion monarxiya an’analarga hukumatning oqibati bo‘lib, monarx demokratik figura sifatida maydonga chiqadi. Amalda konstitutsion monarxiya parlamentar respublikaga juda yaqin.

Boshqaruvning respublika shaklida uning 3xil ko‘rinishi ajralib turadi (18-chizma).



18-chizma


Prezidentlik respublikasining o'ziga xos uch tavsifli belgisi bor (19-chizma).



19-chizma

Bunda Prezident bevosita xalq yoki saylovchilar kengashi tomonidan saylanadi. Prezident bir vaqtning o'zida ham davlat, ham hukumat boshligi hisoblanadi. Hukumat a'zolarini Prezident tavsija qiladi. Hukumat parlament oldida emas, Prezident oldida mas'uldir. Vazirlar Prezident o'matgan siyosatni amalga oshiradilar. Parlament hukumatga ishonchszilik bildira olmaydi, hukumat parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega emas. Hozirgi sharoitda Prezidentlik respublikasi keng tarqalib bormoqda.

Parlamentar respublikaning ham o'ziga xos uch asosiy belgisini ko'rsatish mumkin (20-chizma).



20-chizma

Davlat siyosiy tizimida parlamentning ustuvorlik prinsipi amal qiladi, ijro hokimiyati parlament oldida mas'ul bo'ladi. Prezident davlat boshligi sifatida ko'p

vakolatlarga ega bo'lsa-da, hukumat tasdig'isiz mustaqil faoliyat ko'rsata olmaydi. Prezidentning faoliyati hukumatning roziligi bilan amalga oshadi. Konstitutsiyada parlamentning ustuvorligi ta'kidlanadi va uning oldida hukumatning mas'ulligi o'matiladi, amalda ma'lum sharoitlarda parlament hukumatni tarqatib yuborishi mumkin. Prezident parlament yoki u tuzgan kengash tomonidan saylanadi. Prezident ijro hokimiyyati tizimida bo'lib, konstitutsion monarchiyadagi monarch holatiga yaqin.

Parlamentar respublikada Vazirlar kengashi raisi mansabi (kanler) bo'lib, uning rahbarligida hukumatning ichki va tashqi siyosati amalga oshiriladi. Hukumat parlament yo'li bilan saylovda ko'p ovoz olgan partiyalar vakillaridan tuziladi. Hozirgi vaqtida parlamentar respublikalar Germaniyada, Italiyada, Hindistonda, Isroi, Livan va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Aralash shakl. Prezidentlik va parlamentar respublikalarining ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Fransiya bunga eng tavsfifli misol bo'la oladi. Aralash shaklga mansublik yaqqol ko'rinish turmasligi mumkin, Shuning uchun bu shakldagi davlatlar ro'yxatini turli mualliflarda turlicha keltiriladi (Polsha, Bolgariya, Rossiya, Shvetsariya va sh.k.).

1-bosqich. Mashg'ulot mavzusini, uning asosiy savollarini, tayanch tushuncha va atamalarni, adabiyotlar ro'yxatini eslatgach (namoyish qilgach), mashg'ulotning maqsadi va uni o'tkazish rejasini bilan tanishtiramiz.

2-bosqich. Har bir talaba mustaqil ravishda insert texnikasini qo'llash bilan matnni o'qidi. Ya'ni matnni o'qib, fikrlar qarshisiga quyidagi belgilarni qo'yadi:

- V – o'z bilimlarimga mos keladi (bilaman);
- – bilimlarimga zid;
- + – yangi bilim oldim;
- ? – tushunarsiz, qo'shimcha axborot kerak.

Shundan so'ng matnga qo'ygan belgilardan foydalanib, quyidagi 2 savollarga javob beradilar:

1. Mazkur mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz?
2. Yana nimalarni bilishni xohlaysiz?

Talabalar sheriklarining javoblarini takrorlamasdan, faqat to'ldirishlari mumkin.

O'qituvchi javoblardan kelib chiqib, qisqa savol-javoblar o'tkazadi. Mazkur mavzu bo'yicha tajribadan (vaziyatdan) kelib chiqib, quyidagi savoliar bo'yicha so'rov o'tkazdik:

1. Siyosiy hayot deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy ehtiyojning ko'rinishlari?
3. Siyosiy tizimning tarkibini aytинг?
4. Davlat boshqaruvining qanday shakllari bor?
5. O'zbekistonda davlat boshqaruvi qanday?

Qisqa so'rovdan mavzuning asosiy g'oyalari o'zlashtirib olinganligini bilib olish mumkin. shundan keyin oqim kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir talaba mustaqil ravishda 3 kataknini to'ldiradi:

1) "Bilaman"; 2) "Bilishni xohlayman"; 3) "Bilib oldim". So'ng guruh o'zaro maslahatlashib, yagona jadval tuzadi. O'qituvchi guruhlar ishini nazorat qilib, maslahat berib boradi. Vazifa bajarilgach, guruhlar belgilagan yetakchilar jadvalni oqimga taqdim qilib, guruhnинг bilgan va bilib olgan fikrlarini tushuntiradi, savollarga javob beradi. Guruh a'zosi javoblarni to'ldirishi mumkin.

Biz tajriba o'tkazgan oqimda 3 ta kichik jamoa jadvallarni taqdim etdi va savollarga qoniqarli javob berishdi.

Jadvallardagi savollar bir-biriga o'xshash masalalardan iborat bo'lsa, boshqa guruh vakili uni takrorlamaydi, zarur to'ldirishlar bo'lsagina bayon qiladi. Uchinchi, "Bilishni xohlayman" qatorida oqim bo'yicha umumlashtirganda quyidagi masalalar qoldi:

1. O'zbekistonda siyosiy hayotning takomillashuvida qanday qonuniyat va tendensiylar bor?
2. O'zbekistonda siyosiy tizimning rivoji va o'ziga xos xususiyatlarini aytинг (boshqa davlatlar siyosiy tizimi bilan taqqoslash).
3. Monarxiyaning kelajagi qanday?
4. Parlamentar monarxiya va parlamentar respublikalarning qanday afzal tomonlari bor?
5. Kuchli Prezidentlik respublikasi totalitarizmga olib bormaydimi?
6. Davlat boshqaruvining yangi shakllari kelajakda bo'lishi mumkinmi?

O'qituvchi talabalarining javoblarni batafsil tahlil qilib, muhim g'oyalarga diqqatni jalb qiladi va "Bilishni xohlayman" qatoridagi savollarga javob beradi. Muammolarning ayrim jihatlari boshqa ma'ruzalarda batafsil yoritiladigan bo'lsa, umumiy tarzda javob beradi va bu haqda ogohlantiradi.

3-bosqich. Ma'ruzachi umumiy xulosa qilib, talabalarining qanday muammolarni bilib olganligini, bu bilimning yoki o'qituvchi yuqorida keltirilgan "Bilishni xohlayman" qatoridagi 6 savolga bergan javobi bo'yicha qisqa so'rov o'tkazish va xulosada bu javoblarni ma'ruzadagi asosiy nazariy qoidalarni eslatgan holda yakunlaydi, ziyoli, faol fuqaro sifatida ular uchun zarurligini hayot bilan bog'lab tushuntirib beradi. Guruhlarining javoblarni baholaydi.

2.2. Siyosiy hokimiyat va uni amalga oshirish shakllari

1-bosqich. Bu mavzu bo'yicha ham oldindan tarqatma material berilganligiga asoslanib mashg'ulotni o'tkazamiz. Tarqatma materialni rejadagi savollar, mustaqil ish uchun topshiriqlar asosida o'zlashtirib olish vazifa qilib beriladi.

Reja:

1. Siyosiy hokimiyat tushunchasi, mohiyati, shakllari.
2. Siyosiy hokimiyatning legitimlik tiplari.
3. Siyosiy hokimiyatni amalga oshirish shakllari.

Tayanch so'zlar

Hokimiyat, hokimiyat resurslari, siyosiy hokimiyat, hokimiyat subyekti, hokimiyat obyekti, iqtisodiy hokimiyat, ijtimoiy hokimiyat, madaniy-axborot

hokimiyati, legitimlik, legitimlik tiplari, boshqaruv tarzi, avtokratik va demokratik boshqaruv tarzları.


Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Nosiyosiy hokimiyat resurslarini aniqlang.
2. Hokimiyat vazifalarining o'zaro munosabati haqida mulohaza yuriting.
3. Mustaqil O'zbekistonda siyosiy hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi haqida gapirib bering.

Adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

Hokimiyat jamiyatning hamma sohalarini qamrab oladigan murakkab tushunchadir. Uning manbai kishilar holatining har xilligidir. Odamlar mutlaq teng bo'lgan joyda hokimiyat ham yo'q. Jamiyatda bo'yunish va hukmronlik, boshqarish va nazorat, o'zaro bog'liqlik munosabatlari muqarrar ravishda hokimiyatni vujudga keltiradi (1-chizma).




1-chizma

Hokimiyat – hokimiyat subyektining (individ, guruh, ijtimoiy qatlam va sh.k.) kishilar faoliyati, xulqi, tavsifiga ta'sir qilish layoqati bo'lgan xolati. Bunda subyekt o'z irodasini obyektgina singdiradi, zo'rlik yoki ixtiyoriy vositalalar orqali faoliyatga, harakatga undaydi (2-chizma).




2-chizma

Hokimiyat tarkibi murakkab, uni vazifalari belgilari asosida turlarga ajratish mumkin. Imkoniyatiga ko'ra iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, axborot, majburlash hokimiyatlariga asoslanadi (3-chizma).




3-chizma



4-chizma


Nosiyosiy hokimiyat asosan avtoritetga asoslanadi. Oilada ota-onalik hokimiyati, guruhlarda norasmiy yetakchi, u yoki bu xususiyatiga ko'ra, an'anaga ko'ra avtoritetga ega bo'lish uning ko'rinishidir (5-chizma).




5-chizma

Siyosiy hokimiyat – subyektning o'z irodasini huquqiy va siyosiy normalar (qonun va boshqa normativ hujjatlar) yordamida majburlashga va maxsus majburlash apparatiga asoslanib o'tkazishdir. Turli siyosiy tashkilotlarning (partiya, kasaba uyushmasi, siyosiy harakatlar va h.k.) organlari shunday hokimiyatga ega bo'ladi. Siyosiy hokimiyatning oliy shakli davlat hokimiyatidir, u barcha kishilar uchun majburiy qonunlarni yaratishni monopoliya qilib oladi va o'z tashkilotlari yordamida ularga amal qilishni ta'minlaydi.

Siyosiy hokimiyatning bir qator farqli belgilari mavjud (6, 7-chizmalar).




6-chizma



7-chizma


Siyosiy hokimiyat aholi tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobji baho berishi, uning qonunga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishi va bo‘ysunishga roziligi hokimiyatning qonuniyligini bildiradi. Legitim hokimiyat, odatda, qonunga muvofiq va adolatli sifatida tavsiflanadi.

Siyosiy hokimiyatni egallagan elita ommaning ixtiyoriy ravishda mavjud hokimiyatni tan olishlari uchun barcha vositalarni ishga soladi. Omma hokimiyatni ma’lum bir ishonch asosida qabul qilishi mumkin. Bu legitimlik prinsiplari deyiladi. Ular siyosiy hokimiyatni tan olib, bo‘ysunishini asoslovchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘igan sabablardir. Legitimlik prinsiplarining manbalari qadimdan mavjud an’alalarda, amaldagi qonunchilikda yoki hukmdorlarning katta avtoritetida bo‘lishi mumkin (8-chizma).



8-chizma

Legitimlik tipologiyasining Marks Veber ishlab chiqqan (9-chizma).



9-chizma

U har bir rivojlangan siyosiy tizimlardagi legitimlik prinsiplarini tasvirlamasdan, ularni uch asosiy tipga birlashtiradi. Ya’ni siyosiy vogelikda sof holda uchramaydigan ideal tiplarni tushuntiradi. Ular an'anaviylik, qonun va xarizm prinsiplariga asoslangan tiplardir. Aniq siyosiy tizimlarda bu uch tip o‘zaro aralashib ketadi, ularning har biri asosiy, ustun ekanligiga ko‘ra siyosiy hokimiyatning legitimlik tipi aniqlanadi. Bu uch ideal tipni tavsiflaymiz.

1. An'anaviy hokimiyat (10-chizma).

An'anaviy hokimiyatga xos 3 belgi

An'anaviy
normalarning
muqaddasligiga
asoslanish

Ijtimoiy
o'zgarishlarning sekin
amalga oshishi

Hokimlik an'analar
bilan qattiq
cheklanishi

10-chizma

Qadimdan jamoa hayotini boshqarib kelgan an'anaviy normalarning muqaddasligiga asoslanadi. Ular kimlar hokimiyatga egalik huquqiga egaligini, kimlar bo'yishiga majburligini ko'rsatadi. An'anaviy normalarga abadiy, unga itoat qilmaganlar belgilangan jazoni qo'llash taqozo qiladi. Bunday siyosiy tizimda ijtimoiy o'zgarishlar juda sekin amalga oshadi. Agar an'analarni yetakchilar buzsa, hokimiyat legitimligini yo'qotadi, ya'ni elita hokimiyati ham an'analar tomonidan qattiq chegaralangan bo'ladi.

2. Legal hokimiyat (11-chizma).

Legal hokimiyatga xos 2 xususiyat

Ixtiyoriy belgilangan
yuridik normalarga
asoslanish

Normalarning ma'lum
qoidalar asosida
o'zgartirilishi

11-chizma

Hukmronlik va bo'yishin munosabatlari tartibga solish yo'naltirilgan, ixtiyoriy belgilangan yuridik normalarga asoslanadi. Bu hokimiyatning eng rivojlangan shakli konstitutsion davlatdir. Bu normalar ma'lum qoidalar asosida o'zgartirilishi mumkin. Elita o'z hokimiyatini asoslash uchun amaldagi qonunchilikka murojaat qiladi. Hozirgi zamon davlatlarida Konstitutsiya barcha qonun va qarorlar asoslanadigan asosiy normalardir.

3. Xarizmatik (ilohiy talant) hokimiyat (12-chizma).

Xarizmatik hokimiyatning 3 belgisi

"Buyuk" yetakchingning
shaxsiga asoslanishi


Omma va yetakchi
o'rtaida intensiv
emotsional aloqa
mavjudligi

Yetakchi hokimiyatining
urf-odatlar bilan aloqasi
bo'lmasligi

12-chizma


Alovida xususiyatlarga ega deb hisoblangan yetakchining shaxsiga asoslanadi. Omma yetakchini dohiy deb biladi. Omma va yetakchi o'rtasida intensiv emotsiyal aqlo o'matiladi. Xarizmatik yetakchi hokimiyati kundalik holatdagi urf-odatlar bilan aloqani uzadi. Yetakchi o'zining "tarixiy vazifasi" borligini, shuning uchun unga omma shartsiz bo'y sunishi lozimligini uqtiradi. Xarizmatik yetakchi mo'jizaviy jasorat ko'rsatib, o'zining buyukligini doimo isbotlab ko'rsatishi kerak. Muvaffaqiyatsizlik, uning takrorlanishi xarizmatik yetakchiga ishonchni yo'qotadi. Shuning uchun xarizmatik hokimiyat nisbatan beqarordir.

Siyosiy hokimiyat ma'lum bir boshqaruv tarzida amalga oshadi. Siyosiy boshqaruv tarzi siyosiy tizimning amalga oshish usuli, uning faoliyat sharoiti va tartibidir. Siyosiy boshqaruv tarzi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik, tarixiy an'analar omili ta'sirida bo'ladi. Hokimiyatning legitimligiga boshqa davlatlar siyosiy boshqarish usullari ham ta'sir qiladi (13-chizma).



13-chizma


Siyosiy boshqaruv tarzining ornologiyasi turkumlash asosiga qaysi mezon qo'yilishiga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, formatsiyaviy mezon quldarlik, feodal, burjua, sotsialistik boshqaruv turlarini ajratishga imkon beradi (14-chizma).



14-chizma

Mafkuraviy mezon asosida konservativ, liberal, diniy, sotsial-demokratik kabi turlar bo'lishi mumkin (15-chizma).


Mafkuraviv asosga ko‘ra boshqaruv tarzining 5 o‘rni



15-chizma

Jahon siyosiy adabiyotlarida hokimiyatning “amalga oshish usuli” mezoni bo‘yicha boshqaruv tarzining 2 asosiy ko‘rinishi farqlanadi (16-chizma).

Hokimiyatning amalga oshish usuliga ko‘ra boshqaruv tarzining 2 tipi



16-chizma

Avtokratik boshqaruv tarzi totalitar va avtoritar ko‘rinishlarda bo‘ladi (17-chizma).


Avtokratik boshqaruv tarzining 2 ko‘rinishi



17-chizma

Totalitar siyosiy boshqaruv tarzi – hukmron elita va uning dohiysi hokimiyatning jamiyatni to‘la o‘ziga bo‘ysundirishi, zo‘rlikka asoslangan siyosiy hukmronligi tizimidir. Bunda jamiyat va har bir kishining butun faoliyati mutlaq

belgilab qo'yiladi, ochiq va yashirin nazorat qilinadi, demokratik tashkilotlar ta'qiqlanadi, progressiv kuchlarga qarshi qatag'on uyuştırıldı, hokimiyat barcha darajalarda bir kishi yoki guruh tomonidan yopiq holda shakllantırıldı, fuqarolik jamiyatı bo'lmaydi (18-chizma).



18-chizma

Avtoritarizm – totalitarizmga juda yaqin bo'lib, oliy hokimiyatni egallagan 1 kishi yoki guruh faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. Totalitarizmdan farqi shundaki, mamlakatdagi o'tmish ijtimoiy tartiblarini yo'q qilishni, jahon inqilobini amalga oshirishni maqsad qilib qo'ymaydi. Siyosiy hayotdan boshqa sohalarda kishilarning erkin faoliyatiga ma'lum darajada yo'l qo'yadi.

Demokratik boshqaruv tarzi – xalq hokimiyatining manbai bo'lgan keng fuqaro huquqlarini ta'minlagan jamiyatning siyosiy davlat tuzilishidir. Bunda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, umumiy saylov huquqi, turli siyosiy partiya va harakatlarning erkin faoliyati, fikr, so'z, e'tiqod erkinligi ta'minlanadi. Davlat organlari yuqori va quyidan nazorat qilinadi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatı shakllanadi.

Ma'ruza mavzusini, uning asosiy masalalarini, tayanch tushuncha va atamalarni eslatgach, ma'ruzaning maqsadi va uni o'tkazish rejası bilan tanishtiramiz.

2-bosqich. Insert texnikasini qo'llash asosida tarqatma materialni mustaqil o'qish vazifasi beriladi. Shundan keyin talabalarga quyidagi savolga javob berish so'raladi: "Tarqatma material bilan tanishib, mazkur mavzu bo'yicha qanday yangi fikrni bilib oldingiz?" Shu asosda talabalar bilan suhbat qilinadi.

Biz shu asosda o'tkazgan mashg'ulotda talabalar quyidagi yangi fikrlarni bilib olganlarini aytishdi va gapirib berishdi:

1. Hokimiyat tushunchasi, uning manbalari.
2. Hokimiyatning imkoniyatiga va tavsifiga ko'ra turlari.
3. Hokimiyatning legitimligi, uning tiplari.
4. Boshqaruv tarzining mohiyati va uning omillari.
5. Boshqaruv tarzi tipologiyasi.
6. Avtokratik va demokratik boshqaruv tarzining xususiyatlari.

Biz suhbatni yakunlab, talabalarning diqqatini eng muhim masalalarga qaratdik, tarqatma materialda berilgan, talabalar diqqatidan chetda qolgan ayrim fikrlarni belgilatib qo'ydik. Talabalarda matnni o'qish jarayonida qanday muammolar paydo bo'lganini aniqlash uchun qisqa so'rov o'tkazdik. Dastlab o'tkazilgan suhbat mazmunini takrorlamasdan quyidagi savollarni o'rta ga tashladik:

1. Kimlar hokimiyatning subyekti bo‘ladi?
2. Kimlar hokimiyatning obyekti bo‘ladi?
3. Siyosiy hokimiyatning o‘ziga xos belgilarini aytинг.
4. Legitimlikning qaysi turi O‘zbekistonga xos?
5. Totalitar boshqaruv tarzi belgilarini aytинг

“Aqliy hujum” va “Qor parchalari” usullarini aralash holda qo‘llab, yuqoridagi savollar bo‘yicha talabalarning mavzuga oid bilimlarini aniqladik. Talabalarda yechimini topmagan savollar ro‘yxati tuzildi.

Talabalarni 4 kichik jamoaga bo‘lib, savol-javob, so‘rov davomida tuzilgan yoki e’tibordan chetda qolgan savollardan to‘rttasini har jamoaga bittadan tarqatdik. Har bir jamoa a’zosi javob tayyorlab, muhokama natijasida jamoa javobini yozishni taklif qildik.

Jamoalarga berilgan savollar

1. Imkoniyatiga ko‘ra hokimiyat vazifalarining hozirgi jamiyatdagи turi (1-jamoaga).
2. Siyosiy hokimiyatning xilma-xilligi va kelajagi (2-jamoaga).
3. Siyosiy boshqaruv tarziga ta’sir qiluvchi omillarni tasniflang (3-jamoaga).
4. Avtokratik boshqaruv tarzi sharoitida jamiyat taraqqiyoti (4-jamoaga).

Jamoa tanlagan yetakchi navbat bilan tayyorlangan javobni taxtaga mahkamlab, ularni asoslaydi va savollarga javob beradi.

Har bir jamoaning javoblari tinglanishi jarayonida o‘qituvchi maslahatchi sifatida faoliyat ko‘rsatishi, javoblarga munosabat bildirishi, to‘ldirishi mumkin. Shunday qilib dars jarayonida o‘rtaga tashlangan barcha muammolarni talabalarning o‘zları jamoa bo‘lib hal qilishlari mumkin. Insert usulida to‘ldirilgan “Bilishni xohlayman” qatoridagi masalalar ham yangidan tuzilgan kichik jamoalarda hal qilinadi. O‘qituvchi jamoalarning javoblarini to‘ldirishi, lozim bo‘lsa, o‘zi javob berishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi mavzu qay darajada o‘zlashtirib olinganidan, talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda demokratiyaning chuqurlashib borishi natijasida bo‘lgan jarayonlarga, so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari keng to‘xtalishi va tushuntirib berishi lozim.

3-bosqich. O‘qituvchi mashg‘ulotga umumiy xulosa yasar ekan, talabalarning diqqatini asosiy nuqtalarga yo‘naltiladi. Bu muammoni yaxshi o‘zlashtirishning ahamiyatini jonli misollar bilan tushuntiradi.

2.3. Demokratiya va uning asosiy konsepsiyalari

1. Tayyorgarlik bosqichi. Mavzu va uning rejasi, tayanch tushunchalar, adabiyotlar ro‘yxatini yozamiz (namoyish qilamiz).

Reja:

1. Demokratiya tushunchasi va uning o‘lchovlari.
2. Zamonaviy demokratiya konsepsiyalari.
3. Hozirgi jamiyatda demokratiyaning zarurati va unga o‘tish yo‘llari.
4. O‘zbekistonda demokratlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar

Demokratiya, demokratiya tamoyillari, individual demokratiya, plynalistik demokratiya, jamoaviy demokratiya, plebisitar demokratiya, reprezentativ demokratiya, demokratianing klassik modeli, demokratianing davriy modeli, demokratianing dialektik modeli, saylov, majoritar saylov tizimi, proporsional saylov tizimi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. I.Karimovning jamiyat demokratiya darajasini ko'rsatuvchi o'lchovlari haqida mulohazalarini aytib bering.
2. Demokratiya, adolat, tenglik tushunchalari haqida fikringiz.
3. O'zbekistonda demokratianing qaror topayotganiga dalillar keltiring.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanalari marosimdagagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

Talabalarni faollashtirish va mavzu bo'yicha bilim darajalarini aniqlash uchun "Demokratiya haqida nima bilasiz?" degan savol bilan murojaat qilamiz. "Aqliy hujum" usulini qo'llab, talabalarning bilganlarini aniqlab olamiz. Javoblarni doskaga yozib boramiz. Demokratiya haqida talabalar taxminan quyidagi fikrlarni aytadilar:

- qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan;
- ko'pchilik tomonidan saylanish;
- tenglik, erkinlik;

- adolatli qonunlar mavjudligi;
- xalq hokimiyati va hokazo.

Shundan so'ng o'qituvchi mashg'ulotning asosiy vazifalarini, talabalar uchun chuqurroq va yangi bilimlar berilishini ta'kidlaydi:


- demokratiyaning vazifali konsepsiylari;
- demokratiyaning vazifali zamonaviy modellari, ularning afzal va cheklangan tomonlari;
- hozirgi zamon demokratiyasining eng muhim belgilari.

2-bosqich. Mashg'ulotning asosiy mazmuni. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, darsning mazmuni talabalarga yetkaziladi. Talabalar muhim fikrlarni, chizmalarini daftarlarga ko'chirib oladilar.

Demokratiya bir qancha ma'noga ega: 1) etimologik ma'nosi "Xalq hokimiyyati" bo'lib, xalq boshqaruvini anglatadi; 2) boshqaruv va qarorlar qabul qilishda a'zolarning teng ishtirokiga asoslanish; 3) demokratiya qadriyatfarning ma'lum bir tizimiga asoslanuvchi ijtimoiy tuzum idealidir; 4) demokratiya xalq hokimiyyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun ijtimoiy va siyosiy harakatdir.

Bu yondashuvlar me'yoriy bo'lib, erkinlik, tenglik, inson qadr – qimmatini hurmat qilish, birdamlik kabi qadriyatlarga asoslanib, ideal sifatida tavsiflanadi. Bu yondashuvning kuchi – jozibadorligida, bo'sh tomoni – uning ideallashtirilishida. Real demokratiya hech qayerda va hech qachon xalq hokimiyyati bo'lgan emas, chunki u holda nodavlat, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish bo'lardi. U eng yaxshi holda ko'pchilikning kamchilik ustidan hokimiyyati hisoblanadi. Real demokratiya erkinlik, tenglik va boshqa qadriyatlardan ham ancha uzoqdir. Natijada empirik yondashuv kelib chiqdi, u demokratiya amalda qanday bo'lsa, shundayligicha talqinni talab qiladi. Bu ikki yondashuv o'zaro ta'sirda rivojlanadi.

Demokratiyaning muhim tavsifli belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish lozim (1-chizma).




1-chizma

Ko'rib turganingizdek, demokratiyaning birinchi konstitutsiyalashtiruvchi belgisi xalqning oliy hokimiyyati, suvereniteti huquqiy tan olinishi va muassasaviy ifodalanishidir. Chunki u (demokratiya) aynan xalq hokimiyatining rasmiy manbaidir. Ikkinci belgisi – davlat asosiy organlarining davriy saylanishi. Qadimda ko'pchilik xalqlar o'zlariga podsho saylaganlar, biroq ular umrbod boshqarishga, hatto bu huquqning merosiy bo'lishiga erishdilar. Davlatni boshqarishda

qatnashishida fuqarolar huquqlarining tengligi uchinchi muhim belgidir. Hozirgi siyosiy tizimlar faqat saylov huquqi tengligi emas, siyosiy faoliyat, fikr, raqobat erkinligi va huquqini ham o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi muhim belgi – ko‘pchilik irodasining amalga oshuvidir.


Demokratiyaning aytib o‘tilgan tamoyillari uni turkumlashtirishga imkon beradi. Xalq suverenitetining amalga oshishiga ko‘ra umumiyligda ijtimoiy cheklangan demokratiya, oxlokratiya turlarini ajratish mumkin (2- chizma).



2- chizma

Barcha katta yoshdagi aholi uchun teng siyosiy huquqlar berilsa, umumiyligda demokratiya deyiladi. Ijtimoiy cheklangan demokratiya xalqni sinfiy, demografik doira bilan huquqini cheklashga asoslanadi. XX asr boshlariga qadar demokratiya patriarkal (faqat erkaklar uchun) edi. Xalqqa quyi, mulksiz, avom sifatida qarash – ko‘pchilikning hokimiyati oxlokratiya (gr., “avom, olomon hokimiyati”) tushunchasida ifodalanadi.


Xalqning murakkab birligi tuzilishiga ko‘ra demokratiyaning individual, plyuralistik, jamoaviy vazifalarini ajratish mumkin (3-chizma).



3-chizma

Birinchi holatda hokimiyatning bevosita manbai shaxs, ikkinchisida guruh, uchinchisida butun xalq hisoblanadi.


Xalq hokimiyatni boshqarishda qanday qatnashuviga ko‘ra ochiq, bevosita (plebisitar) va vakilli (reprezentativ) demokratiya mavjud (4-chizma).



4-chizma


Ochiq demokratiyada xalq qarorlarni tayyorlash, muhokama va qabul qilishda bevosita ishtirok etadi. Demokratiyaning bu shakli qadimgi demokratiyada ustun bo'lgan. Hozirgi dunyoda o'z-o'zini boshqarish darajasida uchraydi. Imperativ mandat ham shu demokratiyaga kiradi. AQSHda Prezident saylovchilar jamoasi tegishli shtatlarda g'alaba qozongan nomzod uchun ovoz berishga majburdir.

Bevosita demokratiya siyosiy jarayonning barcha muhim bosqichlari fuqarolar ishtirokini ta'minlamaydi, tasdiqlash va rad etish huquqi beriladi. Vakilli demokratiya bevosita ishtirok yoki hamma uchun tushunish qiyin bo'lganda zarurdir. Fuqarolar huquqlari tengligiga ko'ra demokratiyani siyosiy va ijtimoiy vazifalarga bo'lismumkin (5-chizma).



5-chizma

Siyosiy demokratiya rasmiy tenglik, huquqlar tengligini nazarda tutadi, ijtimoiy demokratiya davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokinining aniq imkoniyatlari tengligiga asoslanadi. Ozchilikning ko'pchilikka bo'y sunishi masalasida despotik, totalitar va konstitutsion demokratiyalari bo'lishi mumkin (6-chizma).




6-chizma

Ozchilikning ko'pchilikka bo'y sunishi chegarasiz bo'lsa va inson hayot faoliyatining har qanday tomoniga tarqalsa, despotik demokratiya bo'ladi. Agar

ko‘pchilikning hokimiyati shaxsnинг to‘liq bo‘ysunishini talab etsa va uning ustidan doimiy, har tomonlama nazorat o‘rnatishga intilsa, unda demokratiya totalitar bo‘ladi. Konstitutsion demokratiya ko‘pchilikning hokimiyatini bir qolipga soladi, konstitutsiya va hokimiyatning bo‘linishi yordamida uning vakolatlari va vazifalarini cheklaydi va bu bilan ozchilikning, jumladan, alohida shaxsnинг mustaqilligi va erkinligini ta‘minlaydi.

Demokratiyaning 3 zamonaviy modeli mavjud (7-chizma).




7-chizma

Zamonaviy demokratik tizimlar XVIII asr oxiri va XIX asr davomida liberalizm ta’siri ostida boshlangan. Liberalizm individni jamiyat va davlatdan ajratdi, davlat va fuqarolik jamiyatini chegaraladi, davlatning ta’sir va vakant sohalarini chekladi, barcha fuqarolarning tengligini e’lon qildi, shaxsn fundamental, ajralmas huquqlar bilan ta‘minladi, ozchilikning mustaqilligi va huquqlarini himoya qildi.

Liberal g‘oyalarning vatani Angliyadir. 1215-yildayoq zamonaviy konstitutsiyalarning ilk timsoli – erkinliklar buyuk xartiyasi qabul qilingan edi. U hali demokratiyadan uzoq bo‘lsa-da, monarx huquqlarini aristokratiya foydasiga chekladi, fuqaroning shaxsiy erkinligi, huquqiy xavfsizligi e’lon qilindi. XIV asrdayoq parlament mavjud bo‘lgan. 1689-yilda qabul qilingan “Huquqlar to‘g‘risida Bill” tufayli qonunchilk huquqini oldi. Ilk liberalizm mafkurachilar (Lokk, Monteske) mulkdorlar sinfini monarxlar zo‘ravonligidan saqlashga, xususiy tadbirkorlikda feodal cheklashlarni bartaraf qilishga intildilar.

Mumtoz liberalizmning bir qator tavsifli belgilari bor (8-chizma).



8-chizma

Klassik liberal demokratiyaning kamchiliklari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1. Ijtimoiy-sinfiy cheklanganlik.
2. Aholining kambag' al qatlamlari uchun rasmiyiligi.
3. Demokratiya va shaxs ishtiroki sohalarining cheklanganligi demokratiyaning siyosiy elitaning hukmronlik shakliga aylantiradi.
4. Jamiatni boshqarishda davlat rolining pasayishi.
5. Haddan ortiq individualizm insонning jamoaviy turli ijtimoiy guruhlarga mansubligini hisobga olmaslik, manmanlik va xudbinlikni rag'batlantiradi.

Jamoaviy demokratiya – liberal demokratiyaning bu kamchiliklarini bartaraf etishga urinadi. U xalqning (millatning, sinfnинг) bir butun ekanligidan, unda yagona irodaning mavjudligidan kelib chiqadi. Jamoaviy demokratiyaning yirik vakillari – Russo, Marks, Lenin, Karl Shmittlardir.

Russo (1712-1778) jamiyatga (xalqqa) organizm sifatida yondashadi. Xalq yagona umumiyligida irodaga, begonalashmagan suverenitetga ega, unda ko'pchilik va ozchilik mavjud emas. Xalq hokimiyati bir butun ekanligidan, hech narsa bilan cheklanmagan. "Agarda kimdir umumiyligida irodaga bo'yusunishdan bosh tortsa, unda u bunga butun organizm bilan majbur qilinadi, bu esa uni kuch bilan erkin bo'lishga majburlashdan boshqa narsani bildirmaydi" (Pycco Ж.Ж. Тракты. – М., 1969. С. 164).

Sotsialistik demokratiya Russo konsepsiyasining asosiy tamoyillarini saqlagan holda, ijtimoiy va siyosiy ma'nosini o'zgartiradi. U ishchilar sinfining, keyinroq butun xalqning ustuvorligi va bir butunligidan kelib chiqadi.

Jamoaviy demokratiyaning bir qator umumiy belgilari bor (9-chizma).

**Jamoaviv
demokratiyaning
o'ziga xos 7 belgisi**

- Xalqning umumiy manfaat va irodaga egaligini tan olish
- Xalq ichida ziddiyatlarning yo'qligi, muxolifatga salbiy munosabat
- Davlat va jamiyat ishlarida barchani teng huquqli deb bilish
- Totalitarlik, ozchilikning to'liq himoyasizligi
- Inson muammosi yo'q davlat yaxlit, hammaning baxtli bo'lishidan manfaatdor
- Umumiy siyosiy safarbarlik, amaldorga xalq irodasini tarqatuvchi deb qarash
- Ijtimoiy demokratiya e'lon qilib, ijtimoiy sharoitni ta'minlashga o'tish

9-chizma


Jamoaviy demokratiya nazariyalari o'zining amaliy asossizligini ko'rsatdi.

Plyuralistik demokratiya – ilgari mavjud bo'lмаган ijtimoiy manfaatlarining (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, guruhiy, huquqiy) va ularni ifodalash shakllarining (siyosiy jarayonlar, uyushmalar va tabiatini, uning birlashmalar, jamoat harakatlari va h.k.) turli-tumanligiga asoslanadi.

Uning aniq xususiyatlari haqida har xil qarashlar mavjud. Bunda siyosatning bosh harakatlantiruvchi kuchi guruh bo'lib, unda shaxs o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish imkonini topadi. Xalq esa siyosatning bosh subyekti bo'lishi mumkin, plyuralizmni rag'batlantirib, qiziqishlarni ochiq ifodalash uchun birlashishga imkon berish kerak. Raqobatli kurashda ularning muvozanatiga erishiladi.

Plyuralistik nazariyalar bir qator umumiy belgilarga ega (10-chizma).

Demokratiya haqida plyuralistik nazaridaning 8 belgisi




10-chizma

Plyuralistik demokratiya modeli ham bo‘shroq o‘rin va kamchiliklardan xoli emas. Ammo bugun xalq hokimiyatchiligi idealiga va real hayotga yaqin bo‘lgan siyosiy tizim modellari yo‘q. Shuning uchun bu nazarida katta ta’sirga ega va boshqa konsepsiylar bilan to‘ldiriladi. Jamlovchi nazarialar sifatida reprezentativ (vakillik) va partiyalar (siyosiy ishtirokchilik), konsepsiylari ma’lum.

Darendorf vakillik demokratiyasini shunday tushuntiradi: “Demokratiya – “xalq boshqaruvi” emas, bunaqasi dunyoda (oddiygina) bo‘lmaydi. Demokratiya – bu xalq tomonidan saylanuvchi, agarda zarur bo‘lsa, xalq tomonidan saylanuvchi hukumat, bundan tashqari, demokratiya – bu o‘z xususiy yo‘liga ega bo‘lgan hukumat”.


Vakillik demokratiyasini parlamentarizmda yaqqol amalga oshadi. Vakillik demokratiyasini ma’lum ijobiloy tomonlari bilan tafsiflanadi (11- chizma).



11-chizma


Shu bilan birga kamchiliklardan ham xoli emas. Vakillik demokratiyasini, odatda, quyidagi kamchiliklarini ta'kidlaydilar: Saylovlar o'rtasidagi oraliqda xalqning amalda hokimiyatdan chetlashtirilishi, hokimiyatning byurokratlashuvi va oligarxiyalashuvi, kuchli manfaatlar guruqlarining siyosatga ustuvor ta'siri, avtoritarizm va h.k.

Partiipator (siyosiy ishtirokchilik) demokratiya siyosiy harakatning barcha bosqichida (qarorlar tayyorlash, qabul qilish, amalga oshirish) barcha fuqarolar ishtirokini taqozo qiladi. Uning maqsadlari shundan kelib chiqadi (12-chizma).




12-chizma.

Partiipator demokratiya ham kamchiliklardan xoli emas (13-chizma).



13-chizma


Dunyoda demokratiyaning tarqalishi murakkab va ziddiyatli jarayondir. Jamiyat tarixida demokratiya darajasi goh ko'tarilib, goh pasayib kelgan, goh umuman yo'qolib ketgan. Ammo u takomillashib, yangi-yangi shakllarda paydo bo'lgan va o'zining afzalligini isbot qilib kelmoqda (14-chizma).



14-chizma.


Hozirgi dunyoda demokratiya g'oyasi keng tarqalgan va tan olingan. Biroq unga o'tish juda murakkab. Dunyoning ko'pchilik davlatlarida hali nodemokratik tizimlar hukmron. Boshqaruvning demokratik shakllari yashashga qobiliyatsiz bo'lib chiqmoqda, halokatga uchramoqda. Demokratiyaga o'tish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy shart-sharoitlar zarur.

Demokratiyaning iqtisodiy sharoiti zamonaviy ishlab chiqarish taraqqiyoti yo'liga o'tishdir (15-chizma).



15-chizma

Biroq yuqori iqtisodiy taraqqiyotning bir o'zi yetarli emas. Ijtimoiy boylik, ijtimoiy tengsizlikni yumshatishga yordam bergan holdagina jamiyatni demokratlashtirishga qulay ta'sir ko'rsatadi (16-chizma).



16-chizma

Ijtimoiy boylik tengsizlikning dekompozitsiyasi modeli turli noyob ne'matlarni (daromad, boylik, obro', hokimiyat, ta'lim va boshqalar) bir ijtimoiy guruhda jamlanishiga yo'l qo'yaydi, ayniqsa, bu sohada past ko'sratkichga ega bo'lgan individ boshqa ne'matlarga ega bo'lish hisobidan o'zini qoplashi uchun, jamiyatda ularning tarqoq bo'lishini talab etadi. Ijtimoiy plyuralizm davlat hokimiyyati jamlanishi tendensiyasini to'xtatib turadi. Hokimiyat ustidan samarali nazorat o'matilishiga imkon yaratadi. Ko'p sonli va ta'sirli o'rta sinf o'ziga xos xususiyatlari bilan demokratiyaning muhim sharoitlari bo'ladi. Aholining ma'lum bilim darajasi ham demokratiya uchun juda zarur. Shaxs siyosiy mulohazalarining salmoqliligi, fikrlash erkinligi, shaxsiy qadr-qimmatini his etishga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, demokratiyaning amalga oshishida siyosiy madaniyat ham katta ahamiyat kasb etadi. Siyosiy madaniyatning ayrim vazifalari demokratiyaning o'rnatilishiga yordamlashsa, boshqalari unga o'tishga to'sqinlik qiladi. Total siyosiy madaniyat, siyosiy zo'ravonlikka chidovchi madaniyatlar demokratiyaga dushmandir.

Demokratiya nafaqat ichki rivojlanish natijasi, tashqi kuch ta'sirining oqibati bo'lishi ham mumkin. Biroq demokratiya tashqaridan keltirilgan hollarda, hali uning uchun ichki shart-sharoitlar yaratilmaguncha, barqaror va yashashga qobiliyatli bo'la olmaydi.


Demokratlashtirishning uch umumiyligi modeli mavjud

1. Klassik model. Bunda monarxik hokimiyatni asta-sekin cheklash, fuqarolar va parlament huquqlarini kengaytirish yo'lidan boriladi (Britaniya varianti). Bu modelni to'g'ri chiziqli demokratlashtirish deb ataladi. Fuqarolar dastlab fuqarolik (shaxsiy), keyinroq siyosiy va ancha keyin ijtimoiy huquqlarini oladilar. Parlament oliy qonunchilik hokimiyatiga aylanadi va hukumatni nazorat qiladi.

2. Davriy model. U siyosiy elitaning demokratiyaga ijobiy munosabati sharoitida boshqaruvning demokratik va avtoritar shakllarining almashib turishini mo'ljallaydi. Bunday holda xalq saylagan hukumat yoki harbiylar tomonidan ag'dariladi yoki hukumatning o'zi hokimiyatni yo'qtotishdan qo'rqib, muxolifatdan tortib oladi. Avtoritar va demokratik muassasalar yonma-yon bo'lishlari mumkin. Bu model Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyoda keng tarqalgan. Demokratiyaga bunday o'tish cho'ziluvchan va qiyin kechadi. U demokratiyaning ichki sharoitlari yetuk emasligini ko'rsatadi.

3. Dialektik model. Bunda ham davriy model kabi o'tish davri beqaror. Ammo ancha pishib yetilgan ichki sharoitlarda (industriashtirish, ko'p sonli o'rta sinf, fuqarolar yuqori bilim darajasi va boshqalar) amalga oshadi. Bu sharoitda avtoritar tartib tez va to'satdan halokaqta uchraydi. Tajribasiz demokratik hukumat samarali boshqara olmaydi va yangi avtoritar tartib bilan o'rin almashadi. Ammo u ham uzoq yashamaydi.

Saylov muayyan qoidalar yordamida fuqarolar siyosiy irodasini bayon etish orqali hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirish uslubidir. Saylov demokratiyaning uzviy qismidir. Demokratiya sharoitida saylovlar muhim vazifani bajaradi (17-chizma).



17-chizma

Saylov tizimining 2 asosiy turi mavjud (18-chizma).




18-chizma

Majoritar tizimda (muqobililik asosida) nomzodni, “50 % +1”, ya’ni nisbiy ko’pchilik ovoz bilan saylanadi. Ikki turdan iborat saylov ham uning o’zgargan shaklidir. Ko’pchilik fikri hisobga olinishi uning yutug’idir. Kamchiligi – 49 % ovozning yo’qotilishidir.

Proporsional (vakolat asosidagi) tizimda hokimiyatning vakillik organlari ovozlar soniga proporsional saylanadi. Fuqarolar individual nomzodlarga emas, nomzodlar jamoasiga ovoz beradilar. Saylov chizig’i belgilanadi (2 %dan 10 %gacha). Bunda hokimiyatda ko’p guruh vakillari qatnashadi.

Hozirgi davrda aralash tizimdan ham foydalanimoqda. Hozirgi vaqtda erkin demokratik saylovlар bir qator muhim tamoyillarga asoslanadi (19-chizma).



19-chizma

Shuningdek, saylovlarni demokratik tarzda tashkil etilishining umumiy tamoyillari shakllangan. Ular quyidagilar:

- saylovchilar, faollar, nomzodlar va saylov tashkilotchilariga bosimning yo'qligi;


- tanlovgaga muqobil nomzodlarning mavjudligi;

- saylovarning musobaqa, raqobatga asoslanishi;

- saylovarning davriyligi va doimiyligi;

- siyosiy partiyalar va nomzodlar imkoniyatlarining tengligi.

Vaqt va hal qilinayotgan vazifalar xususiyatidan kelib chiqib, saylov jarayoni bir necha bosqichga bo'linadi (20-chizma).



20-chizma

Birinchi tayyorlov bosqichida saylovlar, shuningdek, ularni o'tkazish imkonini yaratuvchi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi. Har bir mamlakat saylov to'g'risidagi qonunda saylov bosqichlari davridagi tartib-qoidalarni belgilab beradi.

Mashg'uoltan so'ng berilgan talabalarning savollari tushuntirilgach, eng asosiy tushunchalarni qisqacha so'rash yoki namoyish qilish mumkin.

3-bosqich. Test namunalari.

1. Olomon hokimiyyati qaysi asosga ko'ra ajratiladi?

A) xalq tuzilishiga ko'ra;

B) xalqning boshqarishda qatnashuviga ko'ra;

V) xalq suvereniteti amalga oshuviga ko'ra;

G) ozchilikning ko'pchilikka bo'y sunishiga ko'ra.

(Bu testning har bir javobiga mos savollar qo'yib, 4 test turida foydalanish mumkin)

2. Demokratiyaning 3 zamonaviy modeli qaysilar?

A) vakillik, ishtirokchilik, referendum;

B) liberal, jamoaviy, pluralistik;

V) siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy;

G) despotik, totalitar, konstitutsion.

3. Demokratlashtirishning 3 asosiy modelini ko'rsating.

A) klassik, davriy, dialektik;

B) siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy;

V) bosqichma-bosqich, inqilobiy, an'anaviy;

G) sharqona, g'arbiy, amerikacha.

Bu kabi testlar ma'ruzaning asosiy tushunchalarini qisqa vaqtida eslashga, takrorlashga imkon beradi. Testlar juda qisqa vaqtida hal qilinsa, u yoki bu demokratiyaning afzalligi va kamchiliklarini aqliy hujum vositasida takrorlash mumkin. Shundan so'ng oqimni 3 jamoaga ajratib, quyidagi savollarni hal qilishni topshiramiz:

1. G'arb demokratiyasi xususiyatlari (1-jamoaga).
2. Sharqona demokratiya (2-jamoaga).
3. O'zbekistonda milliy demokratiyaning o'ziga xosligi (3-jamoaga).

Bu savollar talabalarning demokratiyaning mohiyatini qay darajada tushunishlarini, olgan nazarini bilimlarini hayot bilan bog'lash mahoratini mustahkamlaydi. Jamoa vakillari javoblari eshitilgach, javoblar baholanadi, muhokama qilinadi va o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. Bu savollarni seminar mashg'ulotlarida yanada chuqurroq o'rganish uchun topshiriladi.

O'qituvchi talabalarning savollariga javob bergach, eng yangi, muhim adabiyotlar haqida ma'lumot beradi va darsni yakunlaydi.

2.4. Davlat. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat

1-bosqich. O'qituvchi mavzu, reja, tayanch so'zlar, mustaqil ish uchun topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxatini talabalarga tanishtirgach, darsning maqsadini, mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini tushuntirish orqali talabalarning diqqatini yo'naltiradi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

Reja:

1. Davlat tushunchasi, uning asosiy unsurlari va tashkiliy tuzilishi.
2. Davlatning vazifalari.
3. Davlat shakllari.
4. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat.

Tayanch so'zlar

Davlat, davlatning tarkibiy qismlari, davlat ramzlari, davlatning vazifalari, unitar davlat, federativ davlat, konfederatsiya, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, fuqarolik jamiyat, "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" konsepsiysi, o'tish davri.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Suveren davlat haqida fikringizni aytинг.
2. O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida tavsiflang.
3. O'zbekistonning zamonaviy demokratik davlatga aylanish yo'lli xususiyatlarini tavsiflang.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'lli – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'lli. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmash kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.

5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.

6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va oboz bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.

7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom etirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.

8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).

9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19- yanvar, №7.

10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие . – М., 2006.

11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – Т.: Fan, 2009.

12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – Т.: Adib, 2010.

2-bosqich. Talabalar boshqa ijtimoiy fanlar orqali davlat haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lganlari tufayli, ularning diqqatlarini to'plash, qiziqtirish uchun "Kim tezroq" usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Dastlab quyidagi savollarga javob topishni tavsiya qilamiz:

1. Davlat qachon paydo bo'lgan?
2. Tarixda qanday davlatlar bo'lgan?
3. Davlatning qanday belgilari bor?
4. Hozirgi dunyoda nechta davlat mavjud?
5. Davlat ramzlarini aytинг.
6. Davlatning vazifalarini aytинг.
7. Davlatning qanday shakllari bor?
8. Monarxiya nima?
9. Respublika nima?
10. Unitar davlatga misol keltiring.
11. Federativ davlatga misol aytинг.


Bu savollarga qisqa vaqtida (5 daqiqa) javob beriladi. Javoblarni og'zaki baholab, talabada tasavvurlar borligini, biroq hali davlat haqida bilimlarimizni kengaytirish zarurligini ta'kidlaysiz. Yakka javob berishni talab qilmasdan quyidagi savollarni o'qib eshittirish mumkin:

1. Davlatning mohiyati haqida qanday konsepsiylar mavjud?
2. Global jarayonlar davlatga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
3. Davlatning eng ma'qul shakli qaysi?
4. Davlatning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?
5. Fuqarolik jamiyatni nima?
6. Huquqiy davlat jamiyatni qanoatlantirmasligi mumkinmi?

Bu savollarga qisqa va yagona javob yo'q. Ayrimlari muammoli. Shundan keyin, rejadagi mavzuni o'rganish boshlanadi. Bu savollarga mashg'ulotdan so'ng

beriladigan javoblar bilan taqqoslash uchun dastlabki javoblarni yozib qo'yish ham mumkin.


3-bosqich (ma'ruza matni). 1. Biz davlat deganda, avvalo, insonlar o'rtasidagi yuridik qonunlar bilan boshqariladigan ma'lum munosabatlarni tushunamiz. Davlat makonda harakat qiladigan odamlar ham emas, balki normalar tizimi bo'lib, insonlarning ma'lum xatti-harakati uning mazmunini tashkil qiladi. Davlat aniq makon-zamonda mavjud jamoaviy hodisa, negaki, yuridik tartiblar aniq hududda va aniq vaqtida amal qiladi. Bu tushunchada muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisalarining alohida turi ifodalanadi (1-chizma).



1-chizma

Shunday qilib, davlat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilar xatti-harakatini normativ normalar yordamida majburiy boshqaruv bilan tavsiflanadi.

Davlat ko'pgina o'ziga xos belgilarga ega. Ammo har qanday davlatga asos bo'luvchi 3 tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish lozim (2-chizma).



2-chizma

Ulardan birortasi mavjud bo'lmasa, davlat ham bo'lmaydi. Bu tarkibiy qismlarning turi va ahamiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz:

1. Hudud – davlatning makoniy asosi. Davlat ijtimoiy hodisa bo'lsa-da, jismoniy, moddiy asossiz mavjud emas. Uning hududi o'zgarib turishi mumkin. Hokimiyatning bosh maqsadlaridan biri hududiy yaxlitlikni kafolatlashdir – bu xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlanib olinadi. Jamiat tarixida hududning

o'ziga xos xususiyatlari davlat va uning boshqa sifatlarini belgilashda muhim rol o'ynagan. Hudud davlatlar mavqeyi uchun shu darajada ahamiyatliki, hozirga qadar ham davlatlar o'rtasida chegara tortishuvlari juda ko'p. Ayrim uyushmalar kafolatlangan hududi yo'qligi uchun davlat maqomini olgan emas. Davlatning paydo va yo'q bo'lishi hududi, uning xususiyatlari bilan bog'liq. Hudud yerni, suvni, yer usti va yer osti boyliklarini, havoni o'z ichiga oladi.

2. Aholi. Davlatning juda ko'p imkoniyatlari aholining soni va sifatiga bog'liq. Ishchi kuchlari, turli sohalarni o'zlashtirish, taraqqiyot yo'lini tanlash va boshqa masalalarni hal qilishda aholining soni va sifati, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, ijtimoiy, milliy, yosh, kasb tarkibi muhim ahamiyatga ega. Xalqni ijtimoiy-madaniy qadriyatlar birlashtirib turadi. Davlat aholisi ko'p millatli yoki bir millatli bo'lishi mumkin. Har qanday davlat, asosan, bitta xalqqa tayanadi. Shuning uchun hozirgi zamон davlatlari milliy davlatlardir. Milliy guruhlarning soni va joylashuviga, ularning manfaat, intilishlariga qarab, ko'p millatli davlatlarda mojaroni yumshatish uchun federatsiya, ba'zan avtonomiya tuziladi.

3. Hokimiyat. Siyosiy elita va aholi o'rtasida hukmronlik – bo'y sunish munosabatlari o'rnatiladi. Hokimiyat yuridik normalar orqali amalga oshadi. U aholining turli guruhlariga nisbatan befarq bo'lmaydi. Rasmiylashgan hokimiyat barqarorlik kasb etadi. Hukmronlar o'zgarib turadi, tashkilot esa saqlanadi. Hokimiyat suveren bo'lib, o'z hududida – oliy, xalqaro hamjamiyat – mustaqil hokimiyat sifatida namoyon bo'ladi. Hokimiyatning ichki va tashqi suvereniteti doimo bosim ostida bo'ladi.

Bu asos, belgilarsiz hech qanday davlat mavjud bo'la olmaydi. Davlatning Konstitutsiyasi, bayrog'i, madhiyasi, tamg'asi, pul-soliq tizimi va shular bilan bog'liq boshqa muhim belgilari ham bor.

Davlatning mohiyatini tushuntirishda siyosatshunoslikda ko'plab konsepsiylar mavjud. Davlatning organizmik nazariyasi uni organizm bilan sodda fiziologik o'xshatishiga asoslanadi (Platon, Shef, Spenser va boshq.). Haqiqatan ham davlatda ichki tartib, nisbiy mustaqil unsurlarining o'zaro ta'siri moslashadi. Biroq ijtimoiy taraqqiyot shaxs erkinligi, faoliyati samaradorligi bilan bog'liq ekan, davlat va uning ziddiyati o'rta statistik insonning ahvoli bilan belgilanadi.


Davlatning realistik nazariyasida umumiy tomon (davlat) individuallikdan ustun qo'yiladi (Aristotel, Kant, Marks). Bu nazariyaning kuchli tomoni shundaki, butun bo'laklarning shakllanish qonuni bo'lganidek, davlat ham obyektlarni tizimlovchi sifatida maydonga chiqadi. Marks ta'limoticha, davlat bir sinfning zo'rlik organidir, sinfiy murosasizlik mahsulidir.

Leviatan davlat nazariyasiga ko'ra, u insonga qarshi stixiyali kuchlarni aggressivlashtiradigan dahshatli jonzotdir. Hokimiyat aqlsiz, noratsional, shafqatsiz, ruhsiz mutlaq kuch bo'lib, shaxsning qo'lida dahshatli diktaturaga aylanadi. Tarixda mavjud bo'lgan davlatlarning shafqatsizligi, cheksiz hukmronligi bu konsepsiya umumiy xususiyat sifatida mutlaqlashtirilgan.

Davlatning konvensional nazariyasiga ko'ra, davlat umumiy dushmanlik holatida yashash imkoniyati qolmagani tufayli, odamlarning o'zaro shartnomasi natijasidir (Platon, Ieron, Gobbs, Lokk, Spinoza, Russo va b.).


Etatizm nazariyasiga ko'ra davlat xudoning dunyoda zuhuroti va tantanasi bo'lib, umumiy irodasining cheksiz hokimiyatidir. Bu nazariyalarning har birida ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida davlatning turi va rolini ko'rsatuvchi asoslar bor. Davlat jamiyatdan ajralib chiqib, unga vazifali darajada munosabatda bo'lib kelgan.

Umumiy tarzda hozirgi zamon davlatlariga nisbatan aytish mumkinki, davlat turli ijtimoiy guruhlarning umumiy manfaatlarini ifodalash orqali ularni birlashtirish, jamiyatni boshqaradigan siyosiy shakldir. Davlat vujudga kelishining ko'p sabablarini ko'rsatish mumkin (3-chizma).



3-chizma

Hozirgi zamon davlatlarining tashkiliy tuzilmasida zaruriy unsurlar bor (4-chizma).



4-chizma

Davlatning vazifalarini turli munosabatda turlicha ajratib ko'rsatish mumkin: ichki va tashqi, vositachilik va boshqaruvchilik, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va hokazo.

Biz bu yerda davlatning vositachilik va boshqaruvchilik vazifalarini qisqacha qarab chiqamiz (5-chizma).

Davlatning vositachilik funksiyasiga kiruvchi 3 vazifa

Mudofaani tashkil qilish

Chet mamlakatlar bilan
o'zaro aloqalarni yo'liga
qo'yish

Guruqlar o'tasidagi
ziddiyatlarni hal qilish

5-chizma

Davlat aholining vazifali manfaatlarga ega bo'lgan guruhlari o'tasidagi mojarolarni hal qiladi, ularni hukmron guruhlar manfaatlarini himoya qilgan holda kelishtiradi. Kelishtirish uchun hukmron guruhnini ham ma'lum darajada chegaralashga majbur bo'ladi. Bu vazifani hal qilishda davlat artitr, majburlovchi kuch sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Davlat tashqi ziddiyatlarni hal qilishi, chet davlatlar bilan munosabatlarni ham yo'liga qo'yishi lozim. Mudofaani tashkiliy qilish, diplomatik munosabatlarni o'rnatish va boshqa davlat taqdirda muhim bo'lgan muammolarni hal qilishi kerak bo'ladi. Bular davlatning vositachilik funksiyalariga kiradi.

Endi davlatning boshqarish funksiyalariga to'xtalamiz (6-chizma).

Davlatning 4 boshqarish funksiyasi

Mavjud tuzilmalarning huquqini belgilash

Pul chiqarish

Qonunlarning bajarilishini amalga oshirish va nazorat
qilish

Aholidan soliq va boshqa yig'imiylar olish

6-chizma

Boshqarish uchun davlatning maxsus organlari jamiyatni rivojlantirishga yo'nalgan normalarni shakllantiradi. Davlatning vazifasi mavjud ijtimoiy tartiblarni saqlashdangina ibrat emas, nazorat qilish va jamiyat uchun zarur faoliyatni amalga oshirishdan ham ibrat. Har qanday jamiyatda iqtisod, ma'naviyat, sud ishlari bilan bog'liq, tabiiy resurslar, sog'liqni saqlash, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ta'lim, kommunikatsiya kabi ko'plab muammolari mavjud. Davlat bu vazifalarni amalga oshirish uchun har bir tuzilmaning huquqlarini (shu jumladan, o'zining huquqlarini ham) belgilovchi qonunlar ishlab chiqaradi, vazifalarini aniqlab beradi, pul chiqarishni, soliq va aholidan olinadigan boshqa yig'imiylarni o'z qo'lida saqlab qoladi. Siyosiy hukmron elita shu vositalar yordamida bu jarayonlarni

boshqarish uchun faoliyat ko'rsatadi. Elitaning obro'si bu vazifalarni hal qilishdagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Shuning uchun elitaning o'z faoliyati haqidagi nima deyish emas, amalga oshirgan ishi muhimdir. Ularni hal qilishga esa turli darajada to'siqlar ko'p. Shuning uchun siyosiy istaklar, maqsadlar sohasiga emas, faktlar sohasiga mansubdir. Tarix elitaning nimaga intilishiga qarab emas, nimani amalga oshirganiga qarab baho beradi.

Tarixda boshqarish usullari va milliy-hududiy tuzilishiga ko'ra davlatning turli shakllari mavjud bo'lgan. Boshqarish tarziga ko'ra respublika va monarxiyani farqlaydilar. Biz "Siyosiy hayot, siyosiy jarayon va siyosiy tizim" mavzusidagi 3-ma'ruzada uning turli ko'rinishlarini tahlil qilganmiz.

Milliy hududiy tuzilishiga ko'ra unitar, federativ va konfederativ davlatlar farqlanadi (7-chizma).

Davlatning milliy hududiy tuzilishiga ko'ra 3 shakli

Unitar

Federatsiya

Konfederatsiya

7-chizma

1. Unitar (yagona) davlat – yagona konstitutsiya va fuqarolik, yagona qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi organlar, yagona huquq, sud va boshqa mustaqil davlatchilik tavfsida bo'limgan ma'muriy-hududiy birlik tashkilotlari bilan siyosiy bir butun bo'lgan davlatadir (8-chizma).

Unitar davlatga xos 3 belgi

Yagona konstitutsiya va fuqarolik

Yagona qonun chiqaruvchi va ijro organi

Yagona sud-huquq tashkilotlari

8-chizma


Bunday davlatlar, asosan, bir millatlidir. Umumiy qoidaga ko'ra quiyi darajada hokimiyyat organlari emas, boshqaruv organlari tuziladi.

Hokimiyyat kuchi darajasiga, unitarlik doirasidagi mustaqillikning hajmi va mazmuniga ko'ra markazlashgan va markazlashmagan unitar davlatlar farq qiladi.

Markazlashgan unitar davlatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya kabilalar) boshqarishning quiyi mahalliy organlari o'z-o'zini boshqarishga va markazning ko'rsatmalarini bajarishga yo'nalgan bo'ladilar.

Markazlashmagan unitar davlatlarda (masalan, Fransiya, Ispaniya, Italiya kabilalar) nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan ma'muriy-hududiy tarkibga (shtat, proviniya, kanton kabilalar) ega bo'ladilar.

2. Federatsiya (lot. ittifoq, birlashma) – o‘z vakolatlaridan bir qismini markaziy hokimiyatga bergen, o‘z konstitutsiyasiga, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar tizimini o‘zida saqlagan davlatlarning ittifoqidir (9-chizma).



9-chizma

Federatsiya bir necha mustaqil davlatlar birlashishga intilganlarida vujudga keladi. AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Meksika, Hindiston kabilalar bunga misoldir.

Federatsiya mezonlari quyidagilarni taqozo qiladi:

- tashqi siyosatni olib borish huquqi federal hukumat ixtiyoridadir;
- ittifoq Konstitutsiyasining faqat federatsiya a'zolari roziligi bilan o'zgartirilishi;
- ajralib chiqish huquqi mavjudligi;
- markaz tomonidan a'zo davlat chegaralarini uning roziligesiz o'zgartirish huquqi yo'qligi;
- ikki palatali parlamentda davlatlarning kamida bir palatada teng vakilligi.

3. Konfederatsiya – davlatning kam barqaror shakli bo'lib, tashqi, shu jumladan himoya maqsadida yoki ichki rejalarining ma'lum maqsadlarini birgalikda amalga oshirish maqsadida, tuzilgan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy ittifoqidir. Qonun bo'yicha ular tenglar va ajralib chiqishga cheklanmagan huquqlari bor.

Konfederatsiyaning ichki tashkil qilinishida quyidagi holatlarni ta'kidlash lozim:

- moliyaviy resurslar badaldan to'planadi;
- qurolli kuchlar har biriga tegishli, rasman umumiy qo'mondon bo'lishi mumkin;
- qonun normalari a'zo davlatda e'lon qilinganidan keyin majburiy;
- qonun chiqaruvchi organ tarkibida soni va vakolatlari teng;
- byurokratik apparat yo'q;
- ijro organlarining kollegial tavsifi;
- xalqaro siyosat asosan birgalikda olib boriladi.

Hozirgi davrda konfederatsiyaga Yevropa hamkorligini misol qilib keltirish mumkin.

4. Dastlabki davlatlar shakllanishi bilan ijtimoiy hayotda qonunning qaror topish g'oyasi paydo bo'ldi. Biz “Siyosiy qarashlar, ta'limotlarning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusidagi ikkinchi ma'ruzada qonunga munosabatda 3 an'anani (diniy, yuridik, siyosiy-sotsiologik) ko'rib chiqqan edik.

Huquqiy davlat g'oyasi yangi davrdagina nazariy jihatdan asoslandi. Graiy, Spinoza, Gobbs tabiiy huquq va davlatning shartnomaviy kelib chiqishi haqida ratsionalistik konsepsiyasini olg'a suradilar. Davlatning mohiyatini talqin qilishda, ayniqla, liberallar va revolyutsion demokratlar nuqtayi nazarlari ajralib turadi.

Liberallar (Lokk, Volter, Monteske va b.) shaxsiy erkinlik prinsipini yoqlab chiqdilar, konstitutsion monarxiya, hokimiyatning bo'linish tamoyillarini olg'a surdilar.


Demokratik lager namoyondalari xalq hokimligi va respublika tarafidori bo'ldilar. Huquq ko'pchilik qabul qilgan qonun bilan tenglashtirildi, qonun chiqaruvchi hokimiyat amalda cheklanmagan vakolatga ega ekanligi tasavvur qilindi.

Kant huquqiy davlat g'oyasini yangi bosqichga ko'tardi. Tabiatni bilishda haqiqiy tajribani kishilar o'rta sidagi munosabatlardan axloq va huquq qonunlarini chiqarib tashlab bo'lmaydi, uni aqldan izlash kerak.

Kant fikricha, davlat huquqiy qonularga bo'y sunadigan ko'pchilikning tashkilotidir. Unda huquqiy qonun ustuvor bo'lishi kerak. Bu qarashlari bilan Kant qonunni tabiiy huquqlardan kelib chiqqan deb biluvchi liberalizmning ham, qonunni ovoz berish yo'li bilan qabul qilinishi tarafdoirlari bo'lgan revolyutsion demokratiyaning ham kamchiliklarini tugatdi. Kant fikricha, qonunadolatliliginning oliy mezoni axloqdir. Huquqiy qonunlar axloqning birinchi bosqichi hisoblanadi. Huquqiy fuqarolik jamiyatni axloqiy hamjamiyat sari bosqichdir.

Huquqiy davlat tushunchasini ilmiy iste'molga birinchi bo'lib R.Mol kiritgan. XX asrda kapitalizm ziddiyatlari yanada kuchayib ketdi, sinfiy kurash keskinlashdi. 30-yillarda fashizmga, stalinizmga reaksiya sifatida inson huquqlari, demokratiya va gumanizm muammolariga qiziqish kuchaydi.


Davlatning asl maqsadi odamlarning umumiy maqsadlarini amalga oshishidir. Ammo bu xulosa hozirgi zamon davlatlari uchun yetarli emas. Huquqiy davlatning asosiy prinsipi shaxs huquq va erkinliklarini, ijtimoiy tartibini himoya qilish maqsadida davlat hokimiyatini chegaralashdir. Huquqning manbai sifatida davlat emas, ajralmas huquqlar kompleksi bilan shaxs turadi (10-chizma).



Huquqiy davlatda alohida shaxs va xalq bir vaqtida hokimiyatning ham subyekti, ham obyekti. Umumiy saylov huquqi va hokimiyatning uchga bo'linishiga amal qiladi. Fuqarolik munosabatlarini davlat tomonidan boshqarilishida taqiq usulidan ruxsat usullari yuqori turadi. Huquqiy davlat fuqarolariga qonunni hurmat qiluvchi va unga so'zsiz amal qilishni ta'minlovchi yuqori darajadagi huquqiy ong xosdir.

Huquqiy davlat fuqarolik jamiyat bilan bir vaqtida shakllanadi, davlat faoliyatining tugatilishi nodavlat soha turlari kengayishi bilan bir vaqtida kechadi.

Masalaning faqat yuridik jihatdan hal qilinishi ijtimoiy notenglik va ijtimoiy taranglik masalalari keskinligini yumshata olmadi (11-chizma).




11-chizma

Moddiy erkinlik, ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy boylikni qayta taqsimlash, fuqarolar farovonligi masalalarini hal qilishda huquqiy davlatning imkoniyatlari chegaralanganligi ma'lum bo'lgach, ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyoti paydo bo'ldi.

Ijtimoiy davlat ma'lum ma'noda huquqiy davlatning davomi va kamchiliklarini bartaraf qiluvchi sifatida davlatning roli masalasiga boshqacha yondashuvdir. Davlatni chegaralash, minimal holga keltirish liberal konsepsiya xos bo'lsa, ijtimoiy davlat va uning har bir kishiga munosib hayot sharoitini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga intilish konservativ konsepsiya xosdir. Ijtimoiy davlat milliy daromadni kam ta'minlangan qatlamlar foydasiga qayta taqsimlashga, mehnatkashlarning ish bilan ta'minlanishi va huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e'tibor beradi.


Huquqiy davlat individ ishiga aralashmaslikka kafolat berib, formal erkinlik haqida qayg'ursa, ijtimoiy davlat insонning ijtimoiy va moddiy qiyinchiliklari haqida qayg'uradi. Ijtimoiy davlat vazifalarini hal qilish individual tavsifga, qo'llaydigan institutlar esa ijtimoiy tavsifga ega, ya'ni u individual manfaatlarni tan olmaydigan byurokratik apparatga muhtoj bo'ladi (12-chizma).



12-chizma


Ijtimoiy davlatda ham keskin muammolar ko'payib ketishi mumkin. Masalan, davlatdan yordam oluvchilarning tinimsiz oshib borishi, ta'lim davrining, nafaqaga chiqishning ko'payishi, demografik jarayonlar va u bilan bog'liq muammolar keskinlashishi mumkin. Shuning uchun huquqiy, ijtimoiy davlat zamonaviy yashashning minimal darajasini kafolatlash bilan qanoatlanadi.

Huquqiy ijtimoiy davlat, fuqarolik jamiyatini, uning institutlarini ishga faol jalb qilmasa, taraqqiyotga yetarli turki bera olmaydi. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning boshqaruv jarayonida real ishtirokini, davlat faoliyati ustidan ularning nazoratini ta'minlashga layoqatli nodavlat ijtimoiy tashkilotlarning yig'indisidir. Hozirgi zamon fuqarolik jamiyati qator xususiyatlar bilan ajralib turadi (13-chizma).




13-chizma

Fuqarolik jamiyati faqat tashkilotlardan iborat emas, ular faoliyati bilan bog'liq ma'nnaviy hodisalarni ham o'z ichiga oladi (14-chizma).



14-chizma

Fuqarolik jamiyatining real tomonlarini institutlar, harakatlar, bozor, ommaviy axborot vositalari tashkil qiladi (15-chizma).



15-chizma

Hozirgi zamon jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyatida inson davlat uchun emas, davlat inson uchun mavjud bo'lgan, barcha ijtimoiy qatlamlar esa davlat tomonidan kafolatlangan huquq va o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilishning real imkoniyati bo'lgan holatidir.

Shunday qilib, davlat o'zgarmas hodisa emas. U jamiyat tarixida turli mohiyat va mazmunga, turli shakl va xususiyatlarga ega bo'lib kelgan. Hozirgi zamon jamiyatı davlatlarsiz o'z muammolarini hal qila olmasligi, juda ko'p muammolar demokratik davlatlarning hamkorligi asosidagina to'g'ri yechimini topa olishi mumkinligi shubhasisiz. Turli mintaqalarda demokratik davlatchilik tendensiyasining kuchayishi davlatning jamiyat muammolarini hal qilishda ahamiyati oshib borayotganini ko'rsatmoqda.

4-bosqich. Yakuniy qism. Talabalar savollarga javob bergach, "Aqliy hujum" usuli orqali ma'ruzaning asosiy mazmunini eslash lozim. Buning uchun savollar bilan murojaat qilamiz:

1. Davlatning asos bo'lувчи qismlarini aytинг.
2. Davlat tashkiliy tizimining zaruriy unsurlarini aytib o'tинг.
3. Davlatning mohiyati haқida qanday konsepsiyalarni bilasiz?
4. Unitar davlatning xususiyatlarini aytинг.
5. Federatsiyaga xos belgilari nimada?
6. Konfederatsiya uchun zaruriy holatlar qaysilar?
7. Hozirgi zamon davlati rivojida qanday tendensiylar bor?

Shundan so'ng talabalarni 2 jamoaga bo'lib, quyidagi mavzu bo'yicha javob yozishni tavsiya etamiz.

1. O'zbekistonning huquqiy davlat qurish sari tashlagan qadamlari (1-jamoaga).
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari (2-jamoaga).

Bu vazifalar talabalarni olgan nazariy bilimlarini hayot bilan bog'lashga, muammoni chuqurroq o'zlashtirib olishga, mustaqil fikrleshga, bu sohada O'zbekistonda kechayotgan jarayonlarni teran tushunishga yordam beradi. Taxminan 5-7 daqiqada aniq javoblar tayyor bo'ladi. Javoblar mas'ullar tomonidan butun oqimga eshittiriladi. Boshqa jamoaning savollariga javob beriladi.

O'qituvchi javoblarni baholab, ularni to'ldiradi, talabalarning savollariga javob berib, qiziqarli adabiyotlarni (ular adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan) o'qishni tavsiya qiladi.

2.5. Siyosiy elita

1-bosqich. Talabalarga mavzu, tayanch so'zlar, mustaqil ish uchun topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxatini taqdim etamiz. Darsning maqsadi, dolzarbligi va tartibini tushuntiramiz.

Reja:

1. Elita tushunchasi. Elita nazariyalari.
2. Siyosiy elitaning vazifalari.
3. Siyosiy elitaning hozirgi zamon nazariyalari.

Tayanch so'zlar

Elita, elitaning qadriyat nazariysi, plyuralistik elitizm, so'l liberal nazariya, antepreneer tizimi, gildiya tizimi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Jamiyat rivojida elitarizmnинг ahamiyatini ko'rsating.
2. O'rta Osiyo xonliklari davrida elitaliga tafsif bering.
3. O'zbekistonda hozirgi davrda elitar shakllanish mexanizmlarini takomillashtirish uchun qanday choralarни zarur deb hisoblaysiz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridan foydalaning)?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие . – М., 2006.
9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.


Talabalarning diqqatni mavzuga qaratish va faollashtirish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Elitaning qanday turlari bor?
2. Kimlarni elitaga kiritasiz?
3. Siyosiy elitaning qanday turlari mavjud?
4. Jamiyat rivoji elitaga bog'liqmi?
5. Tarqatma materiallardagi tayanch so'zlar sizlarga ma'lummi? Tushuntirib bering.

2-bosqich. Shundan keyin talabalarni mavzuni chucherroq o'rghanish, yangi bilimlar olish uchun materialni reja va tayanch iboralarga diqqat qilgan holda insert texnikasidan foydalanib o'qishni taklif qilamiz.

Tarqatma material

"Elita" so'zi fr. bo'lib, "eng yaxshi", "saralangan", "tanlangan" ma'nolarini bildiradi. Uning oddiy tilda ikki ma'nosi bor (1-chizma).



1-chizma

Birinchisi, u yoki bu o'lchovga binoan eng yuqori xususiyatlarga ega bo'lishni aks ettiradi. Ikkinchisi, omma ustida va alohida sifatlarga egaligi uchun ularni boshqaruvchi, jamiyat uchun eng ko'p qadrli bo'lgan guruhnini ifodalaydi. Industriyagacha bo'lgan jamiyatda aristokratiya ("eng yaxshi" demakdir) maydonga chiqadi.

Siyosiy elita siyosiy boshqaruvchilik sifatlari va vazifalari eng yaqqol ifodalangan namoyondalarini tavsiflaydi. Jamiyatda boshqaruv va vositachilik vazifalarini ajratish uchun bunga intiladigan layoqatli guruh zarur (2-chizma).




2-chizma

Urug'chilik tuzumi yemirilayotgan davrdayoq jamiyatni oliy va quyi, aslzodalar va oddiy xalqqa bo'luvchi qarashlar paydo bo'ladi. Bu g'oyalarni Konfutsiy, Platon izchil asoslashgan. Ammo XX asr boshidagina siyosiy fanda Sorel


va Paretolarining xizmati tufayli tarqala boshlagan. Elitaning dastlabki zamonaviy klassik konsepsiysi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Ular Moska (1858-1941), Pareto (1848-1923) va Mixels (1876-1936) nomlari bilan bog'liqdir.

Buyuk italyan siyosatshunosi va sotsiologи Gaetano Moska har qanday jamiyat aholisi ijtimoiy ahvoli va roli bo'yicha, muqarrar ravishda ikki noteng guruhga bo'linishini isbotlashga urindi (boshqaruvchilar va boshqaruvchilar sinfi). Boshqaruvchilar guruhini Moska siyosiy sinf deb atadi. Bu sinf rivojlanishida 2 tamoyil mavjud (3-chizma).




3-chizma

Aristokratik tamoyil mavqening merosiy bo'lishiga intilishda namoyon bo'ladi, oxir-oqibatda ijtimoiy turg'unlikka, aynishga olib keladi (4-chizma).



4-chizma


Ikkinchi – demokratik tamoyil siyosiy sinfnинг yangilanib borishida, aynishning oldi olinishida ifodalanadi (5-chizma).



5-chizma

Bunday yangilanish uni jamiyatga rahbarlikka qobiliyatli qiladi. Jamiyat uchun aristokratik va demokratik tamoyillar o'rtaida muvozanat bo'lishi eng maqbulidir.

Pareto ham jamiyatni elita boshqargan va boshqarish zarur degan qoidadan kelib chiqib, elitani 2 guruhga ajratadi (6-chizma).




6-chizma

Bevosita yoki bilvosita boshqaruvda qatnashuvchi hukmron elita ichki jihatdan uyushgan bo‘ladi va hukmronligini o‘rnatish uchun kurashadi. Quyi qatlamlar uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan har xil to‘siqlar va o‘zining ijtimoiy maqomiga ko‘ra rahbarlikka kirish imkoniga ega bo‘lmagan, biroq elita uchun tavsifli sifatlarga ega bo‘lgan kontrelita hokimiyat uchun kurashadi.

Rahbarlikning “mayin” usullarini: munozara, yon berish, xushomad, ishontirish va shunga o‘xshashlarni qo‘llovchi rahbarlar – “To‘lqilar” tarixning nisbatan osoyishta davrlarida samarali faoliyat yuritadilar. Qat’iy harakatlar va zo‘ravonlik qo‘llanishini talab etadigan vaziyatlarda uning hukmronligi yemirilib boradi. Norozilikning o‘sishidan foydalaniib, asosan, kuchga tayanuvchi qattiqqo‘l va qat’iyatli hukmronlar – “sherlar” o‘z hukmronligini o‘matadilar.


Siyosiy elita nazariyasining rivojiga Robert Mixels katta hissa qo‘shdi. Uning fikricha, jamiyatda “oligarxik tamoyillarning temir qonuni” amal qiladi. Uning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy taraqqiyotday ajralmas bo‘lgan yirik tashkilotlarning rivojlanishi muqarrar ravishda jamiyat boshqaruvining oligarxiyalashuvi va elitaning shakllanishiga olib keladi.

Hozirgi elita nazariyalari turli-tumandir (8-chizma).



8-chizma

Tarixiy jihatdan birinchi guruh nazariyalari Makiavelli maktabi (Moska, Pareto, Mixels va boshq.) bo‘lib, ularni birlashtiruvchi umumiy g‘oyalari bor (9-chizma).



9-chizma

Elitaning Machiavellicha nazariyasi psixologik omillarning bo'rttirilishi, antidemokratizm hamda omma qobiliyati va faolligini yetarlicha baholamaslik, hozirgi voqelikni hisobga olmaslik, hokimiyat uchun kurashga surbetlarcha munosabati uchun tanqidga duchor bo'ldi.


Elitaning qadriyat nazariyalari bu kamchiliklarni bartaraf etishga urinadilar. Ular ham elitaning jamiyatning bosh tuzuvchi kuchi deb hisoblaydilar, demokratiyaga munosabat bo'yicha o'z holatlarini biroz yumshatadilar, elitar nazariyani davlatlarning real hayotiga moslashtirishga urinadilar.

Qadriyatlar nazariyasining umumiylashtirishini qoidalari hozirgi dunyoda keng tarqalgan demokratik elitizm konsepsiysi asosida yotadi. Demokratik elitizmning 2 asosiy g'oyasi tavsiflidir (10-chizma).




10-chizma

Qadriyatlar nazariyasining elitani saralashning qadriyatli – amaliy tavsifi to'g'risidagi yo'nalishlari elitar plyuralizm konsepsiysi tomonidan rivojlantirildi. Bu konsepsiolar asosida aniq qoidalar yotadi (11-chizma).



11-chizma

Plyuralistik elitizmga g'oyaviy antipod sifatida so'lliberal konsepsiylar maydonga chiqdi. Bu konsepsiya o'ziga xos farqli belgilarga ega (12-chizma).



12-chizma

So'lliberal nazariya, odatda, elitaning siyosiy rahbarlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqasini inkor etadilar, ularning ta'siri yirik mulkdorlar bilan aniqlanmaydi, ammo rivojlangan mamlakatlar rahbarlari xususiy mulkchilikka va plyuralistik demokratiyaga asoslangan ijtimoiy tuzumming barqarorligini kafolatlashga intiladilar.

Siyosiy elita jamiyatda izchilliikni tashkiliy qiluvchi, ichki tabaqalanish, nisbiy uyushgan, boshqaruvchilik vazifasini bajarishga tayyorlangan shaxslar guruhidir. U quyidagi omillar tufayli mavjud bo'ladi: 1) kishilarning psixologik, ijtimoiy, malakaviy potensiali; 2) mehnat taqsimoti qonuni; 3) boshqaruv mehnatinining


ahamiyati; 4) siyosiy rahbarlar ustidan to'la nazorat o'matishning imkonsizligi; 5) siyosatdan chetda turuvchi keng aholining siyosiy sustkashligi.

Bu omillar jamiyatning elitarligiga sabab bo'ladi. Elitalar turli-tumandir. U turli tarixiy davrlar va mamlakatlarda jiddiy farqlanadi.

Ta'sir manbalariga asoslanib, elita merosi, qadriyatli, hukmronlik va vazifaviy boshqaruvchilarga bo'linadi. Boshqaruvchi va muxolif, ochiq va yopiq elitalar ham farqlanadi.

Elitaning o'zi yuqori va o'rta elitaga bo'linadi. Yuqori elita butun davlat uchun ahamiyatli qarorlar qabul qilinishga bevosita ta'sir etadi. O'rta elitaga daromadi, kasbiy maqomi, ma'lumoti bo'yicha ajralib turuvchi aholi kiradi (5 %). Ushbu mezonlardan faqat bittasi yoki ikkitasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shaxslar marginal elitaga tegishli bo'ladi.


Demokratik jamiyatlardagi elitani 4 asosiy turga ajratish keng tarqalgan (13-chizma).



13-chizma

Jamiyat uchun eng maqbul, siyosiy muxoliflarni tushunishga imkon beruvchi hamda barcha uchun maqbul bo'lgan murosali qarolarni topuvchi, xalq bilan mustahkam aloqalarni yuqori darajadagi guruhiy kooperatsiyalash bilan qo'shib olib beruvchi barqaror demokratik elita hisoblanadi.

Elita shakllanishining ikki asosiy tizimi mavjud (14-chizma).




14-chizma

Sof holda ular kam uchraydi. Gildiya tizimi ma'muriy sotsializm davlatlarida ustunlik qilgan, antrenerlar tizimi demokratik mamlakatlar uchun ko'proq xosdir.

Gildiya tizimi uchun tavsifli belgilari:

1. Yopiqlik.
2. Ko'plab muassasaviy tozalagichlarning mavjudligi.
3. Nisbatan yopiq selektorat doirasi.
4. Tor doiradagi rahbarlar tomonidan tanlanishi, ochiq raqobatning yo'qligi.
5. Mavjud vazifani qayta ishlab chiqarish tomon borish.

Antrener tizimining belgilari ko'p jihatdan gildiya tizimiga qarama-qarshidir (15-chizma).



15-chizma

Bu tizim buyuk odamlarni ko'proq qadrlaydi. U yosh yetakchilar yangiliklar uchun ochiqdir. Bu tiziminig ayrim murakkabliklari bor. Bular tavakkalchilik ehtimolining kattaligi, siyosiy bashoratning sustligi, yetakchilarning tashqi taassurotlarga moyilligi.

Gildiya tizimi ham o'z ijobjiy va salbiy tomonlariga ega. Qarorlarning vazminligi, tavakkalchilik va ichki mojarolarning kamligi ijobjiy tomonlaridir. Uning salbiy tomonlari byurokratlashtirish, tashkiliy qotib qolganlik, eskilikka, o'zboshimchalikka moyilligidir. U quyidan bo'lgan tashabbuslar bo'yicha xatolarni tuzatishni qiyinlashtiradi. Raqobatlashuv mexanizmlari to'ldirilmasa, asta-sekin elitaning degeneratsiyasiga, imtiyozli toifaga aylanib, jamiyatdan ajralishiga olib keladi.

Bu mavzu o'qitilgan ijtimoiy fanlarda maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, siyosiy elita to'g'risida talabalar umumiylashtirish uchun qiziqarlidir. Talabalarning mavzuni o'zlashtirib olganliklarini aniqlash uchun testlar vositasida mavzuning eng muhim jihatlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini bilib olamiz. Quyidagi testlarni berish maqsadga muvofiqdir (5 daqiqa).

Elitaning zamonaviy klassik konsepsiyasiga kimlar asos solgan?

- a) Platon, Konfutsiy, Pifagor;
- b) Makiavelli, Monteske, Kant;
- v) Moska, Pareto, Mixels;
- g) Gegel, Marks, Feyerbax;
- d) Veber, Kant, Freyd.

Moska fikricha, siyosiy sinif rivojida 2 tamoyil:

- a) aristokratik, demokratik;
- b) harbiy kuch, boylik;
- v) an'ana, din;
- g) bilim, mehnat;
- d) tashkilot, dastur.

Elita nazariyalarining uch guruhi:

- a) burjua, sotsialistik, shovinistik;
- b) qadriyat, so'lliberal, Makiavellichcha;
- v) raizm, ekstremistik, diniy;
- g) marksistik, modernistik, realistik;
- d) sharqona, g'arbona, amerikacha.

Elita shakllanishining 2 tizimi:

- a) gildiya, anteprener;
- b) qobiliyat, mehnat;
- v) demokratik, aristokratik;
- g) totalitar, avtoritar;
- d) milliy, umuminsoniy.

Past darajada vakolatlilik, yuqori guruhiy umumlashuv elitaning qaysi turiga xos?

- a) demokratik;
- b) plyuralistik;
- v) hukmron;
- g) tarqoq;
- d) to'g'ri javob yo'q.

Tarqatma materiallar talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini nazorat qilish uchun bir nechta testlarni taklif qilamiz (kodoskop orqali namoyish qilamiz). Test savollari hal qilingach, har bir talaba tarqatma material hoshiyasiga V (bilaman), – (bilibishga zid), + (yangi bilim oldim), ? (tushunarsiz) belgilarni qo'yib chiqadi. Shundan so'ng oqimni 2-3 jamoaga bo'lib, tuzgan jadvallarni taqqoslash, yagona jadval tuzish taklif qilinadi. Ayrim talabalar uchun tushunarli bo'limgan fikrlar jamoada hal qilinadi. Yagona jadval tayyor bo'lgach, yetakchilar jadvalni oqimga taqdim qilib, jamoaning tushungan fikrlarini namoyish qiladilar, savollarga boshqalar va o'qituvchi yordamida qoniqarli javoblar berilgach, talabalar qo'shimcha bilimni xohlagan savollar orqali oladi. Ulardan ayrimlari ajratib olinishi mumkin. Ularni o'qituvchi tushuntirib berishi kerak.

Biz tajribada quyidagi savollarni javob berish uchun ajratib olishimizga to'g'ri keldi:

1. Turli tarixiy davrlarda elita shakllanishida qanday farqlar bor (o'rta asrlar, yangi davr, hozirgi davr)?
2. Kontrelita har qanday davlatda bo'lishi shartni?
3. Mustaqillik davrida O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tish sharoitida siyosiy elita shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Elitaning shakllanishida hal qiluvchi rolni demokratik saylov o'ynamaydimi?

Bu kabi savollarga javob berilgach, ma'ruzaning yakunlovchi bosqichiga o'tamiz.

3-bosqich. O'qituvchi talabalar bilishni xohlagan savollariga javob bergach, mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini tekshirishi lozim. Buning uchun "Aqliy hujum", "Qorbo'ron", "Kim tezroq" usullarini ham qo'llash mumkin. Biz tajribada oqimni 2 jamoaga bo'lib, vaqtini tejash maqsadida har bir jamoaga savollar to'plamini taqdim qildik va 7 daqqa davomida vaqt berdik.

1-jamoaga savollar:

1. Siyosiy elitaga kirishga kimlar intiladi?
2. Moska ta'kidlagan aristokratik tamoyil hozirgi davrda amal qilinmoqdami?
3. Kontr-elitadan elitaga va aksincha, o'tib turishlar bo'ladimi? Ularni qanday baholaysiz?

4. Elitaning Makiavellicha nazariyasi kamchiliklari.

5. Qadriyatlar nazariyasi asosida yotuvchi qoidalar.
6. So'liberal nazariya nimani inkor etadi?

2-jamoaga savollar:

1. Elitaning mavjudlik omillari.
2. Marginal elitaga nimalar kiradi?
3. Gildiya tizimining tavsifli belgilari.
4. Antreprener tizimining tavsifli belgilari.
5. Demokratik jamiyatlardagi elitaning 4 asosiy turi.
6. Elitaning kuchi nimaga bog'liq?

Jamoa vakili yozilgan savollarga javob beradi, lozim bo'lsa, jamoaning boshqa a'zolari to'ldirishi mumkin.

O'qituvchi javoblarni eshitgach, mavzuga oid umumiy xulosalar chiqaradi. Talabalarning darsda egallagan, yanada chuqurlashtirgan bilimlarini ta'kidlaydi, mavzuni qay darajada talabalar tomonidan o'zlashtirib olinganiga, jamoalarning faoliyatiga baho beradi va darsni yakunlaydi.

2.6. Siyosiy yetakchi

1-bosqich. Mavzuning rejasini, tayanch iboralarini, mustaqil ish uchun topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxatini taqdim qilamiz.

Reja:

1. Siyosiy yetakchi tushunchasi va mohiyati.

2. Siyosiy yetakchilik ornologiyasi.
3. Yetakchilik fenomeni nazariyalari.
4. Siyosiy yetakchining vazifalari va unga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar

Siyosiy yetakchilik vazifalari, yetakchilik tarkibi, yetakchilik darajalari, yetakchilik vazifalari, xislatlar nazariyasi, vaziyatlar nazariyasi, konstituentlar nazariyasi, yetakchilikning muassasaviylashuvi, yetakchilikning kasbiylashuvi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Totalitar tuzum sharoitidagi biror yetakchining siyosiy qiyofasini tahlil qiling.
2. Keskin inqilobiy davrdagi yetakchining xususiyatlarini tushuntiring.
3. Hozirgi davrda siz yetakchi bo'lganingizda qanday faoliyat ko'rsatar edingiz? Esse yozing.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi, 2013-yil 20-yanvar.
6. President Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik – T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

1.1. Mavzuga oid qanday fikr ayta olasiz, deb murojaat qilamiz va "Aqliy hujum" texnologiyasini qo'llaymiz. Tarixda o'tgan vazifali yetakchilar, ularning muhim xususiyatlari va xizmatlari haqidagi talabalar bilimlarini namoyish qiladilar.

"Kelgusi faoliyatizingizda yetakchi haqidagi bilimlar sizga kerak bo'ladimi, kim nima deb o'laydi?" savoli bo'yicha ham talabalarning fikrini bilib olamiz.

1.2. Shundan keyin bir qancha muammoli savollar berish maqsadga muvofiq. Bu savollar bo'yicha talabalarning bilimi yetarli emasligi, ular uchun yangi bilim olish zarurligi ma'lum bo'lib, talabalarning diqqatini jamlaydi.

Quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Siyosiy yetakchining kuchi nimaga bog‘liq?
2. Siyosiy yetakchining qanday darajalari bor, ular har qanday yetakchi uchun zarurmi?
3. Xislatlар nazariyasining qanday kamchiligi bor deb o‘ylaysiz? Vaziyatlar va konstituentlar nazariyasini-chi?
4. Jahon tarixida chuqur iz qoldirgan siyosatchilar hozirda paydo bo‘lmayotgani nimalarda deb o‘ylaysiz?
5. Hozirgi davrda yetakchi oldiga qanday talablar qo‘yiladi?

Bu savollarga talabalarning javoblarini doskaga yozamiz yoki ekranda namoyish qilamiz.

2. Asosiy bosqich. Mashg‘ulot boshlanadi. Eng muhim tushunchalar, chizmalar ekranda namoyish qilib boriladi. Matnda mavjud bo‘limgan, talabalar istagi asosida aytilgan fikrlarning muhim xulosalarini doskaga yozib borish mumkin.


Siyosiy yetakchi – atrofida ko‘pchilikni jipslashtirish layoqati, siyosiy jarayon qatnashchilari o‘rtasida obro’si bo‘lgan kishidir. Ideal darajada ifodalaganda, yetakchi – siyosiy intilishlarning tashkilotchisi, aqli va irodasi u yoki bu partiya va harakatning boshqaruvchisi.

Yetakchisiz siyosiy harakat yo‘q, faqat tartibsiz harakat bor, xolos. Usiz omma emas, olomon bor. Shuning uchun yetakchini topish va joyiga qo‘yish siyosiy hayotdagi eng muhim va qiyin masaladir.

Yetakchilikni anglashga intilish qadimgi davrdayoq bo‘lgan. Gerodot va Plutarx ularni tarix ijodkorlari deb atashgan. Sharqda ham ana shunday qarashlar hukmron bo‘lgan. Jamiatning, xalqning holati hukmdorga bog‘liq ekanligini ta’kidlashgan. A.Navoiy hukmdorni dengizga, xalqni esa undan suv oladigan daryoga qiyos qiladi. Dengizning suvi qanday bo‘lsa, daryoning suvi ham shunday bo‘ladi; sho‘r bo‘lsa – sho‘r, achchiq bo‘lsa – achchiq, deydi u.


N.Makiavelli hukmronlikni va jamoat tartibini saqlash uchun yetakchiga ayyorlik va kuch kerakligini ta’kidlagan. F.Nitshe insoniyat mavjudligining maqsadi komil inson (sverxchelovek)ning shakllanishidir, deb hisoblagan. Marksizmda yetakchi sinf irodasining eng layoqatli ifodachisi sifatida maydonga chiqadi. Ammo yetakchilik sinfdan ko‘ra kengroq obyektiv asoslarga ega.

Hozirgi fanda yetakchilik talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud (1-chizma).



1-chizma

Siyosiy yetakchilikning bu ta'sirflaridan yetakchining alohida turdag'i ta'sir sifatida tavsiflash ma'qul. Chunki yetakchilikni hukmdorlik sifatida talqindan farq qilib, bu yondashuv obro'-e'tibor va e'tiqodga asoslanadigan rahbarlikni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, yetakchilik hukmdorlik darajasini egallagan bir yoki bir necha shaxslarning butun jamiyatga, tashkilotga yoki guruhga doimiy ustuvor va qonuniy ta'sirini ifodalarydi. Yetakchilik tuzilmasida, asosan, uch tarkib ajratib ko'rsatiladi (2-chizma).



2-chizma

Bu tarkibiy qismlarning barchasi yetakchilik samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi.

Siyosiy yetakchilik texnologiyasi xilma-xil. M.Veber yetakchini tan olish motividan kelib chiqib, uch asosiy vazifani ajratadi (3-chizma).

Yetakchining Vebercha tipologiya bo'yicha 3 tipi


An'anaviy - "Bobolar shunday qilgan, biz ham shunday qilamiz"

Legal - mansab va kreslo yetakchiligi

Xarizmatik - tarixning tub burilishi davrida ta'sirchan ellar egasi

3-chizma

"Uch" asosiy sotsial darajadagi faoliyatning hajmi va tavsifiga ko'ra turlariga ajratish ham keng tarqalgan (4-chizma).




4-chizma

Shaxslar kichik guruh darajasining yetakchisi (Prezident atrofidagilar, parlament rahbariyati guruhlari) guruh faoliyatini tashkil qiladigan, yo'naltiradigan eng obro'li shaxsdir. Undan tez qaror qabul qilish layoqati, mas'uliyatni o'ziga olish, guruh qatnashchilari manfaatlарini qondirishga erishish talab qilinadi. Bu darajada yetakchining rahbarlik uslubi, shaxsiy sifatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Katta ijtimoiy guruhning (qatlam, sind, partiya) siyosiy harakatida yetakchilikda yetakchining shaxsiy fazilatlari emas, aholining bu qismi manfaatlарini ifodalash layoqati birinchi o'ringa chiqadi. Strategiyani, maqsadga erishish yo'llarini ishlab chiqish, bu manfaatlarni qondirish yetakchining bosh xususiyatidir. Yetakchi figurasi guruhning asosiy kayfiyati va umidlarining ramziga aylanadi. Bunday yetakchida faqat integrativ emas, pragmativ vazifa ham bo'lishi kerak.

Hokimlik munosabatlari tizimida yetakchilikda yetakchi umuman jamiyat oldida turgan vazifalarni hal qilishni qamrab olgan ijtimoiy institut ko'rinishida maydonga chiqadi. Bunda yetakchilik integrativ, kordinatsion, pragmatik vazifalarni o'z ichiga oladi.

Yetakchilik faoliyatini tushuntiruvchi ko'plab nazariyalar mavjud. Biz ularni qisqacha qarab chiqamiz (5-chizma).




5-chizma

1. Xislatlar nazariyasi qahramonlarga xos bo'lgan sifatlarni aniqlash asosida yaratiladi. Siyosiy yetakchiga xos bo'lgan xislatlar orasida o'tkir aql, kuchli iroda va maqsadga intiluvchanlik, kuch-quvvat, tashkilotchilik qobiliyati, vakolatga egalik va o'ziga mas'uliyatni olishga tayyorlik kabilalar ko'rsatiladi. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayrim sohalarda yuqori intellektual va axloqiy sifatlar yetakchi bo'lishga to'siq ham bo'lar ekan. Ba'zan kishilarning ajoyib qobiliyatları butun hayoti davomida talab etilmasdan qolaverishi mumkin.

2. Vaziyatlar nazariyasi yetakchilikning ma'lum bir ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi g'oyasini asoslaydi. Bunga ko'ra, aynan vujudga kelgan aniq shart-sharoitlar yetakchini saralaydi va xulq-atvorini belgilaydi. Vaziyatlar nazariyasi shaxs individual sifatlarining muhim rolini inkor etmaydi, biroq ularni mutlaqlashtirmaydi ham. Bu tamoyil yetakchining faolligini, uning vaziyatni o'z vaqtida to'g'ri baholash va o'zgartirish, o'tkir muammolar yechimini topa olish qobiliyatini yetarlicha aks ettirmaydi.


3. Konstituentlar nazariyasi yetakchilik fonomenini izdoshlar va konstituentlar orqali tushuntiradi. "Aynan izdosh,- deb yozadi F.Stenford,- yetakchini va vaziyatni o'zlashtiradi, oxir-oqibatda yetakchilikni qabul qiladi yoki rad etadi". Ancha afzaliliklarga ega bu nazariya yetakchining yangiliklarga intiluvchanligi, mustaqilligi va faolligini yetarli hisobga olmaydi.

4. Psixologik tamoyillar va interfaol tahlil yetarlicha murakkab va qat'iy talqinga bo'y sunmaydigan yetakchilik tabiatining subyektiv mexanizmlarini yoritadi. Freud fikricha, yetakchilikning asosida tushkunlik holatidagi libido, asosan, seksual xarakterdagi ongsiz qiziqish yotadi. Sublimatsiya jarayonida u ijodkorlikka, yetakchilikka intiladi. Fromm, Aderno avtoritarizmga moyil va hokimiyatga intiluvchi shaxs turini aniqladilar. Boshqalar ustidan cheksiz hokimiyatga egalik, ularni to'liq bo'y sundirish bunday odamga alohida rohat bag'ishlaydi. Interfaol tahlil yetakchini kompleks tahlil etadi. U yetakchining 4 jihatini hisobga oladi (6-chizma).



6-chizma

Yetakchilar faoliyatining asosiy bosqichlarini tavsiflashda ularning 3 asosiy vazifasini ajratib ko'rsatish mumkin (7-chizma).




7-chizma

Yetakchi vazifasining yanada aniqroq mazmuniy tavsifiga quyidagi larini ko'rsatish mumkin: a) jamiatning integratsiyasi, ommaning birlashuv; b) eng maqbul siyosiy qarorlarni topish va qabul qilish; v) tartib va qonuniylikni saqlash; g) hokimiyat va ommaning aloqasini mustahkamlash; d) yangilanishni boshlab berish, ommani safarbar etish; e) legitimlashuv.

Yetakchilarning ijtimoiy ahamiyatli vazifalari va butun ijtimoiy qiyofasi, avvalo, siyosiy tuzumning tavsifiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, ular masalan, **teokratik** davlatda, totalitar va demokratik jamiatlarda o'zaro tubdan farq qiladi.

Hozirgi demokratik davatlarda yetakchilik haqidagi an'anaviy, asosan, **xarizmatik** tasavvurlarni ko'p darajada o'zgartiruvchi 2 tamoyil yaqqol namoyon bo'ladi (8-chizma).




8-chizma

Yetakchilikning muassasaviylashuvi, avvalo, siyosiy rahbarlarni jamlash, tayyorlash, hokimiyatga intilish va faoliyatlarining o'zi ham ma'lum muassasalar – me'yorlar va tashkilotlar doirasida amalga oshirilishida namoyon bo'limoqda. Yetakchilarning vazifalari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, axborot hokimiyatlari, konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari bilan cheklangan. Bundan tashqari yetakchilar o'z partiyalari tomonidan tanlanadi. Demokratik nazoratning rivojlanishi va har xil inqilobiy vaziyatlarning yo'qligi tarixda chuqur iz qoldiruvchi siyosatchilarni paydo qilmayapti.

Bunday sharoitda siyosatchi amalda aholi talablarini aniq ifodalashni ta'minlash, jamoa qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan parlament va hukumat organlari, OAV, jamoat tashkilotlari va alohida kishilar o'tasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish, mojarolarni hal etish va kelishuv yo'llarini topishni taqozo etuvchi, ijtimoiy aloqalar sohasidagi mutaxassisiga aylanib bormoqda.

Bu vazifalarni bajarish ham yetakchi oldiga ma'lum talablar qo'yadi (9-chizma).



9-chizma

Bir qator mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, AQSH) siyosiy faoliyatning kasbiylashuvini hisobga olish bo'lg'usi siyosiy yetakchilarni tanlashda, ularni tayyorlashda namoyon bo'ladi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich. Talabalarda ma'ruzadan keyin tug'ilgan savollarga javoblarini tushuntirgach, mavzuning mazmunimi qamrab oluvchi qisqa javob talab qiladigan savollar bilan murojaat qilish mumkin. Bu bilan talabalar mavzuni qay darajada o'zlashtirib olganliklari ma'lum bo'ladi. Yoki ekranda bir nechta qisqa so'zlardan iborat testlar namoyish qilib ham bu maqsadga erishish mumkin. Masalan, mazkur mavzu bo'yicha quyidagicha so'rov qisqa vaqtida amalga oshiriladi:

1. Yetakchi – tarix ijodkori degan fikrga A.Navoij qarashlari mos keladimi?
2. Veberga ko'ra, siyosiy yetakchining 3 asosiy vazifalari?

3. Yetakchi haqida qanday nazariyalarni bilasiz?
4. Yetakchining ijtimoiy ahamiyatli turlari qanday omilga bog'liq?
5. Yetakchilikning muassasaviylashuvu ijobiy hodisami?

Qisqa so'rovdan keyin talabalarga har xil o'zi xohlagan mavzuda 10 daqiqa davomida esse yozish taklif qilinadi. Siyosiy yetakchining portretini tasvirlayotganda ma'ruzaning asosiy g'oyalaridan kelib chiqish, ularni o'z misollari yordamida isbotlash zarurligi uqtiriladi. O'qituvchi yetakchi tanlashga yordam berish maqsadida maslahat tavsifidagi takliflarini aytishi mumkin. Masalan, an'anaviy jamiyatlarda, totalitar jamiyatda, buyuk o'zgarishlar davrida turli xildagi salbiy yoki ijobiy-siyosiy yetakchilar bo'lishi mumkin:

1. Amir Temurning siyosiy yetakchi sifatidagi xususiyatlari.
2. L.I.Brejnev – yetakchi.
3. Sh.Rashidov – yetakchi.
4. I.Karimov – davrimizning iste'dodli siyosiy yetakchisi.
5. Stalin–siyosiy yetakchi.

Taxminan 10 daqiqadan keyin xohlovchilardan 3-4 esseni o'qib berish iltimos qilinadi va jamoa tomonidan "Aqliy hujum" vositasida baholanadi. Avval essening ijobiy tomonlari, to'g'ri ta'kidlangan fikrlari aytilishi shart. So'ng esa to'ldirilishi mumkin.

O'qituvchi darsga xulosa yasab, dars boshlanishida berilgan ayrim savol va talabalarning javoblarini, (ekranda namoyish etib) va qanaqa yangi bilim olganlarini, ularning kelajakda asqotishini ta'kidlaydi. Xulosada talabalarning diqqatlarini asosiy g'oyalarga qaratib, ularning bilimlarini baholaydi.

2.7. Ko'ppartiyaviylik

Mashg'ulotni ataylab xato fikrlarga yo'l qo'ygan holda o'qiyimiz. Bu usul talabalarning diqqatini jamlashga, o'qilayotgan darsdagi axborotni yaxshi tushunishga, tahlil qilishga, oxir-oqibatda yaxshi o'zlashtirib olishga imkon beradi. Biroq dars o'tilgunga qadar bosqichlar boshqa mashg'ulotlardagi kabi bo'ladi.

1-tayyorlash bosqichi. Talabalarga darsning mavzusi, mashg'ulot maqsadi va vazifalarini tushuntiramiz. Maqsad – ko'ppartiyaviylikning mohiyati va jamiyatdag'i rolini o'rganish. Asosiy vazifa – talabalarning mavzuga oid bilimini chuqurlashtirish.

Avvalo, mashg'ulotning rejasi, tayanch so'zlarni, mustaqil ish uchun topshiriqlarni e'lon qilamiz.

Reja:

1. Siyosiy partiyalar: tushunchasi, mohiyati, vazifalari.
2. Siyosiy partiyalarni turkumlashtirish.
3. Partiyaviy tizimlar.

Tayanch so'zlar

Siyosiy partiya, partiyalarni turkumlashtirish, ikki partiyaviylik, ko'ppartiyaviylik, hukmron partiya, muxolifat, partiyaning vazifałari, parlamentar partiya.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

Siyosiy partiyalarning tabiatи va mohiyati haqida turli qarashlarni tahlil qiling.

1. Partiyaning vazifalari va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Partiyaviy tizimlarni tavsiflang.
3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi xususiyatlari haqida fikringizni aytib bering.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2014 yil 6 dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovaing O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasи birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие . – М., 2006.
9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

2-faollashtirish bosqichi. Bu mavzu talabalarda ancha ma'lumotlar va fikrlar bo'lganligi uchun ularga ko'p savollar berish mumkin. "Aqliy hujum" yoki "Kim tezroq?" yordamida ularning bilmilarini aniqlaymiz. "Partiyalar haqida nimalarni bilasiz?" savoli bilan "Aqliy hujum" uyushtirish mumkin. Yoki "Kim tezroq?" usulini qo'llab, mavzudagi muhim g'oyalarni aytishga undash mumkin. Masalan:

1. "Partiya" so'zining ma'nosi nima?
2. Jamiyat tarixida dastlabki partiyalar qachon shakllangan?
3. Hozirgi zamон partiyalari qachon shakllana boshlagan?
4. Siyosiy partiyaning qanday belgilari bor?
5. Kim partiyaning mavjudlik sababini ijtimoiy-sinfiy bo'linishda ko'radi?
6. Har qanday partiya hokimiyat uchun kurashdimi?
7. Partiyaning qanday vazifalari bor?

Talabalarning diqqatini yangi g'oyalalar, axborotlar olishga qaratish uchun muammoli va ochiq savollarni o'rta ga tashlashimiz mumkin:

1. Partiyalarning mavjudligiga sabab nima?
2. Partiyalarning asosiy vazifalarini aytинг.
3. Partiyalarni qanday asoslarda turkumlashadi?

4. Mamlakatda partiyalar nechta bo'lgani ma'qul?

5. Eng yaxshi partiyaviy tizim qaysi?

Talabalarning muammoli savollarga bergan javoblarini ma'ruzadan keyingi bilimi bilan taqqoslash maqsadida doskaga qisqacha, bir yoki bir necha so'z bilan yozib qo'yish mumkin.

3-bosqich. Talabalar ataylab yo'l qo'yilgan xatoni topishlari lozimligi uqtirilib, mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotni o'tish davomida chizma, rasm, portret va ekrandan foydalanish lozim. Vaqtı-vaqtı bilan tarixga oid ma'lumotlarni talabalardan so'rash, shu orqali biroz dam oldirish, yangi axborotni qabul qilishga tayyorlash mumkin. "Aqliy hujum" yoki munozara vositasida talabalarni o'zaró munozaraga kiritsa ham bo'ladi. Odatda, bunday fikr almashuvlar darsda aytilgan fikr to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida bo'ladi. Chunki ularga xato fikrnı topish vazifa qilib berilgan.

Jamiyat tarixidagi turli siyosiy tizimlarda kishilar o'zlarining alohida manfaatlarini himoya qilish maqsadida uyushganlar va o'z irodalarini jamiyatga o'tkazishga uringanlar. Bu ma'noda siyosiy partiyalar Qadimgi Gretsiya va Rimda ham bo'lgan. Ammo hozirgi zamon partiyalari XVII asr oxiri XVIII asr boshlaridan, millionlab kishilar liberal demokratiya ramkasida ovoz berish huquqiga ega bo'lganlarida hokimiyyat uchun kurashuvchi ixtisoslashgan tashkilot sifatida shakllana boshlagan. XX asrdagina siyosiy institut sifatida yuridik jihatidan tan olingan. Hozirga qadar siyosiy partiyalarning tabiatini va mohiyati haqida adabiyotda munozara davom etmoqda. Gobbs partyaning mohiyatini inson uchun muhim bo'lgan ruhiyatning ziddiyatida ko'radi, Makiavelli uni siyosatning tabiatini bilan bog'lab tushuntiradi. Marks kishilarning ijtimoiy-sinfiy bo'linishida ko'radi. Bundan ko'rindaniki, siyosiy partyaning mohiyatini qat'iy bir sabab bilan izohlab bo'lmaydi, u ko'p tavsiqga ega.

Siyosiy partiya nima? Uni ta'riflashda muhim bo'lgan 4 belgidan kelib chiqish kerak (1-chizma).


Siyosiy partiyani ta'riflashda muhim bo'lgan 4 belgi			
Barqaror iyerarkik tashkilot	Bir xil siyosiy e'tiqodga ega kishilar guruhi	Yagona maqsad uchun kurashuvchilar guruhi	Hokimiyyatni egallash yoki unda ishtirok etishga intiluvchilar

1-chizma

Shularga asoslanib, siyosiy partiyani ma'lum kishilar guruhi manfaatlarini siyosiy hokimiyyat yordamida himoya qilish maqsadida birlashgan kishilarning ixtiyoriy uyushmasidir, deb ta'riflash mumkin. Bundan ko'rindaniki, partyaning asosiy maqsadi hokimiyyatni egallash yoki unga ta'sir qilish bilan bog'liq. A'zolarning umumiy siyosiy g'oyalarini asosida partiya dasturi ishlab chiqilib, yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi vazifalari belgilab olinadi.

Siyosiy partiyalar o'zining ichki tuzilmasiga ega (2-chizma).

**Siyosiy partiyaning ichki tuzilmasidagi
4 unsur**



2-chizma

Oliy yetakchilar va shtab ozchilik bo'lib, partiyaning rahbar guruhidir. Ular partiyaning asosiy qarorlarini qabul qiladi, siyosiy vogelik haqida keng axborotga ega bo'ladi. Partiya a'zolari bilan ichki aloqani nazorat qilib, siyosiy faoliyat bilan uzlusiz shug'ullanadi. Natijada mutaxassis siyosatchilar guruhi shakllanadi. Rahbar guruhda ham turli qanoitlar, yo'naliishlar o'zaro kurashishi mumkin, ammo bu imkon boricha sir saqlanadi.


Partiya, ayniqsa, yirik partiyalar tashkilot ishiga o'z faoliyatini to'la bag'ishlagan, shundan moddiy va ma'naviy manfaatdor barqaror byurokratik apparatga ega bo'ladi. Byurokratik apparat rahbariyat va a'zolar o'rtaida bog'lovchi ko'prikdir.

Rahbariyatga, rahbar shtabga va byurokratik apparatga kirmagan holda tashkilot ishida izchil ishtirok etuvchilar partiyaning faol a'zolaridir. Ular turli maqsadlarga asoslanib faollik ko'rsatadilar. Partiya safiga kiruvchi, ammo uning faoliyatida har vaqtida qatnashuvchilar passiv a'zolardir.

Bu partiyaviy guruhlarga rasman a'zo bo'imasalar-da, qisman qo'llaydigan tarafdarlarini ham qo'shish lozim. Ayrim holatlarda (masalan, saylovlarda) ularning ta'siri hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Nihoyat, partiya faoliyatini ma'naviy ta'minlovchi kishilar yoki tashkilotlar ham uning tarkibida ma'lum o'rin tutadi (Meenatlar). Meenatlar turli-tuman (boy shaxs, tashkilot), ular partiya faoliyatiga katta ta'sir o'tkazishlari mumkin. Ba'zan ular bir necha partiyani moddiy qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Partiya oddiy a'zolarining hech qanday roli yo'q deb xulosa chiqarmaslik kerak. Rahbariyat oddiy a'zolarning qarorlariga qulqoq solishga majbur. Agar rahbar guruh doimo oddiy a'zolar bilan maslahatlashmasdan qaror qabul qilsa, legitimligini yo'qotadi, natijada partiya a'zoligidan ommaviy chiqishlar, partiya ichida kurash va bo'linish sodir bo'lishi mumkin. Siyosiy partiyalarning shakllanishida umumiylar tarzda 3 asosiy yo'l bor (3-chizma).


Siyosiy partiylar shakllanishining 3 yo‘nalishi



3-chizma

“Yuqoridan” shakllanish yo‘li parlament guruhlari, siyosiy elita, partiya byurokratlari faoliyati asosida amalga oshishi mumkin. “Quyidan” shakllanish ijtimoiy harakatlar yoki aniq mafkura, yetakchi tarafdarlarining birlashuvlari asosida bo‘lishi mumkin. Partiya shakllanishining aralash usuli elitar guruhlar va oddiy fuqarolarning birgalikdagi harakatlari asosida ro‘yobga chiqadi.

Jamiyat hayotida partiyalarning ahamiyati katta. Uyushmagan ko‘pchilik ko‘p narsaga erisha olmaydi. Uyushgan ko‘pchilik esa muvaffaqiyat uchun katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Xalq va davlatning vertikal aloqalarining bo‘g‘ini sifatida partiya jamiyatda hokimiyat maqomlarini taqsimlashning eng muhim mexanizmlaridan biridir. U jamiyat siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaydi (4- chizma).



4-chizma

Partiya, avvalo, siyosiy hokimiyatni egallashga intiladi. Partiya ichki va tashqi siyosiy masalalar bo'yicha o'z dasturini ilgari suradi. Ko'pincha partiyalar turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida hokimiyatning tinch qayta taqsimlanishini ta'minlaydilar. Shu ma'noda ular fuqarolar manfaatlarini yaxlit holda mujassamlashtiruvchi mexanizm bo'lib chiqadilar. Partiyalar xalqning davlat tuzilmalari bilan aloqasini, fuqarolar siyosiy ishtirokchiligining muassasaviylashuvini ta'minlaydi, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligining tabiiy shakllarini o'z yetakchilari tomonidan nazoratga olingen shakllar bilan almashtiradi.

Partiyaning eng muhim vazifalaridan biri siyosiy tizimning barcha bo'g'lnlari uchun siyosiy yetakchilar va elitani tanlash hamda to'plash hisoblanadi. Ular tomonidan ilgari surilgan professional siyosatchilardan tashqari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda partiya ekspertlari, tahlilchilari, mutaxassislari ham faol qatnashadilar.


Hokimiyatning turli tarmoqlari, davlat boshqaruvining mahalliy va markaziy organlari, turli siyosiy institutlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni chuqurlashtirish partiya faoliyatining ajralmas vazifasidir.

Fuqarolarning siyosiy ijtimoiylashuvi, ularning hokimiyatga nisbatan ishtirokchilik xususiyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish ham partiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Partiyalar saylovoldi va saylov kompaniyalarida o'z vazifalarini eng yorqin darajada amalga oshiradilar.

Saylov arafasida partiyalar juda katta va'dalar beradilar, shuning uchun partiya dasturidan boshqa hujjatga ishonib bo'lmaydi. Saylov arafasida partiyalarda va'dalar musobaqasi psixologik omilga tayanish natijasidir.

Siyosiy partiyalar aniq mamlakatlarning turli-tuman tarixiy va ijtimoiymadaniy sharoitlarida faoliyat yuritadilar. Partiyalarning turli-tumanligi son jihatidan ko'pligi sababi 5-chizmada ko'rsatilgan.



5-chizma

Partiyalarning soni qancha ko'p bo'lsa, siyosiy yuksalish ham shuncha yuqori bo'ladi, demokratiya izchil amalga oshadi. Shuningdek, partiyaning mavqeyi uning a'zolari soni bilan belgilanadi.

Partiyalarni turkumlash turli asoslarda bo'lishi mumkin. Masalan, Dyuverje (Fransiya) partiya a'zoligining sharoitiga ko'ra kadrlar, ommaviy va markazlashgan partiyalar vazifalarini ajratib ko'rsatadi. Amerikalik olimi S.Koen uyushganlik va


vazifalariga ko'ra avangard, saylovga mo'ljallangan, parlamentar, klub-partiyalarni farqlaydi. G'oyaviy asoslariga ko'ra doktrinal, pragmatik va patronal (homiylik) partiyalarni farqlash mumkin. Ijtimoiy, etnik, demografik va madaniy asoslarga ko'ra partiyalarni turkumlashtirish ham mavjud. Partiyalar xarizmatik (yetakchiga so'zsiz e'tiqodga asoslangan) yoki ratsional (ustav normalariga asoslangan) bo'lishi mumkin. Maqomiga ko'ra siyosiy partiyalarni turlarga bo'lishi siyosatshunoslikda eng ko'p tarqalgan (6-chizma).



6-chizma


Ko'rindiki, partiyalar tipologiyasi turli partiyalarning tartibga solishga xizmat qiladigan mavhum shakldir. Aniq siyosiy vogelikda partiya bir vaqtida ko'p vazifalarga xos belgilarni o'zida mujassamlashtiradi (ommaviy, xarizmatik, mafkuraviy va boshq.).

Mavjud siyosiy tizimlar siyosiy partiyalarning soni va ularning bajargan vazifalariga ko'ra turli partiyaviy tizimlar rivojlanishi mumkin (7-chizma).



7-chizma


Bir partiyaviy tizimda oliv siyosiy hokimiyatni partiya rahbariyati amalga oshiradi. Bunday holda yangi partiyalar tuzish taqiqlanadi, mavjudlari qonundan tashqari deb e'lon qilinadi. U qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (8-chizma).



8-chizma

Partiyadan tashqaridagi har qanday faoliyat noqonuniy deb e'lon qilinadi va bunday harakat yashirin ish olib borishga mahkumdir. Asosiy siyosiy qarorlar partiya tomonidan qabul qilinadi. Davlat apparati esa uni amaliyotga joriy qiladi, xolos.


Ikki partiyaviy siyosiy tizimda esa oliy hokimiyat boshqaruvida ikki partiya vaqtı-vaqtı bilan almashib turadi. Bu tizimda partiyalar ko'p bo'lishi mumkin, biroq hokimiyatni qonuniy yo'l bilan olish imkoniyatiga faqat ikki partiyagini ega bo'ladi (9-chizma).



9-chizma

Yengib chiqqan partiya boshqaruvchi (hukmron), boshqasi muxolifat partiyaga aylanadi.


Qonuniy hokimiyat uchun kurashda imkoniyatlari taxminan bir xil bo'lgan bir qancha partiyalar mavjud bo'lganda ko'ppartiyaviy tizim vujudga keladi (10- chizma).



10-chizma

Partiyalarning soni ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Muhimi, hokimiyatga saylovda ishtirok uchun kurashda teng huquq, shuningdek, davlat va partiya turlari ajratilishi lozim. Ko'ppartiyaviylik umuman jamiyat uchun foydalidir, chunki partiyaning hokimiyatga kelishining madaniy mexanizmlariga ega bo'ladi, jamiyat rivojlanishining muqobil variantlari olg'a suriladi.

Hozirgi G'arb jamiyati ijro hokimiyatni masalasini hal qilishda ko'ppartiyaviylik sharoitida partiyalar o'zaro munosabatlarining aniq mexanizmlarini ishlab chiqdi (11-chizma).




11-chizma

G'alaba qozongan hech bir partiya qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentda ko'pchilikni tashkil qila olmasa, koalitsion uklad vujudga keladi. Natijada g'alaba qozongan partiya boshqalari bilan hamkorlikda koalitsion hukumat tuzishga majbur (Italiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya). Ammo bunday hukumat barqaror bo'lishi qiyin.

Hukmron partiya ustunligi ukladi parlamentda bir partiya mutlaq ko'pchilik bo'lganda va bir partiyalı hukumat tuzganda vujudga keladi. Hukmron partiya partiyaviy tizimda ustuvor mavqeni egallaydi, jamiyatga maskuraviy ta'sir o'tkazadi. Bunday davlatda kuchli va uyushgan muxolifat bo'lmaydi, hukmron partiya uzoq vaqt mavqeyini saqlab qoladi (Shvetsiya, Yaponiya).

Siyosat maydonida ikki partiya hukmronlik qilsa, biri hukmron, ikkinchisi muxolifat partiyaga aylansa, ikki partiyalı uklad shakllanadi. Nisbatan barqaror hukumat shakllanadi. Uning bir ko'rinishi o'zgargan ukladdir. Ikki partiyadan birortasi ham parlamentda ko'pchilik bo'la olmasa va biri uchinchi partiya bilan koalitsiya tuzsa, vujudga keladi.

Ko'ppartiyaviy tizimda partiyalararo munosabatning turli vazifalari shakllangan (12-chizma).



12-chizma

O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizim shakllanmoqda. Hozirgi kunda 5 parlamentar partiya mavjud. Hukmron va muxolifat partiyasi shakllanishi uchun asta-sekin sharoit yaratilmoqda. 2004-yilda Qonunchilik palatasini shakllantirishda 2 hukmron partiya aniqlandi. Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rin olgan LDP va "Fidokorlar" hukmron partiyalari maqomini, qolganlari esa parlamentar partiyalar maqomini oldi. Bu esa ko'p sabablar qatori siyosiy madaniyat va siyosiy ongning rivojlanishi bilan ham bog'liqdir (13-chizma).

O'zbekistonda siyosiy partiyalar uchun taqiqlangan 3 turdag'i faoliyat

Mustaqillikka qarshi faoliyat

Xalq sog'ligiga zararli faoliyat

Fuqarolar huquqlariga qarshi faoliyat

13-chizma

Darsdan keyin talabalarning tushunmagan savollari darhol so'ralmaydi. Aks holda juda ko'p savollar berilib, xato fikrni topishga urinishlari mumkin. Shuning uchun talabalarning (individual ravishda) xato deb bilgan fikrlari aniqlanadi va doskaga yozib qo'yiladi. Topilgan xatolar mavjud xatolardan ko'p bo'lishi ham mumkin. Shunda ham o'qituvchi uni rad qilmasdan doskaga yozgani ma'qul. Deylik, yuqoridagi matndan olita "xato" topishdi:

1. Siyosiy partyaning mohiyatini qat'iy bir sabab bilan izohlab bo'lmaydi.
2. Partiyaning dasturidan boshqa hujjalariiga saylov arafasida ishonish mumkin emas.
3. Siyosiy yuksalish, demokratiya partiyalarning soniga bog'liq.
4. Partiyalarning mavqeyi a'zolarining soni bilan belgilanadi.
5. O'zbekistonda ikki hukmron partiya mavjud.
6. Hokimiyat turli tarmoqlari, davlat boshqaruvinining mahalliy va markaziy organlari, turli siyosiy institutlar o'rtaсидagi munosabatlarini chuqurlashtirish partiya faoliyatining ajralmas vazifasidir.

Ko'rinish turibdiki, yuqoridagi fikrlardan 4 tasi xato, 2 tasi to'g'ri. Biroq xato fikrlardan to'g'rilarni ajratib olishni talabalarning o'zları bajarishlari lozim. Buning uchun turli pedagogik vositalardan foydalaniib, dalil keltirishlarini so'raymiz. Dastlab uning xatoligini tasdiqlovchi dalil aytildi, misoldagi birinchi fikrni xato deb bilgan talabaning dalili shunday: Partiyaning mavjudligi turli manfaatlarga ega guruhlarning (sinflarning) hokimiyat uchun kurashi bilan belgilanadi. Endi talabalar birinchi fikrning to'g'riligini isbotlovchi dalillar keltirishadi (bunda "Qor parchalari" usulini qo'llash mumkin):

- partiya shakllanishi uchun ma'lum siyosiy maqsadni ko'zlagan yetakechi yoki yetakchilar guruhi bo'lishi kerak;
- partiya tuzish uchun siyosiy imkoniyat (vaziyat) bo'lishi kerak;
- siyosatning tabiatini partiyani taqozo qiladi (Makiavelli);
- partiya insонning tabiiy ruhiyatidagi ziddiyatlarga bog'liq (Gobbs);

- partiya ijtimoiy taraqqiyot imkoniyatlari turli-tumanligi bilan belgilanadi. Demak, partiyaning mohiyatini qat'iy bir sabab bilan izohlab bo'lmas ekan. Shu tariqa boshqa javoblarning ham to'g'ri yoki noto'g'rilingini yetarli dalillar asosida isbotlaymiz.

Shundan keyin, o'qituvchi muhokamaga yakun yasab, talabalarning mulohazalarini baholab, ma'ruza va muhokama davomida tug'ilgan savollarga javob qaytaradi.

4. Yakunlovchi bosqich. Mashg'ulot samaradorligini aniqlash uchun diqqatimizni boshda berilgan muammoli yoki ochiq savollarga dastlab talabalarning bergen javoblariga qaratamiz. Oqimda talabalar soni ko'p bo'lmasa, 3 yoki 4 jamoaga bo'lib, jamoaviy batafsil javob tayyorlash uchun savollarni bo'lib beramiz. Jamoa javoblari muhokama qilinadi. Jamoa vakili yoki jamoaning boshqa a'zolari tushgan savol va e'tirozlarga javob berib, o'z nuqtai-nazarlarini himoya qilishlari kerak. Ochiq savollar munozaraga sabab bo'lishi, yagona fikrga kelmasligi ham mumkin.

Shundan keyin o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasar ekan, talabalarning diqqatini eng muhim fikrlarga qaratadi, dars davomida bilib olgan g'oyalarini, ularning kelgusi faoliyatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Mustaqil, ijodiy fikrlash, asosil dalillarni baholaydi.

2.8. Siyosat va ommaviy axborot vositalari

Bu darsni ham ataylab yo'l qo'yilgan xatolar bilan taqdim qilamiz.

1-bosqich. Talabalar boshqa ijtimoiy fanlarda bu mavzuni maxsus o'rzanmagan bo'lsalar-da, umumiy tushunchaga, tasavvurga va ayrim axborotlarga egalar. Darsning maqsadi, vazifalarini tushuntirgach, reja, tayanch so'zlar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar va adabiyotlar ro'yxatini taqdim qilamiz.

Reja:

1. Siyosatda axborotning roli.
2. OAVlarning vazifalari.
3. OAVlari siyosiy ta'sirining asosiy kanallari.

Tayanch so'zlar

Ommaviy axborot vositalari, so'z erkinligi, matbuot erkinligi, to'rtinchgi hokimiyat, manipulyatsiya imkoniyatlari, kommunikatsion tarbiya, axborot tarqatish bosqichlari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. OAVlarning asosiy vazifalarini tavsiflang.
2. OAVlar tavsifini belgilovchi omillarni ko'rsating.
3. O'zbekiston OAVlari faoliyati haqida mulohazalaringiz qanday (yutuqlar, kamchiliklar, muammolar)?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.

3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2012.

4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.

5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.

6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).

7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisি Qonunchilik Palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.

8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.

9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.

10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

2. Talabalarni faollashtirish. Dastlab qisqa so'rov o'tkazamiz. Taxminan quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz:

1. OAVlarni boshqa axborot vositalaridan farqi nimada?
2. Hozirgi davrda OAVlarning qanday turlari bor?
3. Telefon ommaviy axborot vositasi bo'la oladimi?
4. Qadimda ommaviy axborot vositalari bo'lganmi?
5. To'rtinchi hokimiyat nima?
6. OAVlar haqida yana nimalarini bilasiz?

So'nggi savol “Aqliy hujum” texnologiyasini taqozo qiladi, talabalar mavzuga oid bir qator ma'lumotlar, mulohazalär aytishlari mumkin.

Talabalarning mavzu haqidagi bilimlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishi va e'tiborini kuchaytiruvchi muammoli hamda ochiq savollar bilan murojaat qilamiz. Masalan, quyidagi savollarni o'rtaga tashlash maqsadga muvofiqdir.

1. OAVlarning asosiy siyosiy vazifalari.
2. Xolis axborot bo'lishi mumkinmi?
3. Axborot tarqatishning qanday bosqichlari bor?
4. OAVlar xabarlarini saralashning qanday qoidalari bor?
5. Siyosiy manipulyatsiyaning qanday usullarini bilasiz?
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida OAVlar haqida nimalar deyilgan?

7. OAVlar haqida yana nimalarni bilishni xohlaysiz?

Bu savollarga talabalarning qisqa javoblarini doskaga yozib qo'yamiz. Yuqoridaq savollar va ularning javoblarini hisobga olgan holda o'qilajak mavzuning asosiy muammolarini belgilab olamiz.


Nihoyat talabalarni mashg'ulotda xato fikrlar mavjudligi, ularni topish va asoslash zarurligi haqida ogohlantirib darsni o'tkazamiz. Dars o'tish davomida turli pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarur (kompyuter, kodoskop, doska, jadval, chizma va h.k.).

3-bosqich. Siyosiy tizimning unsurlari (elita, kontrelita, byurokratiya, omma) o'rtasida uzlusiz axborot almashinuv zarur. Hokimlik va bo'y sunish munosabatlari shuni taqozo qiladi. G.Lassuel siyosiy tizimlarda axborot muammosini quyidagi savollar yordamida ifodalaydi:

1. Kim nima deydi?
2. Qanday kanallardan foydalanadi?
3. Kimga?
4. Qanday natija bilan?

Turli siyosiy tizimlarda elitalar ommaga o'zlarining legitimligini mustahkamlovchi axborotlar beradi. Axborot betaraf emas, kurash qurolidir. Axborot elita tomonidan hokimiyatni mustahkamlash uchun foydalaniladi va shu maqsadda ziyraklik bilan tanlanadi. Har qanday siyosiy tizimda elita faoliyatining ancha qismi sir bo'lib qoladi. Elita bevosita va bilvosita usullar bilan siyosiy axborot oqimini nazorat qilishga urinadi. Shuning uchun "yuqoridan" keluvchi axborot qator buzilishlarga uchraydi. Ammo axborotni faqat elita tarqatmaydi. Axborotni kim nazorat qilsa, ijtimoiy qarashlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, omma xatti-harakatini ma'lum tomonga yo'naltiradi.

Siyosatda axborotning rolini belgilovchi 3 asosiy omil mavjud (1-chizma).




1-chizma

Bevosita muloqot bunday imkoniyatlarni bera olmaydi. Hozirgi davr axborot uzatishning maxsus vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu vositalarni OAV, OKV yoki mass-media deb nomlashadi.


OAV har qanday shaxslarga ochiq, ommaviy tarzda, maxsus texnik vositalar yordamida turli ma'lumotlarni uzatish uchun tuzilgan muassasalardir. Ular to'rtinchi hokimiyat hisoblanib, boshqa hokimiyatlar qatori hokimiyat belgilariga ega. Ular bir-birlarining faoliyatlariga aralashmaydilar, o'zaro kelishuv asosida ish olib boradilar.

Hozirgi davrda, so'nggi yillarda yer yo'ldoshlari orqali, aloqaning kabelli, radio va televideniye, elektron matnli kommunikatsiya tizimlari, axborot tarqatishning individual vositalari (kassetalar, disketalar, printerlar) keng tarqalmoqda. OAVlarning hozirgi kungacha eng ommaviy shakilari matbuot, radio, televideniyedir (2-chizma).



2-chizma

OAVlarining vazifalari xilma-xildir. Har qanday zamonaviy jamiyatda ular bir qator umumiy-siyosiy vazifalarni bajaradilar (3-chizma).



3-chizma

OAVlar bilimning chuqur va tizimi o'zlashtirilishini ta'minlamaydi. Biroq kishining butun hayoti davomida unga yo'ldosh bo'lib, uning ijtimoiy va siyosiy axborotni qabul qilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. OAVlarning eng muhim ijtimoiy siyosiy vazifasi qonun va inson huquqlarini hurmat qilishga asoslangan qadriyatlarni ommaviy ravishda tatbiq etish, ixtiloflarni tinch yo'l bilan hal qilishga o'rgatish.

OAVlarning tanqidi o'z obyektning kengligi, hatto cheksizligi bilan ajralib turadi. Masalan, muxolifat tanqid yo'naliшини bir nuqtaga jamlasa, OAVlari diqqati obyektni prezidentlar ham, hukumatlar ham, qirollar ham, sud ham, davlat siyosatining turli yo'nalichlari ham, OAVlarning o'zları ham tashkil etadi.

OAVlarning nazorat vazifasi jamoatchilik fikri va obro'siga asoslanadi. Bunday vazifa zaif muxolifat, nomukammal maxsus davlat nazorat instituti bo'lganda ayniqsa zarur. U hodisaga ma'naviy baho ham beradi. OAVlari siyosiy ta'sirining ikki kanali mavjud (4-chizma).



4-chizma

Hissiy ta'sir qanchalik muhim bo'lmasin, OAVlarning siyosatga bosh ta'siri axborot tarqatish jarayoni orqali ro'y beradi. Axborot olish, saralash, sharhlash va tarqatish bu jarayonning asosi bosqichlaridir (5-chizma).

Axborot tarqatish jarayonining 4 asosiy bosqichi

Axborot olish

Saralash

Sharhlash

Tarqatish

5-chizma

GFRda chiqqan siyosatshunoslikdan zamonaviy qo'llanmada shunday yozilgan: "Muhim axborotga ega bo'lish – hokimiyatga ega bo'lishdir; muhim axborotni muhim bo'limganidan ajrata bilish yanada ko'proq hokimiyatga ega bo'lishni anglatadi; muhim axborotni o'z talqinida tarqatish yoki uni yashirish imkoniyati – ikki barobar hokimiyatga egalikdir".

Bunday hokimiyatga bevosita egalik qilish OAVlari imtiyozidir. Muhim axborotni tanlash va tushunarli shaklda taqdim etish OAV tizimining muhim vazifasidir.

Jamoatchilik va hukumat diqqatini qaratish lozim bo'lgan mavzu va yo'nalishlarni aniqlash – OAVlari siyosiy ta'sirining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

OAV xabarlarini saralashning umumiylari mavjud (6-chizma).

OAV xabarlarini saralashning 5 qoidasi

Mavzuning fuqarolar uchun muhimligi

Dalillarning g'ayrioddiyligi

Yuqori ijtimoiy maqom

Dalillarning yangiligi

Siyosiy muvaffaqiyat, davlatlar yutuqlarini, yulduzlarini madh etish

6-chizma

Axborotlarning muhim, jozibador, dalillarning g'ayrioddiyligi va yangiligi, siyosiy muvaffaqiyat haqidagi xabarlar, ma'lumot beruvchilarning yuqori ijtimoiy maqomi juda muhim. Faqat g'alabaga yo'nalgan bu qoidalarga amal qilish siyosiy masalalarни yuzaki yoritishga olib kelishi mumkin.


OAVlari axborot tarqatishning asosan 2 usulidan foydalanadi (7- chizma).



7-chizma

Ayniqsa, matbuot maqolalari va boshqa nashrlarda u yoki bu siyosiy muammoni izchil va har tomonlama yoritadi. Televideniyeda keng tarqalgan fragmentar usulda tinglovchilar uchun u yoki bu hodisa mohiyatini bilishda bir qancha qiyinchiliklar tug'iladi.

Manipulyatsiya yolg'on va aldovlarga asoslangan. Ammo bu egzulik yo'lida qo'shimcha qo'shma usul qilingan faoliyatdir. U hukmronlikning kuch va iqtisodiy usulublariga nisbatan afzalliklarga ega. U sezilmasdan amalga oshadi, qon va qurbanlarni, katta moddiy harajatlarini talab etmaydi. Kurash olib borilmasa, OAVlarining bosh vazifasiga aylanishi mumkin. Siyosiy manipulyatsiyaning usullari xilma-xildir (8-chizma).



8-chizma

Manipulyatsiya imkoniyatlari eheksiz emas. Uning chegaralari shakllangan ommaviy ong, stereotip va qarashlar bilan belgilanadi. OAVlar ustidan nazorat qiluvchi organlar kuzatib boradilar. OAV faoliyatida cheklovlar o'rnatilgan (9-chizma).



9-chizma

Jamiyat tomonidan amalga oshiriluvchi demokratik nazorat o‘z fikrini erkin ifodalash huquqini buzmaydi. Hozirgi dunyoda OAVlar cheksiz faoliyat doirasiga ega bo‘lmoqda. Siyosiy barqarorlikni izdan chiqaradigan axborot erkinligini cheklash zarur.

OAVlari faoliyati siyosiy oqibatlarining oldini olishga yoshlarning kommunikatsion tarbiyasi yordam beradi. OAVlari pedagogikasi maxsus fani shakllandi. Uning asosiy maqsadi – fuqarolarni mass-mediaga tanqidiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatishdir (10-chizma).

OAVlar pedagogikasining 4 asosiy vazifasi

OAVning ijobjiy va salbiy ta’siri bilan tanishtirish

Axborot oqimida adashmaslik qobiliyatini shakllantirish

Manipulyatsiya va zararli oqibatlarga nisbatan immunitetni shakllantirish

OAVning siyosatdagi turlari bilan tanishtirish

10-chizma

OAVlarining roli, ayniqsa, o‘tish davrida juda katta, chunki ularsiz siyosiy ongni, qadriyatli intilishlari va aholining maqsadlarini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

O‘tish davrida OAVlari hukumatning qattiq nazoratida bo‘lishi hukumatgagining xizmat qilishi lozim. Mafkuraviy kurash keskin bo‘lgan joyda OAVlarini xususiylashtirish yoki turli, bir-birini inkor qiluvchi fikrlar tarqatishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

4-bosqich. Ma’ruza so‘ngida talabalarning savollariga javob bersak, ataylab yo‘l qo‘ylgan xatolarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatishdan qochish kerak. Shundan so‘ng talabalar xato deb hisoblagan fikrlarini so‘raymiz va doskaga yozib boramiz. Agar xato hisoblanuvchi (talabalar nuqtayi nazarida) fikrlar ko‘p bo‘lsa, oqimni 2-4 jamoaga ajratib, ataylab yo‘l qo‘ylgan xato fikrlar sonini e’lon qilamiz va umumiy javobdan zarurlarini jamoalar tanlashini so‘raymiz (insert usuli vositasida).

Bizning tajribamizda “Aqliy hujum” orqali quyidagi fikrlar xato deb ko‘rsatildi:

1. Axborot tarqatishning individual vositalari kassetalar, disketalar, printerlar OAVlarga kiradi.
2. OAVlari hokimiyat belgilariga ega.
3. OAVlarning tanqid obyekti cheksizdir.

4. Televideeniye axborotlari qiyinchiliklar tug'diradi.
5. OAVlarni cheklash zarur (iloji yo'q).
6. OAVlar o'tish davrida hukumatgagina xizmat qilishi lozim.
7. Mafkuraviy kurash keskinlashgan davrda OAVlarni xususiylashtirish mumkin emas.

8. OAVlar bilimning chuqur o'zlashtirishini ta'minlamaydi.

Har bir talaba yuqorida mulohazalardan xato deb topgan 3 tasini tanlaydi. Keyin tuzilgan jamoada muhokama qilinib, o'zaro fikrlashadilar, bir-birlariga dalillar asosida fikrlarini isbotlaydilar, bir-birlaridan o'rganadilar, yagona to'xtamga kelingach, har bir jamoa xato deb hisoblagan 3 xil fikri e'lon qiladi. Jamoalarning fikrlari mos kelishi ham mumkin. Barcha jamoalar javoblarida xato fikr deb hisoblangan to'g'ri mulohaza xato fikrlar qatorida qoldiriladi. Biz (8 tadan) quyidagi mulohazalarni tahlil qilish uchun qoldirdik.

1. OAVlari hokimiyat belgilariiga ega.
2. OAVlar o'tish davrida hukumatgagina xizmat qilishi lozim.
3. Mafkuraviy kurash keskinlashgan davrda OAVlarni xususiylashtirish mumkin emas.

4. OAVlar bilimning chuqur o'zlashtirishini ta'minlamaydi.

Bu so'nggi mulohazani to'g'ri deb e'lon qilib, "Aqliy hujum" vositasida dalillar keltirishni taklif qildik. "Aqliy hujum" davomida quyidagi dalillar keltirildi:

- OAVlarning asl maqsadi fan sifatida bilim tarqatish emas.
- OAVlari ayrim muammolarni chuqur yoritishi mumkin, ammo ular dastlabki mulohazalardir.
- OAVlar axborotlariga cheklangan mafkuraviy maqsadlar ta'sir qiladi.

Natijada 3 ta noto'g'ri deb topilgan mulohaza ajratib olindi.

Talabalarni 3 jamoaga taqsimlab, ajratib olingan mulohazalarni yuqoridaqi kabi dalillar bilan asoslashni taklif qildik. Jamoalar vakillari javoblarni e'lon qilib, savollarga javob berdilar. Boshqa talabalar uni to'ldirishlari ham mumkin.

Shundan keyin o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatolar to'g'ri topilganligini, yetarli asoslab berilganligini ta'kidlaydi, zarur bo'lsa, o'zining qo'shimcha dalillarini taqdim qiladi va xulosa chiqaradi.

Endi ma'ruzaning talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirib olinganligini nazorat qilish lozim. Buning uchun turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Dastlab qisqa so'rov o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ma'ruza qanday o'zlashtirilganligini quyidagi savollar yaqqol ko'rsata oladi:

1. Siyosatda axborotning rolini belgilovchi omillar qaysilar?
2. OAVlarining asosiy vazifalarni sanab bering.
3. Axborotlarni saralashning qanday tamoyillarini bilasiz?
4. Siyosiy manipulyatsiyaning qanday usullari bor?
5. OAVlariga qanday cheklar bor?

Talabalarning ma'ruza mazmumini o'zlashtirish darajalarini aniqlab bo'lgach, dastlab berilgan, doskaga javoblari yozilgan savollarga talabalarning diqqatini qaratamiz va ularga o'xshash yoki bir xil bo'lgan savollarning javoblari bilan taqqoslashni taklif qilamiz. Bunda talabalarning mavzu bo'yicha yangi va avvalgiga

nisbatan chuqur bilim olganliklari hamda chuqur va asosli bilimga ega bo'lganliklari yaqqol ko'rindi.

Shundan keyin ma'ruzachi talabalarning savollariga (mabodo tug'ilgan bo'lsa) javob beradi va ma'ruzaga yakun yasaydi. O'qituvchi yakunlovchi so'zida ma'ruzada olingan yangi, muhim fikrlarni takroran ta'kidlaydi, ular talabalarning kelgusi faoliyatidagi ahamiyatini misollar yordamida tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi.

2.9. Siyosat va millatlararo munosabatlar

1-bosqich. Bu mashg'ulotni talabalarga tarqatma material oldindan berilmagan sharoitda o'qiyimiz. Dastlab mavzu, uning asosiy savollarini, tayanch so'zlar va atamalarni kodoskop orqali namoyish qilamiz.

Reja:

1. Kishilarning tarixiy birliklari.
2. Milliy munosabatlar va milliy masala.
3. Milliy siyosatning asosi, maqsadi va xususiyatlari.
4. Milliy siyosatning umuminsoniy tamoyillari va ularning mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilishi.

Tayanch so'zlar

Etnos, elat, millat, etnik guruh, etnografik guruh, milliy guruh, milliy munosabatlar, milliy masala, milliy siyosat tamoyillari, milliy siyosat, milliy o'zlikni anglash, millatlarning o'z taqdirlarini o'zları belgilash huquqi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Milliy munosabatlarning ijtimoiy taraqqiyotdagи turini tushuntirib bering.
2. Milliy masalaning kelib chiqishi va uni hal qilishga bo'lgan turlicha yondashuvlarni misollar yordamida izohlang.
3. Milliy siyosatning turli mamlakatlarda o'ziga xos va umumiyl xususiyatlarini asoslab bering.
4. Sobiq Ittifoq davrida milliy siyosatning mohiyati, oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan milliy siyosatning gumanistik mohiyatini ko'rsatib bering.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.

5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. //Xalq so‘zi. 2013-yil 20-yanvar.
6. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig‘ilishidagi nutqi. //Xalq so‘zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
9. Nosirxo‘jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.


2-bosqich. 2.1. Talabalar mavzu, uning savollari, tayanch so‘zlar va atamalar bilan tanishganlardan (yozib olganlardan) so‘ng, bu mashhg‘ulotda nima haqida so‘z borishini, unda tayanch so‘zlarning turini ko‘rsatishni so‘raymiz. Qisqa so‘rov o‘tkazamiz. Bunda mazkur mavzu boshqa ijtimoiy fanlarda ham turli tomonidan o‘rganilganini hisobga olmoq kerak. Qisqa so‘rov savollari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Kishilarning qanday tarixiy birliklari bor?
2. Milliy masala deganda nimani tushunasiz?
3. Ko‘pmillatli davlatlarga misollar aytинг?
4. Hamma alohida davlatlar bir millatli bo‘lganda milliy masala mavjud bo‘lishi mumkinmi?
5. Hozirgi dunyoda qanday milliy masalalar mavjud?

Bu savollar talabaning mavzu bo‘yicha bilimini aniqlashga yordam beradi va uni ma’ruzani eshitishga tayyorlaydi. Talabalardan mazkur mavzu bo‘yicha nimalarni bilib olishni kutayotganlarini (taxmin, istaklarini) daftarlariiga yozib qo‘yish so‘raladi.


2.2. Ma’ruza texnik vositalardan multimedialardan, jadval va chizmalardan foydalanib o‘qiladi.

Jamiyat ijtimoiy munosabatlарining rivojlanishi darajasiga mos ravishda kishilar guruhining uyushuv shakllari ham o‘zgarib borgan. Kishilarning barcha tarixiy birliklari etnos tushunchasidan ifodalanadi. Etnos – bir tilda gaplashadigan, o‘zining kelib chiqishi birligini tan oladigan, o‘zining turmush tarzi va urs-odatlariga ega bo‘lgan kishilar guruhi sanaladi (1-chizma).



1-chizma

Millat, elat, etnik va etnografik guruhlar etnosning asosiy ko'rinishlaridir (2-chizma).



2-chizma

Fanda millat tushunchasiga yagona yondashuv mavjud emas. Psixologik nazariya vakillari unda umumiy taqdirga ega bo'lgan kishilarning madaniy psixologik birligini ko'radilar. Marksizm millatda iqtisodiy aloqalar umumiyligini ko'radi. Hozirgi davrda Rossiya tadqiqotchilari millatni davlat birligi bilan bog'laydilar, keng ma'noda siyosiy tushuncha sifatida talqin qiladilar. Bunga ko'ra millat hudud va til, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning umumiyligi bilan tavsiflanadigan bir davlat fuqarolarining yig'indisidir. Demak, millatning etnik tarkibi har xil bo'lishi mumkin.

Elat – etnik tarkibi u yoki bu darajada umumiy bo'lgan, millat uchun umumiy belgilari bilan bir qatorda ong va ruhiyat umumiyligi bilar tavsiflanadigan kishilarning ijtimoiy-etnik birligi hisoblanadi.

Etnik guruh, asosan, etnik belgilari, tili, kelib chiqishi va tarixi madaniyati, turmushi, an'analari birligini anglash bilan farqlanadigan, millat va elatga nisbatan miqdori kam bo'lgan tarixiy birligidir.

Etnografik guruh u yoki bu millat, elat, etnik guruh bilan bir tilda gaplashadigan, ammo turmushda, an'analarda va urf-odatlarda farqlanadigan, qadimdan ma'lum hududda yashab kelayotgan kishilar birligidir (pomorlar, kamchadaklar, kazaklar ruslar tarkibida, svanlar, lazlar, nigrenlar gurjilar tarkibidagi etnografik guruhlardir).

Bundan tashqari milliy guruhlar ham mavjud. Milliy guruhlar asosiy qismi boshqa davlat hududida istiqomat qiladigan millatning qismidir.

Milliy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarda o'ziga xos o'rinn tutadi (3-chizma).

Milliy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlari boshqa ko'rinishlaridan 2 farqi

Jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldorligi

Jamiyat hayoti sohalaridan alohida mustaqil holatda mavjud emasligi

3-chizma

U iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa munosabatlari kabi mustaqil alohida ijtimoiy soha emas, jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida, turli ijtimoiy sohalardagi jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Milliy munosabatlar mazmunan keng tushuncha. U umuman bir davlat tarkibidagi millatlar o'tasidagi munosabatlarni ham, turli davlatlar o'tasidagi munosabatlarni ham, turli millatlarga mansub shaxslar o'tasidagi munosabatlarni ham o'z ichiga oladi (4-chizma).

Milliy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi 2 jarayon

Millat ichidagi sloqalarning jami

Millatlararo sloqalarning jami

4-chizma

Milliy munosabatlar eng murakkab masalalardan biridir.

Milliy masala millatlar o'tasidagi munosabatlarda hal qilinmagan masala mavjudligini, uning o'zaro manfaatli ziddiyatlari to'qnash kelganligini ifodalaydi (5-chizma).

Milliy masala mavjudligining 2 sababi

Xalqlarning erkin va har tomonloma rivoji uchun zarur sharoitning bin xil emasligi


Emoslar o'rtaсидаги бўйсуниш ва hukmronlik munosabatlari mavjudligi

5-chizma

Milliy masala hal qilinganda millatlar o'rtaсидаги munosabatlар do'stona, hamkorlik asosida rivojlanadi, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Milliy masalaning hal qilinmaganligi, umuman, jamiyat (mamlakat) taraqqiyotiga to'siq bo'lishi, davlatlarning parchalanib ketishiga olib kelishi, barcha sohalarda millatlar o'rtaсидаги munosabatlarga putur yetishi mumkin. Ayniqsa, ko'pmillatli mamlakatlarda milliy masalani o'z vaqtida adolatli hal qilish zarur.

Shuning uchun milliy siyosat mamlakatning kelajagi, taraqqiyotini hal qiladigan davlat siyosati yo'nalişlaridan biridir.

Milliy siyosat milliy munosabatlarni boshqarish, millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, milliy masalani o'z vaqtida hal qilishga yo'nalgan davlat siyosatidir (6-chizma).



6-chizma


U tegishli hujjalarda mustahkamlab qo'yilgan qonun, qoidalarga, davlatning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqib qabul qilingan qarorlarga asoslanadi (7-chizma).



7-chizma


Milliy siyosat u yoki bu millatning holatiga, ehtiyoj, intilish va manfaatlariga mos ravishda davlat rivojining, siyosiy tizimning turli bosqichlarida o'zgarib turishi mumkin. Davlatga nom bergan yoki hokimiyatda bo'lgan millat davlatning imkoniyatlari va istiqbolidan, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib siyosat yuritadi.

Sobiq Ittifoq davrida g'arazli maqsad bilan bog'liq g'oyalarga tayanib milliy masalaga noxolis yondashildi (8-chizma).



8-chizma

Natijada milliy siyosatda ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'yildi (9-chizma).



9-chizma

Bu xatolar markscha-leninchcha ta'lomit g'oyalariga mos kelar edi. Millatning kelajakda yo'qolib ketishi g'oyasiga asoslanib, uni sun'iy ravishda tezlashtirishga, shu yo'l bilan milliy masalani hal qilishga urindilar. Sobiq Ittifoq davrida ko'pgina xalqlarning milliy davlatchiligi yo'q qilinib, vatanidan quvildi (10-chizma).

Sobiq SSSR davrida milliy davlatchiligi yo'q qilinib, vatanidan quvilgan 6 ta xalq

Qalmoqlar

Chechenlar

Ingushlar

Qrim tatarlari

Masxetiyalik turklar

Nemislar

10-chizma

Buni Ikkinci Jahon urushidagi vaziyat bilan yoki bir shaxsning (Stalinning) xatolari bilan to'la izohlab bo'lmaydi. Bu nazariyaning xatosi edi. Noto'g'ri metodologiyaga asoslangan mafkuralashgan fan ham ham to'g'ri xulosalar chiqarishga qodir emas edi (11-chizma).


Sobiq SSSRda milliy jarayonlarni o'rghanishdagi 2 umumnazariy xato

Milliy masalaning to'la uzil-kesil hal qilinmasligi haqidagi fikr

Milliy munosabatlari rivojidagi ikki tendensiyaning biri yaqinlashib, qo'shilib ketishi haqidagi xulosa

11-chizma


Sobiq Ittifoq turida paydo bo'lgan yosh mustaqil davlatlarda zamonaviy demokratik jamiyatga o'tish davridagi milliy siyosat o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Mustaqillikka erishgan milliy qiyofasi majruh bo'lgan millatning o'z-o'zini anglashi, milliy merosni tiklash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish, bu borada bolsheviklar qoldirgan og'ir merosning salbiy oqibatlarini bartaraf etish lozim edi. Yosh mustaqil davlatlarning bu boradagi milliy siyosati millatning iqtisodiy, demografik, milliy o'zlikni anglash darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Millat rivojida, ayniqsa, milliy o'zlikni anglash muhimdir (12- chizma).



12-chizma

Aniq sharoitga asoslanib, har bir yosh mustaqil davlat turilcha milliy siyosat yuritishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining milliy siyosatida umuminsoniy manfaatlar asos qilib olingan.

Davlatimiz qabul qilgan barcha hujjatlarda ana shu tamoyil aks etgan. O'zbekistonda tashkil topgan milliy madaniy markazlar shu tamoyilni izchil amalga oshirish jarayonidir (13-chizma).



13-chizma

Turli davlatlarda milliy siyosat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi uning gumanistik, umuminsoniy nuqtai nazardan yondashuv tamoyillarini inkor qilmasligi kerak. Aks holda milliy masalani muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi. Aniq mamlakatlar siyosatida, ular ijtimoiy rivojlanishning qaysi bosqichlarida turishlaridan qat'i nazar, bu umuminsoniy tamoyillar milliy masalani hal qilishning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu tamoyillarning asosiyлари 13-chizmada keltirilgan.

1. Milliy etnik va millatlararo umuminsoniy manfaatlarning doimiy uyg'unligini ta'minlash, milliy va millatlararo munosabatlarning eng optimal shakllarini topish.
2. Millatlarni o'z taqdirlarini o'zları belgilashlari huquqini, erkin demokratik saylov asosida ijtimoiy tuzumni tanlab, mustaqil davlat tuzish huquqini so'zsiz tan olish.
3. Milliy mustaqillik sharoitida inson huquqlarini tan olish. Bu milliy mansublikka ko'ra fuqarolarning notengligini mustahkamlovchi huquqiy norma va qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik, barcha millatlarning madaniy an'ana va

manfaatlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratish, milliy masalani hal qilishda zo'rlikning har qanday shaklini inkor qilish demakdir.

4. Kishilarning millatlararo muloqotiga va milliy hissiyotlariga tegishli barcha jarayonlariga alohida e'tibor berish, millatchilik va shovinizmning hech qanday shakllariga yo'li bermaslik.

O'zbekiston Respublikasida 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Ularning maqsadlari, taqdirlari, yo'llari (ozod, farovon, erkin jamiyat) bir bo'lganligi bois, hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro bir-birini boyitish asosida taraqqiy etadilar. Milliy taraqqiyotga to'siq bo'ladigan tartiblar, qoidalar, qonunlar barham topgan. Millatlarning erkin rivojlanishi uchun obyektiv sharoitlar mavjud. Hech bir millatning qadriyatlariga tahdid qiluvchi harakatlarga zamin yo'q. O'zbekiston har qanday millatga insoniyatning va mamlakatimizning boyligi deb qaraydi va milliy siyosatni shu asosda olib bormoqda.

3-bosqich. 3.1. Dars o'tilgandan keyin talabalarning savollariga javob beriladi. So'ngra dars mazmuni talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini tekshirish lozim. Buning uchun nazorat testlaridan, qisqa so'rov, "Aqliy hujum" va boshqa usullardan foydalansa bo'ladi. Darsdan talabalar kutgan muammolar bilan olgan bilimlarini taqoslab ko'rish hamda xulosa chiqarish so'raladi.

Nazorat uchun test namunaları

1. Etnik tarkibi bir, ong va ruhiyat umumiyligi bilan tavsiflanadigan kishilarning tarixiy birligini aytинг.

- A) millat;
- B) elat;
- V) etnik guruh;
- G) etnografik guruh;
- D) milliy guruh.

Keyingi 3 ta testni faqat savollarini o'zgartirib tuzamiz.

2. Tili, kelib chiqishi, tarixi, madaniyati birligini anglash bilan farqlanadigan kam miqdordagi kishilarning tarixiy birligini aytинг.

- A) millat;
- B) elat;
- V) etnik guruh;
- G) etnografik guruh;
- D) milliy guruh.

3. Boshqa etnoslar bilan bir tilda gaplashadigan, ammo urf-odatlari farqlanadigan, qadimdan ma'lum hududda yashab kelayotgan kishilar birligini aytинг.

- A) millat;
- B) elat;
- V) etnik guruh;
- G) etnografik guruh;
- D) milliy guruh.

4. Asosiy qismi boshqa davlat hududida istiqomat qiladigan millatning qismini aytинг.

- A) millat;

- B) elat;
- V) etnik guruh;
- G) etnografik guruh;
- D) milliy guruh.
5. Milliy siyosatning mazmuni qanday omil bilan belgilanadi?
- A) aniq sharoit asosida;
- B) davlatning manfaatlari asosida;
- V) hokimiyatdagi kuchlarning qarashlari, maqsadlari asosida;
- G) tashqi ta'sirlar asosida;
- D) hammasi to'g'ri.
6. Mustaqil O'zbekistonda milliy siyosat asosiga qo'yilgan tamoyilni ko'rsating.
- A) o'zbeklashtirish;
- B) o'zbeklar hukmronligini ta'minlash;
- V) iqtisodiy fonda olish;
- G) boshqa davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash;
- D) ko'pmillatlilik – boyligimiz.
- Qisqa so'rov o'tkazilagan bo'lsa, o'z vaqtida berilgan javoblar holatidan kelib chiqib, faollashtirish bosqichida berilgan masalalarni qayta so'rash mumkin yoki boshqa savollar bilan ham murojaat qilsa bo'ladi. Masalan:
1. Kishilarning turli tarixiy birliklari nimaga bog'liq?
 2. Qanday etnik guruhlarni bilasiz?
 3. Qanday etnografik guruhlarni bilasiz?
 4. Mustaqil O'zbekistonda qabul qilingan, milliy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarning nomlarini aytинг.
 5. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi milliy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

"Aqliy hujum" pedagogik texnologiyasini qo'llamoqchi bo'lsangiz, 1 yoki 2 savolni ajratib olishingiz lozim bo'ladi. U muammoli xarakterda bo'lishi ham mumkin. Masalan:

1. Ko'pmi?atlilikning qanday ahamiyati va xavfli tomonlari bor?
2. Mustaqillik yillarda milliy munosabatlarni takomillashtirishda qanday natijalarga erishildi?

Biz bir oqimda "mazkur mavzu bo'yicha olgan bilimlaringizni kelgusi amaliy faoliyatingizdagi ahamiyati" degan mavzuda har bir talabaga esse yozdirishni taklif qildik. Hamma o'z tushunchasini kelgusi rejalaridan kelib chiqib, fikr-mulohazalarini daftarlariga yozishdi. Esesini muhokamaga topshirishni ixtiyor qilgan 4 talabaning mulohazalari talabalar diqqatiga havola qilindi.

Esselarning qisqacha muhokamasidan keyin mavzuning eng muhim qoidalari, g'oyalari, muhim jihatlarini xulosa sifatida takrorlab, talabalarning bilimlarini umumlashtirish va kelgusi faoliyatlarida bu muammolarni yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha vazifalarga yo'llash lozim. Shu bilan dars yakunlanadi.

2.10. Siyosatning subyektlari

1-bosqich. 1.1. Bu mashg'ulotni ham talabalarga ilgaridan tarqatma material berilmagan sharoitda o'qiyimiz. Shaklan ilgarigi darsga o'xshab ketadi. Shuning uchun talabalarga turli maqsadlarda beriladigan savollar rang-barang, qiziqarli bo'lishi zarur. Dastlab mavzuni, uning asosiy savollarini, tayanch so'z va atamalarni, mustaqil ish uchun topshirqlarni va adabiyotlar ro'yxatini yozdiramiz (kodoskop orqali namoyish etamiz). Mashg'ulotning maqsadi, rejalashtirilayotgan natijalari bilan tanishtiramiz.

Reja:

1. Siyosat subyektlari tushunchasi.
2. Xalq va inson siyosat subyektlari sifatida.
3. Guruhlar va qatlamlar – siyosat subyektlari.

Tayanch so'zlar

Siyosat subyektlari, siyosat obyektlari, siyosiy subyektlar, hokimiyat subyekti, siyosiy boshqaruv, guruhlar va qatlamlar, o'rta mulkdorlar sinfi, siyosiy tashkilotlar, siyosiy harakatlar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
 2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
 3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
 4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
 5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
 6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
 7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
 8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
 9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
 10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.
- 1.2. Talabalar mavzu, reja, tayanch so'zlar bilan tanishganlardan so'ng diqqatni tortuvchi, faollashtiruvchi savollar beramiz. Mavzu boshqa ijtimoiy fanlarda maxsus o'rganilmaganligi, talabalar umumiylar tarzda asosiy tushunchalarni bilishlarini hisobga olib, muammoli ochiq savollar berish maqsadga muvofiq emas. Dastlab turtki beruvchi savollar bilan murojaat qilamiz. Bunda "Aqliy hujum"ning pedagogik texnologiyasini qo'llash mumkin.

1. Siyosat subyektlari va obyektlari haqida nimalar deya olasiz? Unga kimlar yoki nimalar kiradi?

2. Siyosat subyektlari va obyektlarining tarkiblari hamma mamlakatlarda bir xilmi? Turli davrlarda-chi?

3. Siyosat subyektlari soni ko‘p bo‘lgani ma’qulmi yoki oz bo‘lganimi?

Bu savollarga dastlabki javoblarni olgach, mavzuga yanada chuquroq kirish va talabalarni faollashtirish uchun qisqa javobli (“ha”, “yo‘q”, “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri”), mavzuning muhim qirralarini ifodalovchi savollarni yozdiramiz (doskaga yozamiz yoki ekranda namoyish qilamiz). Talabalar savollarga o‘z javoblarini yozib qo‘yadilar. Mazkur mavzu bo‘yicha quyidagi qisqa javobli savollarni taqdim qilish mumkin:

1. Bir narsa bir vaqtning o‘zida ham siyosat subyekti, ham obyekti bo‘la oladimi?

2. Siyosiy hokimiyatni boshqarishda hamma siyosat subyektlari ishtirot etadimi?

3. “Siyosatning birdan bir subyekti faqat xalqdir” degan fikr to‘g‘rimi?

4. “Siyosat subyekti” va “Siyosiy subyekti” tushunchalarining farqi bormi?

5. Talabalar siyosat subyektimi yoxud obyektimi? Siyosiy subyekti yoki siyosat subyektimi degan savolga faqat subyekti va siyosat obyekti degan javob to‘g‘rimi?

6. “Har qanday sharoitda xalq siyosat subyekti bo‘la oladi” degan fikr to‘g‘rimi?

7. Siyosiy subyekti bo‘lmaydigan guruhlar bormi?

8. “Siyosat subyekti”, “Siyosiy hokimiyat subyekti” tushunchalarida farq bormi?

9. Siyosat subyektlarining, miqdori, soni mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liqmi?

10. Demokratik jamiyatning asosi bo‘lgan o‘rtalik mulkdorlar sinfi hokimiyat subyektimi?

Bu savollarga talabalarning qisqa javoblari yozib qo‘yiladi. Shundan keyin ma’ruzachi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanimiz ma’ruza o‘qiydi.

Uni eshitgan, tushungan talaba nazariy bilimlar bilan quronishni, mavzu bo‘yicha yangi, nisbatan chuqur fikrlarga ega bo‘lishi va mavzuga bog‘liq juz‘iy muammolarni to‘g‘ri, nazariy bilim asosida hal qila olish layoqatiga ega bo‘lishi kerak.

2-bosqich. Matnning asosiy mazmuni quyidagi g‘oyalarni ifoda etishi lozim.

Siyosat subyektlari, ularning xatti-harakatlari, huquqiy munosabatlar va normalar bilan boshqarilsa-da, huquq subyektlaridan farq qiladigan vazifalarga ega. Davlat va uning organlarining asosiy vazifasi siyosiy hokimiyatni amalga oshirishdir. Davlatdan farq qilib, ko‘p birliklar hatto tashkilotlar siyosatda va siyosiy hayotda bu ma’noda ishtirot etmaydilar.


Siyosiy hayot siyosat subyektlarining o‘zaro ta’siri sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Ularning har biri ham subyekt, ham obyekt sifatida maydonga chiqadi. Siyosat subyektlari siyosiy hokimiyatni egallagan yoki unga intiladigan kishilar va tashkilotlardir (1-chizma).



1-chizma


Subyektni nazarga oladigan bo‘lsak, birinchi navbatda bu tizimga xalq kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida: “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir” - deyliladi. So‘ngra, “O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiysi xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan, Qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi”.

Siyosat subyektlariga davlat va uning organlari, siyosiy partiyalar, siyosiy manfaat va maqsadlarga ega boshqa uyushmalar, birlashmalar kiradi (2-chizma).



2-chizma

Siyosat subyektining 2 shakli mavjud (3-chizma).




3-chizma

Real siyosatni amalga oshirish haqida gap ketganda, aynan individual subyektlar nazarda tutildi. Alovida shaxslar, birinchi navbatda siyosiy yetakchilar siyosatda hal qiluvchi rol o‘ynaydilar. Hokimlar va xalqlarni, “Qahramonlar va olomonni” qadimdan qarama-qarshi qo‘yib kelganlar. Olomon deganda konservativ kuch nazarda tutildi.

Siyosat subyektlarining aloqlari va vazifalarini yaxshi tushunish uchun siyosat va siyosiy faoliyatning ayrim xususiyatlarini unutmaslik kerak. Bu faoliyat qator cheklanishlarga ega. Ularning ba'zilari qonuniy, Konstitutsiyadan kelib chiqadi, ba'zilarining legitimligi munozaralidir.

“Siyosat subyektlari” va “Siyosiy subyekt” tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Siyosiy subyektlarga professional siyosiy faoliyat ko'rsatadigan odamlar va tashkilotlar hamda siyosiy hayotda qatnashadigan, unga ta'sir qiladiganlar ham kiradi (4-chizma).




4-chizma

4-chizmada ko'rsatilgan tashkilotlar siyosiy subyektlarga kirmaydi, chunki siyosiy faoliyat ularning mohiyatidan kelib chiqmaydi. Bu tashkilotlar hokimiyat uchun kurash yoki uning vazifalarini bajarish maqsadida tuzilmaydi, balki o'zlarining korporativ maqsadlarini amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin ular hokimiyatdan to'la uzilib ham keta olmaydilar. Hatto alohida vaziyatlarda siyosat subyekti vazifasini bajaradilar va siyosatga faol aralashadilar.

Shuningdek, hokimiyatga ega bo'lgan subyektlar siyosatini hokimiyat uchun kurashadigan subyektlar siyosatidan farqlash kerak. Birinchi holda siyosat subyekti va hokimiyat subyekti mos keladi, ikkinchi holda farq qiladi. Muxolifatdagi partiya – siyosat subyekti, lekin hokimiyat subyekti emas.

Siyosiy munosabatlar boshqaruv munosabatlaridir. U boshqaruvchi va boshqariladiganlarni taqozo qiladi. Siyosiy boshqaruv munosabatlari boshqalaridan, masalan, ma'muriy boshqaruv munosabatlaridan farq qiladi (5-chizma).




5-chizma

Biroq uning usulidan foydalanish ham uchraydi. Sobiq Ittifoqda kommunistik partiya hokimiyat subyekti va siyosat subyekti bo'lishi bilan bir qatorda ma'muriy buyruqbozlik usulidan ham foydalangan.

Siyosatda xalq va alohida shaxsnинг roli haqida gapirganda mafkuraviy yondashuvdan ehtiyoj bo'lish kerak. Marksistlar xalq ommasining siyosiy hayotdagи rolini progressiv va reaksiy sinflar, sinfiy kurash, kommunistik partiya – mehnatkashlar manfaatining ifodasi, xalqni yorug' kelajakka eltuvchi dohiylar haqidagi tezislar yordamida izohlagan. Shular orqali davlat va partiya xalqni obyekt holatiga qo'ygan. Shunday bo'lsa-da, xalq ommasi haqiqiy subyektdir, deb jar solishgan.

Agar jamiyat demokratik bo'lsa, davlat xalq uchun, xalqqa tayanib ishlasa, davlat organlarida xalq vakillari bo'lishi kerak. Afsuski, ko'p mamlakatlarda xalqdan ajralgan siyosiy elita hokimiyatni egallab olmoqda.


Qanday sharoitda xalq hokimiyatning haqiqiy subyekti bo'la oladi (6-chizma)?



6-chizma

Buning uchun siyosiy vaziyatni to'g'ri baholashga imkon beradigan jamiyatning siyosiy madaniyati bo'lishi kerak. Chunki jamiyatda hukmron bo'lgan siyosiy norma, qoidalar, an'analar xalqning siyosiy faoliyatini taqozo qilsa, xalq siyosatning haqiqiy subyektiga aylanadi. Ikkinchidan, shunga mos ijtimoiy-siyosiy sharoit ham bo'lishi kerak.


Oddiy odam ham shu ikki omil bo'lganda siyosatning subyekti bo'la oladi. Bu aytilgan omillarni kengroq sharhlaydigan bo'lsak, u siyosiy bilimlarni, siyosiy ongni, siyosiy manfaatlar, siyosiy psixologiya, ya'ni davlat hokimiyati va unga ta'sir qilish haqida ilmiy tasavvurni shakllantiruvchi omillar kerak. Ikkinchidan, siyosiy vaziyatni to'g'ri baholashga mos sharoitning ham yetarli omillari talab qilinadi (7-chizma).



7-chizma


Demokratiya oshkoraliq bo'limasa, ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat ko'rsatmasa, xalq va shaxslar siyosiy vaziyat haqida yetarli, to'g'ri axborotga ega bo'lmaydilar, demak, siyosiy vaziyatni to'g'ri baho lay olmaydilar.

Har qanday murakkab tashkil topgan jamiyatda kishilar ko'pdan ko'p guruhlarga mansub bo'ladilar (8-chizma).




8-chizma

Demografik mansubligiga ko'ra (9-chizma).



9-chizma


Kasb-kor xususiyatlari ko'ra (10-chizma).



10-chizma


Ijtimoiy guruhlarni ajratish mumkin. Ushbu guruhlar o'rtasidagi tafovutlar jiddiy siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, ammo har qanday guruh siyosat subyekti bo'lavermaydi. Buning uchun u siyosiy munosabatlarning real, amaliy subyekti sifatida shakllanishi lozim. Manfaatlar guruhi shakllangandagina ular

siyosiy faoliyatga qodir bo'ladilar. Manfaat guruhlari ikki yo'l bilan vujudga keladi (11-chizma).




11-chizma

Anomik guruhlar tashkiliy harakat qiluvchi doimiy a'zolarining yo'qligi, davlat bilan siyosiy munosabatlar doimiy emasligi, ichki tuzilishi barqaror emasligi bilan tavsiflanadi. Muassasaviy guruhlar esa aniq tashkiliy tuzilmaga, barqaror vazifalarga, malakali kadrlar apparatiga ega. Manfaat guruhlari uch asosiy vazifani bajaradi (12-chizma).




12-chizma

Ularning qonuniy va noqonuniy faoliyat usullari mavjud (13-14 chizmalar).



13-chizma

Manfaatlar guruhlari noqonuniy faoliyatining 3 shakli



14-chizma

Ijtimoiy guruhlar siyosiy hayotga bevosita emas, maxsus siyosiy muassasalarining shakllanishiga yordam bergen holda qatnashadilar.

Hozirgi zamon rivojlangan jamiyatlarida sotsial-sinfiy tuzilma o'ziga xosdir. Odaitda yuqori, o'rta va quyi sinflarni ajratadilar. Rivojlangan mamlakatlarda o'rta mulkdorlar sinfi miqdor jihatdan eng ko'p bo'lib (60-80 %), jamiyat siyosiy hayotida hal qiluvchi o'rinni tutadi. O'rta mulkdorlar sinfi o'zining halol mehnati bilan yuqori turmush darajasiga erishadigan kishiflar guruhidir. Ular qatoriga malakali ishchilar, xususiy korxona yoki boshqa mulk sohiblari, layoqatli mutaxassislar, ishbilarmonlar, tadbirkorlar, biznesmenlar, bankirlar kabilalar kiradi. Ular mustaqil guruh sifatida o'ziga xos qarashlarga ega. Qonuniylik, oshkoraliik, demokratiya uchun kurashdan ular bevosita manfaatdordirlar. Shu maqsadda ular turli siyosiy partiyalar va harakatlarga uyushadilar. Muvaffaqiyat qozonishni istagan hokimiyat subyektlari ularning manfaatlarini hisobga olishga majburdirlar. Jamiyatning rivojlanishi, barqarorligi o'rta mulkdorlar sinfining manfaatlari qay darajada himoya qilinishiga bog'liq.

O'zbekiston bozor munosabatlарини qарор тоғирish jarayонида bosqichma-bosqich o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirmoqda. Xususiy lashtirish, erkinlashtirish, demokratlashtirish jarayонлари chuquqlasha borgan sari o'rta mulkdorlar sinfining mavqeyi mustahkamlanib bormoqda. Ammo ularning sinfiy ongi shakllanishi, umumiyy-siyosiy maqsadlar asosida uyushuvli murakkab jarayon. O'rta mulkdorlar sinfining o'z sinfiy ongiga ega bo'lishi, siyosiy faolligi daroji ular manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar va harakatlar bilan aloqasi, o'zaro ta'siri mustahkamlanishida namoyon bo'lmoqda.

3-bosqich. O'qituvchi darsni o'tib bo'lgach, talabalarning savollariga javob beradi. Shundan keyin dars boshida taqdim qilingan savollarni qaytadan ko'rib chiqish lozim. Endi javoblar xato bo'lsa to'g'rilab, qisqa javoblarni to'la izohlab berish talab qilinadi. Mashg'ulotda qolgan vaqtning ko'p-ozligiga, oqimda talabalarning miqdoriga qarab, ularni 2-3 jamoaga ajratish kerakki, toki ular bemalol fikr almashishlari, munozara qilishlari oson bo'lsin. Jamoalarga savollar tarqatib, bir fikrga kelguncha muhokama qilishlari lozim. Ularning vakillari javoblarni to'la

izohlab tushuntirib beradilar. Boshqa talabalarning yoki o'qituvchining savoli bo'lsa, javob qaytaradilar, natijada talabalarning mashg'ulotda olgan bilimlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Agar vaqt bo'lsa, mavzuning mazmuni qay darajada ochib berilganiga qarab nazoratni boshqa shakllarda davom ettirish mumkin. Masalan, "Mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurish jarayonida siyosat subyektlarining o'zgarishi va o'ziga xos xususiyatlari" degan savol bo'yicha "Aqliy hujum" pedagogik texnologiyasini qo'llab, talabalarni ijodiy fikrlashga, nazariy bilimlarini hayot bilan bog'lashga yo'llash mumkin. Yoki xuddi shunday masala bo'yicha har bir talabaga esse yozdirib, bir necha xohlagan talabalarning esselarini muhokama qilish mumkin.

Shundan keyin o'qituvchi darsga yakun yasar ekan, mavzuni o'rganishning kelgusi faoliyatdagi ahamiyatini, xususan, siyosiy jarayonlarning mohiyatini tushunishda, siyosiy faol bo'lishda ahamiyatini ko'rsatadi, mashg'ulotda erishgan natijalami ta'kidlaydi. Seminar mashg'uloti uchun vazifalar beradi.

3.1. Siyosiy ong

Reja:

1. Siyosiy ong tushunchasi, manbai va vazifalari.
2. Siyosiy ong darajalari.
3. Siyosiy ongning turlari.
4. Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari.

Tayanch so‘zlar

Siyosiy ong, siyosiy ongning darajalari, elitar siyosiy ong, oddiy siyosiy ong, anarxik ong, statistik ong, siyosiy ong vazifalari, siyosiy ongning shakllanish omillari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Siyosiy ongning tarkibiy qismalarini tavsiflang.
2. Siyosiy ongda mafkuralashgan ongning turini tushuntirib bering.
3. O‘zbekistonda jamiyatning siyosiy ongida kechayotgan o‘zgarishlarni tahlil qiling.


Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so‘zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so‘zi. 2012-yil 8-dekabr.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. //Xalq so‘zi. 2013-yil 20-yanvar.
6. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig‘ilishidagi nutqi. //Xalq so‘zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
9. Nosirxo‘jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. –T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

Bu mashg‘ulotni ilgaridan tarqatma material berilgan sharoitda savol-javob shaklida o‘qishni rejalashtirdik.

Oldindan tarqatilgan material:


Siyosiy ong, siyosiy munosabatlar va manfaatlarning in'ikosi bo'lib, tasavvurlar, g'oyalar, qarashlar, nazariyalar ko'rinishida ifodalangan hodisalarga berilgan siyosiy bahodir (1-chizma).



1-chizma

Biroq u siyosiy vokelikni mexanik tarzda aks ettirmaydi, hodisalarni siyosiy normalar, an'analar va ideallarga muvofiqligiga qarab aks ettiradi. ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zgarishi va rivojlanishini bashorat qiladi.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi siyosiy ong ham qator vazifalarni bajaradi (2-chizma).



2-chizma


Avvalo, ijtimoiy hayot sohalari va jarayonlari haqida axborot beradi hamda bu haqda talabalar bilimi shakllanadi, jarayonlar izohlanadi, baholanadi, bashorat qilinadi va shu bilan kishilarni ma'lum maqsadga yo'naltiradi.

Siyosiy ong jamiyatning barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning asosiy vazifalari aniq maqsadni shakllantirish va unga erishish yo'llarini ko'rsatishdir. Siyosiy ongning bu vazifalari uning yuqori darajasida – elitar siyosiy ongda izchil, tizimlashgan tarzda amalga oshadi (3-chizma).



3-chizma


Chunki elitar siyosiy ong – nazariy darajadagi ongdir (4-chizma).



4-chizma

U siyosiy mazmundagi turli g'oyalardan, konsepsiyalardan tashkil topadi. Aynan nazariy darajada siyosatning strategik maqsadlari va vazifalari hal qilinadi, siyosiy munosabatlari rivoji va tendensiyalarning istiqbollari tahlil qilinadi, ommanning siyosiy faolligiga ta'sir qilishning usulları va vositalari ishlab chiqiladi.

Siyosiy ong darajalarini turli nuqtayi nazardan ajratish mumkin. Ma'lum nuqtayi nazardan siyosiy ongni empirik (insonning siyosiy psixologiyasi), individual-siyosiy, jamoaviy va boshqa darajalarini ajratamiz (5-chizma).



5-chizma


Siyosiy ongning empirik darajasi bevosita amaliy tavsifga egadir. U nazariy darajada siyosiy amaliyot mazmunini ifodalamasligi bilan farqlanadi. Shuning uchun bu darajada bevosita siyosiy tajribani konseptual anglash yuz bermaydi. Empirik

darajaning unsurlari tushunchalar va konsepsiylar emas, tasavvurlar, hissiyotlar, illyuziyalardir.

Individual, jamoaviy va ommaviy darajalar siyosiy ongning namoyon bo'lish shakllaridir.

Individual siyosiy ong insонning asosiy ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi va shaxsnинг siyosatni baholash, unga ta'sir qilish layoqatini ifodalaydi. Jamoaviy ong siyosiy partiyalar, tashkilotlar, birlashmalar faoliyati orqali amalga oshadi. Ommaviy siyosiy ong ijtimoiy ehtiyojlarning mazmunini bevosita aks ettiradi. U, shuningdek, siyosiy voqelik haqidagi jamiyat bilimlari tavsifini ham ifodalaydi.


Siyosiy faoliyatni aks ettirish darajasi va shakllariga ko'ra siyosiy ongning 2 darajasi tafovut qilinadi (6-chizma).



6-chizma

Siyosiy ong nazariy darajada jamiyat siyosiy hayotining qonuniyatlarini ochib beradi va amaliy siyosiy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanadi. Bu darajada mafkurachilar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Siyosiy mafkura siyosiy, ongga qaraganda serharakat va o'zgaruvchandir. Siyosiy mafkuraning mohiyatini maxsus ma'ruzada batafsil qarab chiqamiz.


Oddiy siyosiy ong bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi (7-chizma).



7-chizma

Oddiy siyosiy ong empirik daraja bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, aynan bir xil emas. U mavhumlashtirishni taqozo qiluvchi empirik va nazariy aksdan farq qilib, ularni o'zida birlashtiruvchi yagona tirik organizmdir. U empirik darajadan farq qilib, mafkuraviy va nazariy usullarga ham ega.

Davlatga nisbatan munosabatiga ko'ra siyosiy ongning 2 turini tafovut qilamiz (8-chizma).




8-chizma

Etatizm davlatga ijobiy hodisa sifatida qarovchi, uni takomillashtirish, samarali shakllarini asoslovchi qarashlardir. Uning ijtimoiy negizi tartib, barqarorlik tendensiyalarini ifodalovehi sinflar, tabaqalar va guruhlardir.

Anarxik ong davlat hukmronligiga salbiy jarayon sifatida qarab, bu hukmronlikning zavol topishini asoslaydigan qarashlardir. Barqaror, xonavayron bo'lgan, sinsfsizlashgan guruqlar va tabaqalar uning ijtimoiy negizini tashkil qiladi.


Estatistik ong 3 asosiy vazifani bajaradi (9-chizma).



9-chizma

Bu vazifalar davlatni saqlab qolishga, uning jamiyatdagi turini mustahkamlashga qaratilgan.

Anarxik ongning ham 3 asosiy vazifasini ta'kidlashimiz lozim (10-chizma).



10-chizma

Bu vazifalardan ko'rinib turibdiki, jamiyat hayoti, davlatning turli shakllari salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarish mumkin va ulami o'rganish zarur. Ongning har ikkala turi umumiyl томонларга ега. Улар сиёсиy vogelikni aks ettiradi va o'zlashtiradi, davlatning mohiyatini vazifali tomondan ifodalaydi. Anarxik ongни

mutlaqlashtirish davlatchilikni yo‘q qilish g‘oyasini, statistik ongni mutlaqlashtirish totalitar davlat g‘oyasiga olib kelishi mumkin.

Siyosiy ongning shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Avtoritar, ma‘muriy buyruqbozlik siyosat obyekti qilib qo‘yadi, unda siyosiy ongning shakllanishiga to‘sinqlik qiladi. Demokratik siyosiy tizim siyosiy ong paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Aholining iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalq farovonligi, jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishi siyosiy ong shakllanishining muhim omillaridir.

1-tayyorgarlik bosqichi. Talabalar tarqatma material bilan ta‘minlanganda, uni o‘rganib, mavzuni kengroq ochib beruvchi, dolzarb ahamiyatga ega, talabani bilishi zarur deb hisoblaydigan savollar tuzib kelish topshiriladi. Har bir talaba kamida 3 ta shunday savol tuzib kelishi haqida ogohlantiriladi.

Mashg‘ulot mavzusi, reja, tayanch so‘zлами, mustaqil ish uchun topshiriqlar va adabiyotlarni kodoskop orqali namoyish qilamiz va birgalikda o‘qiymiz. Darsning asosini maqsadini va o‘tish tartibini tushuntiramiz.

2-bosqich. Dastlab talabalar tarqatma materialni qay darajada o‘zlashtirib olganlarini aniqlash uchun qisqa so‘rov o‘tkazamiz. Qisqa so‘rov savollari tarqatma materialning asosiy mazmunini qamrab olishi lozim. Masalan, quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Siyosiy ong qanday jarayonlarni aks ettiradi?
2. Siyosiy ong hodisalarini nimaga muvofiq aks ettiradi?
3. Siyosiy ongning qanday turlari bor?
4. Siyosiy ongning asosiy vazifalari qaysilar?
5. Siyosiy ongning qaysi nuqtayi nazardan darajalarga ajratish mumkin?
6. Nazariy ongning strategik maqsadlari?
7. Empirik ongning asosiy unsurlari qaysilar?
8. Siyosiy ongning namoyon bo‘lish shakllari?
9. Estatistik ongning asosiy tamoyili nima?
10. Anarxik ongning asosiy tamoyili nima?
11. Siyosiy ongning shakllanishi qanday omillarga bog‘liq?

Qisqa so‘rov orqali talabalarning tayyorgarlik darajasini bilib olgach, o‘qituvchi berilgan javoblarni baholashi, zarur qo‘shimchalar qilishi mumkin. Shundan so‘ng talabalarni oqimda talabalar soniga qarab 3-5 jamoaga bo‘lamiz. Har bir jamoaga talabalar tayyorlab kelgan savollarni muhokama qilib, qo‘shimcha bilimning zarurlarini tanlab olishni taklif qilamiz. Deylik, jamoada 7 talaba bo‘lsa, 20 dan ortiq savol o‘rtaga tashlanadi. Ularning ko‘p qismini jamoa birgalikda hal qilishi mumkin. O‘qituvchi batatsil tushuntirish zarur bo‘lgan savollar jamoa hal qilgan savollar bilan birgalikda taqdimgilinishi kerak.

Sharoitga qarab, talabalarga yordam, turki berish maqsadida o‘qituvchi bu savollar haqida ham o‘ylab ko‘rganmisiz, deb bir qancha masalalarni o‘rtaga tashlashi mumkin. Buni jamoa faoliyatini boshlashdan oldin yoki oxirida amalga oshirsa bo‘ladi. Masalan, quyidagi savollar talabalarning mavzuni keng va chuqur o‘rganishlari, hozirgi davr bilan bog‘lashlari uchun yo‘llay oladi:

1. Siyosiy ong bilan siyosiy qarashlarning o‘zaro bog‘liqligini ayting.

- Siyosiy tizimning siyosiy ong shakllanishidagi roli qanday?
- Bir xil siyosiy tartib hukm surgan mamlakatlarda (totalitar, avtoritar, demokratik) siyosiy ong bir xil bo‘ladimi? Qanday umumiylar va farqli tomonlari bor?
- Mustaqillik siyosiy ongga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- Siyosiy ongning jamiyat sotsial-sinfiy tuzilmasiga bog‘liqligi.

3-asosiy bosqich. 3.1. Talabalar 15-20 daqiqa davomida savollarni o‘zaro muhokama qilib, talabga ko‘ra tanlab bo‘lgach, guruh sardorlari navbat bilan uni taqdim qiladilar. Taqdimotda jamoa kuchi bilan qanday muammolar hal qilinganligini, qaysi muammolar bo‘yicha tushuntirish zarurligini aytadilar. Hal qilingan (+) va hal qilinmagan (-) muammolar ko‘rinarli kattalikda yoritilishi va doskada namoyish qilinishi zarur.

Bizning tajribamizda savollar tizimi quyidagicha bo‘ldi (hal qilingan savollarga “+”, hal qilinmagan gapiga “–” belgisi qo‘yilgan).

1-jamoa savollari:

- Siyosiy ongning namoyon bo‘lish shakllaridan qaysi biri muhimroq?
- + Nazariy ongning shakllanishida empirik ongning turi qanday?
- Sharqona siyosiy ong to‘g‘risida gapirish mumkinmi?
- Musulmon mamlakatlarida siyosiy ong o‘ziga xos xususiyatlarga egami?
- Terrorizm va siyosiy ongning o‘zaro ta’siri haqida gapirib bering.
- + Sobiq Ittifoqda siyosiy ong xususiyatlari haqida gapirib bering.
- + Mustaqillik davrida jamiyatimiz siyosiy ongida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
- + Demokratik, kasbiy guruhlar siyosiy ongida qanday tafovutlar bor?
- + Inson siyosat obyekt bo‘lganda siyosiy ong qanday xususiyatlarga ega bo‘ladi?
- Tarixiy merosning siyosiy ong shakllanishidagi turi qanday?
- Jamiyatimizda sobiq Ittifoq davridan qolgan siyosiy ong mavjudmi va unimalarda namoyon bo‘lmoqda?
- + Siyosiy ongning boshqa ong shakllari bilan o‘zaro munosabati.

2-jamoa savollari (takrorlangan savollar qisqartirildi):

- Siyosiy ongga beqarorlik xos deyish mumkinmi?
- Siyosiy ongning har qanday darajasi milliy xususiyatlarga egami?
- Siyosiy ongning shakllanishida aholining turmush darajasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi, desak bo‘ladimi?

+ Ijtimoiy-siyosiy bilimlar va siyosiy ongning o‘zaro munosabati?

+ OAVlarining siyosiy ong rivojидаги роли?

+ Estatistik va anarxik onglarning kelajagi qanday?

- O‘zbekiston xalqining siyosiy ongida qanday kamchiliklar bor?

- Siyosiy ongni yuksaltirishda davlat hal qiluvchi rol o‘ynaydimi?

3-jamoa savollari (takror savollar qisqartirildi):

- Siyosiy ong ilmiy tavsifga egami?

- Individual, jamoaviy va ommaviy onglarning o‘zaro munosabati?

- Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy ongida umumiylar va o‘ziga xos qanday xususiyatlar mavjud?

- Siyosiy ongga diniy ong qanday ta'sir qiladi?
- + Ta'lim islohotining siyosiy ong rivojidagi turi?
- + Siyosiy boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar jamiyatimiz siyosiy ongiga qanday ta'sir qilmoqda?
- + Ko'ppartiyaviyilikning siyosiy ong rivojiga ta'siri?
- + Siyosiy ong rivojida saylov jarayonining turi.

3.2. O'qituvchi savollarga mumkin qadar to'laroq javob berishga harakat qiladi. Ayrim savollar ochiq va munozarali bo'lib, o'qituvchi turli nuqtayi nazarlardan tushuntirib berishi kerak. O'qituvchi talabalar jamoada hal qilingan muammolar bo'yicha ham (agar zarur deb lozim topsa) o'z mulohazalarini, javobini aytish mumkin.

Tushuntirishdan keyin o'qituvchi talabalarning yangidan tug'ilgan savollariga javob beradi.

4-yakuniy bosqich. Talabalar savollariga javob bergach, talabalarning mashg'ulot davomida mavzuni qay darajada o'zlashtirganlari nazorat qilinadi. Buning uchun test, qisqa so'rov, "Aqliy hujum" va boshqa usullardan birini qo'llashi mumkin. Yakuniy nazorat qanday shaklda bo'lmasin, mavzuning barcha bosqichidagi muammolarini qamrab olishi lozim. Bunga kamida 5-10 daqiqa vaqt ajratish lozim.

Biz 8 daqtqa ajratib, qisqa so'rov usulini qo'lladik:

1. Siyosiy ongning tarkibiga nimalar kiradi?
2. Siyosiy ongning qanday darajalari bor?
3. Siyosiy ongning qanday o'rinnlari bor?
4. Siyosiy ongni yuksaltirish omillari?
5. Mustaqillik davrida O'zbekiston xalqi siyosiy ongida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Qisqa so'rovdan so'ng ma'ruzaga yakun yasab, dars mobaynida o'zlashtirib olingen muammolar, talabalarning faolligi, bilim darajasi umumiy tarzda baholanadi, mavzuni o'rganishdagi kamchiliklar, yanada chuqurroq o'rganish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida o'qituvchi mulohazalarini aytadi va bu haqda talabalarning munosabatini aniqlaydi.

3.2. Siyosiy madaniyat

1-bosqich. Tayyorgarlik va faollashtirish bosqichi. Bu mavzu bo'yicha maslahat ko'rinishida o'tkazamiz. Mavzuni e'lon qilib, savollar, tayanch tushunchalarni, mustaqil ish uchun topshirqlari, adabiyotlar ro'yxatini yozdiramiz (namoyish qilamiz). Mashg'ulot maqsadini, uni o'tkazish tartibini tushuntiramiz.

Reja:

1. Siyosiy madaniyatning mohiyati va vazifalari.
2. Siyosiy madaniyatning vazifalari.
3. O'zbekistonda siyosiy madaniyatni rivojlantirish muammolari.

Tayanch so'zlar

Madaniyat, siyosiy madaniyat, umuminsoniy siyosiy madaniyat, mintaqalari siyosiy madaniyat, milliy siyosiy madaniyat, submadaniyat, shaxs siyosiy

madaniyati, siyosiy madaniyat o'rirlari, siyosiy madaniyat vazifalari, siyosiy madaniyat modellari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Jamiatning siyosiy hayotida siyosiy madaniyatning turini ko'rsatib bering.
2. O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tishi bosqichida siyosiy madaniyatni tafsiflang.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
 2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
 3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
 4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
 5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
 6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
 7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
 8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
 9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
 10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.
- Talabalarning mavzu bo'yicha bilimlarini aniqlash va ularni faollashtirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz:
1. Madaniyat nima?
 2. Ma'naviy madaniyat nima?
 3. Madaniyatning qanday ko'rinishlari bor?
 4. Siyosiy madaniyat axloqiy, huquqiy, falsafiy, iqtisodiy va boshqa madaniyat ko'rinishlaridan nimesi bilan farq qiladi?


Madaniyat haqida umumiy bilimlarini aniqlagach, talabalarni tarqatma materialni o'rganishga yo'llaymiz. Talabalarning vazifasi – uni o'qib o'rganish va bu nazariy bilimlarga tayanib, individual ravishda tushunmagan yoki bilishni xohlaydigan savollarini tuzish. Tarqatma materialni o'qish jarayonida diqqat qilish lozim bo'lgan muammolarni kodoskop orqali namoyish qilish yoki doskaga yozib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot savol-javob shaklida o'tkazilishini va talabalar diqqatini muhim, dolzarb muammolarga yo'naltirish zarurligini hisobga olib, matnda bayon qilinmagan masalalarni ham keltirish mumkin. Savollardan qaysi biri tarqatma materialda tahlil qilingan va qaysi biriga javob yo'qligini aniqlashni talabalarga vazifa qilib qo'ysak maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar matnni

o'rganish jarayonida insert texnikasini qo'llashlari lozim. Taqdim qilinayotgan tarqatma materialga asoslanib, talabalarga quyidagi yo'naltiruvchi savollarni berish (namoyish qilish, doskaga yozib qo'yish) mumkin:

1. Siyosiy madaniyatning 3 tarkibiy qismi.
2. Siyosiy madaniyatning siyosiy jarayonlarga ta'siri.
3. Siyosiy madaniyatning vazifalari.
4. Siyosiy madaniyatni qanday belgilar asosida turlarga ajratish mumkin?
5. Siyosiy madaniyatning e'tirof etilgan 3 modeli.
6. Siyosiy madaniyatning 4 turi.
7. Sobiq Ittifoqda siyosiy madaniyatning xususiyatlari.
8. Mustaqillik davrida O'zbekistonda siyosiy madaniyat.
9. Submadaniyat nima?
10. Siyosiy madaniyatning simvolika bilan o'zaro bog'liqligi.

2-bosqich. Tarqatma material. Siyosiy madaniyat tushunchasi fanda turlicha talqin qilinadi. Ba'zan uni insонning ma'lumot va madaniy darajasi bilan, jamoa ichida o'zini munosib tutish layoqati bilan, o'z siyosiy nuqtayi nazarini aniq va tushunarli bayon qilish layoqati bilan ayniylashtiradilar. Ba'zan siyosiy madaniyat ma'lumotli kishilarda bo'ladi, ma'lumoti past kishilarda bo'lmaydi, deyishadi. Bu hol tushunarli, chunki muammo murakkab va ko'p variantlidir.


Siyosiy madaniyat u yoki bu mamlakat ma'naviy madaniyati, ijtimoiy ongingin ijtimoiy-siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan unsurlarini o'z ichiga oladi. Madaniyat u yoki bu sohada xatti-harakat shakllari va qoidalarini belgilaganidek, siyosiy madaniyat siyosiy sohadagi xulq normalarni va "o'yin" qoidalarini belgilaydi. Siyosiy madaniyatning 3 tarkibiy qismini ta'kidlash mumkin (1-chizma).



1-chizma

O'z tarkibiga siyosiy an'analarni, siyosiy amaliyot normalarini, turli ijtimoiy-siyosiy institutlar o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar haqidagi g'oyalarni olar ekan, siyosiy madaniyat mavjud tuzumga nisbatan kishilarning munosabatida kishilarning ma'lum yo'nalgaligini qamrab oladi.

Siyosiy madaniyat siyosiy jarayon va institutlarga 3 tomonlama ta'sir ko'rsatadi (2-chizma).



2-chizma

Birinchidan, uning ta'sirida siyosiy hayotning an'anaviy shakllari qayta-qayta yaralishi mumkin. Bu imkoniyat tashqi sharoitlar va hukmoniqtartib tabiatiga o'zgargan hollarda ham saqlanib qoladi.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat jamiyat uchun yangi, noan'anaviy, ijtimoiy va siyosiy hayot shakllarini vujudga keltiradi.

Uchinchidan, avvalgi va istiqboldagi siyosiy tartib unsurlarini uyg'unlashtiradi. Bu yo'nalishlarda siyosiy madaniyat ko'p vazifali murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi (3- chizma).



3-chizma

Bilish sohasida inson o'zining qaysi guruhga mansubligini tushunish ehtiyojini va o'z jamoaviy manfaatlarini ifodalash usullarini aniqlab olishni tushunish bilan bog'liq.


Kommunikativ vazifasi hokimiyat subyekti va institutlarining qabul qilingan qadriyatlar (amatalar, ramzlar va axborot berishning boshqa vositalari) asosida o'zaro ta'sir imkoniyatini tug'diradi.

Tarbiyaviy vazifasi insonning o'z fuqarolik huquqlari va siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga yo'llaydigan ma'lum ko'nikmalarini shakllantiradi.

Integrativ vazifa turli guruhlarga ma'lum siyosiy tizim doirasida birgalikda yashash imkoniyatini ta'minlaydi.


Turli davlatlar va xalqlar rivojida siyosiy madaniyatning ko'p vazifalari ishlab chiqilgan. Turli belgilarni asos qilib, xilma-xil madaniyat vazifalarini ajratish

mumkin. Siyosat subyektiga ko'ra siyosiy madaniyatni vazifalarga ajratish mumkin (4-chizma).




4-chizma

Siyosiy jarayon sohalariga ko'ra (5-chizma).



5-chizma

Hokimiyatni amalga oshirish usullariga ko'ra (6-chizma).



6-chizma

Siyosiy madaniyatni boshqa ko'pgina omillar (siyosiy tizimlar, mafkuraviy farqlar, boshqa madaniyatlar bilan aloqasi va h.k.) asosida ham turkumlash mumkin.

Har bir siyosiy madaniyatda unga o'ziga xos qiyofa bergen u yoki bu xususiyatlар va tasniflar yig'indisini ajratish mumkin. Siyosiy madaniyatda milliy, mintaqaviy, diniy, etnik va boshqa o'ziga xosliklar bor. Biroq barchasi uchun umumiy bo'lgan belgililar ham bor. Madaniyatning universal muhim unsurlari va

umumdunyoqarashlik yo'nalishlariga asoslanib, siyosiy madaniyatning asos modellarini ajratish mumkin.

Milliy madaniyat, ijtimoiy-tarixiy, geografik, diniy va boshqa unsurlar siyosiy madaniyatning mutanosib modelini ajratish zarurligini taqozo etadi. Siyosiy madaniyatni turli asoslarga ko'ra turlarga ajratish mumkin. G.Almond va S.Verba "Fuqarolar madaniyi" kitobida taklif etgan ornologiya klassik omologiya deb e'tirof etilgan. Ular siyosiy madaniyatning 3 ta sof turini ajratib ko'rsatganlar. Ular haqida qisqacha to'xtalamiz:


1. *Patriarxal* (*an'anaviy*) siyosiy madaniyat. U aholining siyosiy tizimdan uzilganligi, ixtisoslashgan siyosiy ro'llar mavjud emasligi, dohiylar ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham diniy vazifalarni bajarishi, aholining turli yo'nalishlarda tabaqalashtirilmasligi, hududiy va ijtimoiy-madaniy ayniylashtirishning ustunligi bilan tasniflanadi.

2. "*Tabaalik*" siyosiy madaniyati. Unga passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron qadriyatlarga tayanish, siyosiy tizimga tegishli boqimandalik xosdir.

3. *Ishtirokchilik* siyosiy madaniyati. Unga individlarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi, siyosiy savodxonlik, funksional tabaqalanganlik xosdir.


Bu modellar real hayotda sof ko'rinishda juda kam uchraydi.

G'arb olimlari asarlarida siyosiy madaniyatning 4 turi tafovut qilinadi (7-chizma).




7-chizma


Har bir turning o'ziga xos xususiyatlari mavjud (8, 9, 10, 11-chizmalar).




8-chizma



9-chizma



10-chizma



11-chizma

G.Almond fikricha, angliya-saksoniya mamlakatlari (AQSH, Angliya, qator britan hamdo'stligi mamlakatlari) sekulyar, gomogen siyosiy madaniyat ustundir. Unga o'zaro kurashuvchi bir-birini to'ldiruvchi ko'p qadriyatlar, nizolarni hal qilishda ratsional hisoblar, individualizm, eksperimentlashtirish kabilar xosligi tufayli sekulyardir. Lekin mavjud siyosiy jarayonning mutlaq ko'pchilik subyektlari mavjud siyosiy madaniyatning asos tamoyillarini, o'yin normalari va qoidalarini tan olganligi


uchun u gomogendir. Siyosiy partiylar, manfaat guruhlari, OAVlar ancha mustaqildirlar. Plyuralizm o'zaro chidam, mustahkam konsensus va pragmatik siyosiy kurs uchun sharoit yaratadi.

Kontinental Yevropa mamlakatlarining siyosiy madaniyi ham sekulyar, ham fragmental. Fragmental siyosiy madaniyatda turli guruhlar o'tasida siyosiy o'yinning asos qoidalariga munosabatda zarur kelishuv yo'q. Jamiyat bo'lingan va ko'p submadaniyatlarga parchalangan.

Aralash siyosiy madaniyatda an'anaviy va dinsizlashgan institutlar, qadriyatlar, normalar yonma-yon mavjud bo'ladi. Turli guruhlar jamiyat oldidagi siyosiy muammolarni turlicha ko'radilar. Natijada bedorlik va noaniqlik normadan chekinish emas, siyosiy madaniyatning zaruriy natijasi bo'ladi. U yangilanayotgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda hukmrondir.


Totalitar siyosiy madaniyat barchasidan keskin farq qiladi. Tashqaridan gomogen turga o'xshaydi, lekin uning gomogenligi sun'iy-sintetik. Shuning uchun ixtiyoriy tashkilotlar va birlashmalar yo'q, siyosiy kommunikatsiya tizimi markazdan nazorat qilinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi sharoitga mos siyosiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida siyosiy madaniyat qonunga yalpi humatsizlik, siyosiy muammolarni qonunni cheklab o'tib hal qilishga moyillik bilan tavsiflanardi. So'z va ish birligi yo'q edi. Totalitar siyošiy madaniyat hukm surar edi. O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tish davrida siyosiy madaniyatimizning holati 3 omil bilan belgilanadi (12-chizma).



12-chizma

Dastlabki yillardanoq yangi jamiyatga xos qonunlar, qarashlar, normalar hayotimizga kirib kela boshladi. Shu bilan birga sharqona madaniyat, milliy merosimizga tayanish ham yangilanayotgan siyosiy madaniyatimizda samarali o'rinni egallamoqda (13-chizma).



13-chizma

Siyosiy madaniyatni o'zgartirishdagi qiyinchiliklar respublika aholisining madaniy-tarixiy mentalitetini o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq. Demokratik institutlar, demokratiya amaliyoti ildiz otgan sari O'zbekiston siyosiy madaniyatini yangilana va takomillasha boradi.

Tarqatma materiallarni o'rganishga ajratilgan vaqt tugagach, "Qaysi savollarga javob topdingiz?", "Tarqatma materialda qaysi savollarga javob berilmagan?" kabi umumiy tarzdagи savollarni beramiz. Shundan keyin mavzuning mohiyatini, dolzarb amaliy ahamiyatlari tomonlarini chuqur ochib berishni talab qiladigan savollar ham tuzishni taklif qilamiz. Savol tuzish ilgaridan vazifa qilib berilgani uchun talabalar buni nisbatan qisqa vaqtida uddalaydilar.

Shundan keyin oqimni talabalar soniga ko'ra 3-4 guruhga ajratamiz va individual ravishda tuzilgan savollarni muhokama qilib, jamoa qoniqarli javob topa olgan va qo'shimcha bilim olishni xohlaydigan savollarni tuzishni taklif qilamiz.

Bizing tajribamizda 3 jamoa ma'ruza uchun quyidagi savollarni taqdим qildi (musbat belgisi qo'yilgan savollar jamoa kuchi bilan hal qilingan).

1-jamoа savollari (boshqa jamoa savollarida qaytarilganlari qisqartirildi):

- Siyosiy va iqtisodiy madaniyatning birligi.
- Submadaniyatlар o'rtasida kurash qanday shakkarda bo'ladi?
- + Milliy-siyosiy madaniyatning xususiyatlari.
- + Demokratik jamiyatga o'tish davrida O'zbekistonning siyosiy madaniyatini.
- Siyosiy madaniyat va ramzlarning o'zaro bog'liqligi.
- Ikki palatali parlament siyosiy madaniyat ko'rsatkichimi?
- Saylov va siyosiy madaniyat.
- O'zbekiston siyosiy madaniyatining rivojlanish yo'llari va istiqboli haqida tasavvurlaringiz.
- + Siyosiy madaniyatni ifodalovchi qanaqa ramzlar bor?
- Oliy Majlis deputatlari siyosiy madaniyatiga baho bering.

2-jamoа savollari (boshqa jamoa savollarida qaytarilganlari qisqartirildi):

- + Siyosiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi.
- + Jamiyat siyosiy madaniyatini takomillashuvining omillari.
- Iqtisodiyotni erkinlashtirish va siyosiy madaniyatning o'zaro ta'siri.
- Har bir davlatning o'z siyosiy madaniyati bo'lishi shartmi?
- Aholi turmush darajasining siyosiy madaniyatga ta'siri.

- Musulmon siyosiy madaniyatining o‘ziga xosligi.
- Siyosiy ong va siyosiy madaniyat tushunchalarining o‘zaro nisbati.
- Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda siyosiy madaniyatni tiklash borasida qanday natijalarga erishildi?
- Yangilanayotgan siyosiy madaniyatimizda qanday salbiy xususiyatlar saqlanib qolmoqda, deb hisoblaysiz?

3-jamoा savollari (boshqa jamoa savollarida qaytarilganları qisqartirıldı):

- + O‘zbekiston siyosiy madaniyati siyosiy madaniyatning qaysi turiga kiradi?
- + O‘zbekiston siyosiy madaniyati siyosiy madaniyatning qaysi modeliga mansub?

- Siyosiy partiyalarning o‘z siyosiy madaniyati bormi?

- Mamlakatimiz siyosiy madaniyatida qanday qusurlar bor?

- Urush sharoitida siyosiy madaniyat qanday bo‘ladi?

- Siyosiy madaniyat va terrorizmning o‘zaro munosabati.

- Millatlararo munosabatlarda siyosiy madaniyatning turi va roli.

+ Siyosiy madaniyatning qanday talqinlari mavjud?

- Taniqli siyosatchilarining siyosiy madaniyatiga baho bering (J.Bush, V.Putin, I.Karimov, V.Jirinovskiy, S.Niyozov, A.Akaev va b.).

3-bosqich. Talabalarning bilishni istagan savollari (ko‘rinarli qilib yozilgan doskaga namoyish qilib qo‘ylgan) ma’lum bo‘lgach, o‘qituvchi ularga batafsil javob berishga urinishi kerak. Agar imkon bo‘lsa, ilgari tayyorlab qo‘ylgan slayd, jadval va chizmalardan foydalanishi lozim. Bunday tayyor materiallar bo‘limganda doskadan unumli foydalanish mumkin.

O‘qituvchi savollarga javob berib bo‘lgach, talabalarda yangi tug‘ilgan savollarga, ularning e’tirozlariga (agar bor bo‘lsa) tushuntirishlar beradi, talabalarning fikr-mulohazalarini eshitadi. Dars davomida o‘rtaga tashlangan savollar va ularning javoblari muhokama qilinadi.

4-bosqich. Bu bosqichning asosiy vazifasi dars davomida egallab olingan bilimlarni aniqlashdir. Buning uchun qisqa so‘rov, “Aqliy hujum”, test va boshqa texnologik vositalardan birini qo‘llash mumkin. Qaysi texnikadan foydalanish nazorat savollarining tavsifiga bog‘liq. Bu savollar tarqatma materialdagи va talabalar savollariga o‘qituvchi tomonidan berilgan javoblardagi muammolarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdир. Agar “Siz mazkur darsda siyosiy madaniyatga oid qanday yangi bilimlarni egallab oldingiz va ularning kelgusi faoliyatizingizda qanday ahamiyati bor?” tarzida savol qo‘ysangiz, bunda “Aqliy hujum” texnologiyasi mos keladi va mavzuning asosiy mazmuni ularning kelgusi faoliyatidagi ahamiyati jamoat kuchi bilan hal qilinadi.

O‘qituvchi “Aqliy hujum” natijalariga yakun yasab, lozim bo‘lsa, javoblarni to‘ldiradi, talabalarning bilimlariga, darsning natijalariga umumiyo baho beradi.

3.3. Siyosiy mafkura

1-bosqich. Bu mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning qaysi shaklda o‘qilishidan qat‘i nazar, maxsus “Milliy istiqlol g‘oyasi” fani o‘qitilganini hisobga olish zarur. Agar biz

ma'ruzani savol-javob (maslahat) shaklida o'tadigan bo'lsak, talabalarning istaklari, qiziqishlari asosida yangi bilimlar berishimiz osonlashadi.

Tarqatma material ilgaridan berilmagan sharoitda savol-javob shaklida mashg'ulot o'tish namunasini keltiramiz.

Odatdagidek mavzuning maqsadi, uning asosiy savollari, tayanch so'z va atamalar, mustaqil ish uchun topshiriqlar, asosiy adabiyotlar ro'yxatini yozdiramiz (kodoskop orqali namoyish qilamiz). Mashg'ulotni o'tkazish tartibini tushuntiramiz.

Reja:

1. Siyosiy mafkura tushunchasi, vazifalari va darajalari.
2. Siyosiy mafkura tushunchasining asosiy ko'rinishlari.
3. Mustaqil O'zbekistonning siyosiy mafkurasi.

Tayanch so'zlar

Mafkura, siyosiy mafkura, siyosiy mafkuraning vazifalari, darajalari, ko'rinishlari, liberalizm, neoliberalizm, konservativizm, neokonservativizm, milliy-siyosiy mafkura, O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. Siyosiy mafkuraning hozirgi dunyodagi roli to'g'risida mulohaza yuriting.
2. O'zbekistonda mavjud siyosiy mafkuralarni tahlil qiling.
3. Diniy-siyosiy mafkuralar haqida fikringiz qanday, uni asoslab bering.

Adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. – T.: O'zbekiston, 2016.
 2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
 3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
 4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
 5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
 6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi qabul qilanganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
 7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
 8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
 9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
 10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.
- 2-bosqich.** 2.1. "Milliy istiqlol g'oyasi" va "Siyosiy ta'llimotlar tarixi" (siyosatshunoslikning 2-mavzusi) talabalarga tanish ekanligidan kelib chiqib ularni faollashtirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Mafkura tushunchasining qanday talqinlari bor?
2. Mafkura bilan fan (ilmiy bilimlar)ning qanday farqi bor deb bilasiz?
3. Mafkuraning qanday shakllari (ko'rinishlari) bor?
4. Siyosiy mafkurasiz davlat mavjud bo'ladimi?
5. Qanday siyosiy mafkuralarni bilasiz?
6. I.Karimovning mafkura muammolariga bag'ishlangan qanday maxsus asarlari bor?

Tarqatma materialni o'qib, har bir talaba insert usulida jadval to'ldirishini taklif qilamiz.

2.2. Mafkura ishonch-e'tiqodning alohida turi bo'lib, jamiyatda mavjud turli guruhlarning manfaatlарини, мақсадларини ifodalaydиган qарашлар тизимидир. Mafkura ijtimoiy vogelik, hayot sharoitlari, ijtimoiy tajriba bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shuning uchun u turli manfaatlarga ega bo'lgan guruhning vogelikni, o'tmish va kelajakni nisbatan ma'lum nuqtayi nazardan baholashi va talqin qilishidir.


Siyosiy mafkura siyosiy ongning hokimiyat munosabatlарига faol ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim shakllаридан birdir. Siyosiy mafkura tushunchasini tavsiflovchi ikki muhim jihat bor (1-chizma).



1-chizma

Ko'pgina olimlar siyosiy mafkuraga u yoki bu shaxslar guruhining hokimiyatga (yoki undan foydalanishga) da'vosini oqlovchi doktrina deb ta'rif beradilar. Elita va kontrelita siyosiy kurashida bu yaqqol namoyon bo'ladı. Siyosiy mafkura ijtimoiy fikrga ta'sir etsa, uni o'ziga bo'yundirsa, muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Aks holda u biror guruhning maqsadiga erishuviga xizmat qila olmaydi. Siyosiy mafkura – siyosiy va ijtimoiy rivojlanish jarayoniga nisbatan jamoaviy nuqtayi nazarni aks ettiruvchi, ma'naviy tajovuzkorligi bilan ajralib turuvchi jamoaviy ongning alohida turi hisoblanadi.


Shunday qilib, siyosiy mafkura ma'lum kuchlarning ma'naviy quroli bo'lib, ularning siyosiy faoliyatlarini oqlaydi va boshqalami o'z orqasidan ergashtirishga intiladi. Uning ijtimoiy hayotda bajaradigan xilma-xil vazifalari bor. Ularning asosiyalarini ajratib ko'rsatish zarur (2-chizma).



2-chizma


Bunda qandaydir umumiylar maqsadlar asosida kishilarни birlashtirishga, o'zi qo'ygan vazifalarni bajarish yo'lida fuqarolarni birlashtirishga harakat qiladi. Mafkura ma'lum ittimoiy tartib mavjudligini, uni o'zgartirish zarurligini asoslovchi intellektual quroldir. Bu uning bosh vazifasi bo'lib, shuning uchun siyosiy kurash quroliga aylanadi. Nazariy asoslash bilan bir qatorda siyosiy mafkura voqeikdan biroz uzilishi, taklif etilayotgan maqsad va ideallarni ishonch bilan qabul qildirishni ko'zda tutishi mumkin.

Siyosiy mafkura fuqarolarning siyosiy xulq-atvorlarini, maqsadini g'oyaviy yo'naltiruvchi ma'naviy hodisadir, shuning uchun uning 3 darajasi amal qiladi (3-chizma).




3-chizma

Nazariy-konseptual darajada u yoki bu guruhning qadriyatları, ideallari bayon etiladi. U hech bo'limganda tashqi tomondan ziddiyatsiz bo'lishi lozim (4-chizma).




4-chizma

Dasturiy-siyosiy darajada bevosita siyosiy kurash olib borishni nazarda tutadi. Siyosiy mafkuraning bu darajasiga 3 xususiyat xosdir (5-chizma).



5-chizma


Siyosiy mafkuraning dolzarblashgan darajasi fuqarolar tomonidan ushbu mafkura maqsad va tamoyillarining, amaliy ishlarda namoyon bo'lishini aks ettiradi (6-chizma).



6-chizma


Ushbu darajada e'tiqodga aylanmagan siyosiy qarashlar oson almashishi mumkin.

Total mafkura odamlar ijtimoiy tafakkuri tamoyillarini belgilaydigan, ular ongida dunyo qiyofasini tartibga sola oluvchi mafkuradir (7-chizma).



7-chizma


Xususiy mafkura esa boshqarish shakllari, saylov tizimlari va boshqa maqsadlarini qisman o'zgartira oladigan mafkuradir (8-chizma).



8-chizma


Har bir tarixiy davr o'ziga xos mafkuraviy oqimlarni olg'a suradi. Uning mazmuni muayyan tarixiy sharoit, ijtimoiy guruhlarning maqsadi, manfaati, intilishlari bilan bog'liqidir. Shu bilan birga bu oqimlarning ayrimlari rivojlanib, takomillashib boradi. Mafkuraviy plyuralizm siyosiy tizimlarning normal holati bo'lib, ular o'rtaida iyerarxik munosabat shakllanishi mumkin. "Hukmon mafkura", "Marginal mafkura" kabi tushunchalarda bu o'z ifodasini topadi.

Hozir dunyoda ko'plab mafkuraviy oqimlar mavjud. Ulardan eng asosiyalarini qisqacha ko'rib chiqamiz (9-chizma).



9-chizma

Hozirgi zamonning eng ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan biri liberalizmdir. Liberalizm J.Lokk, G.Gobbs, A.Smitlarning siyosiy falsafalari negizida XVII-XVIII asrlarda shakllandи. U davlatga tanqidiy munosabatda bo'lган, fuqarolarning yuqori siyosiy mas'uliyati tamoyillarini, bag'rikenglik, plyuralizm, konstitutsionizm g'oyalarini himoya qilgan. Uning asosiy g'oyalari 10-chizmada umumiy tarzda berilgan.




10-chizma

Liberalizm iqtisodiy va siyosiy amaliyot sharoitlariga moslashib bordi va XX asrning 2-yarmida uning tarixan yangi shakli – neoliberalizm paydo bo'ldi. Uning

siyosiy dasturi asosini boshqaruvchilar va boshqariluvchilarning kelishuvi, ommanning siyosiy jarayonda ishtiroki, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tadbirlarining demokratlashuvi zarurligi g'oyalari tashkil etadi.

Liberalizm g'oyalariiga qarshi ijtimoiy tartibni o'zgartirmaslik, jamoaviy aql, an'analarning individual aqldan ustunligi g'oyasini himoya qiluvchi konservativizm ham XVIII asrda paydo bo'ldi. Uning asosiy tamoyillari insonlar hamjamiyatining birligi g'oyasidan kelib chiqadi. Konservativizm ham zamon talablari asosida mazmunan o'zgarib bordi va 1973-1974-yillar iqtisodiy inqirozga yoshlarning norozilik harakatiga javob tarzida neokonservativizm shakllandi (11-chizma).



11-chizma

U konservativizmning an'anaviy qadriyatlarni sanoati rivojlangan bosqichdagi jamiyatlar voqeligiga juda muvaffaqiyatli moslashdi.

Neokonservativizm shaxsnинг ijtimoiy faolligini tan olib, turli ta'limotlarning insonparvar g'oyalarini birlashtirdi.

Sotsializm g'oyalari XIX asrda nazariy asosga va mafkuraviy shaklga ega bo'ldi. Uning jozibador g'oyalari utopik tavsifga egaligini amaliyot isbot qildi (12-chizma).

Kommunizm ta'limotiga ko'ra jamiyat farovonligini oshirishning 3 mexanizmi

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni siyosiy voqealar bilan boshqarish

Daromadni qayta taqsimlash

Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining davlat tomonidan boshqarilishi

12-chizma

Sotsializm individlarning iqtisodiy erkinligi, raqobat va mehnatga turlicha haq to'lashning inson va jamiyat moddiy farovonligi o'sishining shartlari sifatida ahamiyatini yetarlicha baholamaydi. Bu nazariyada shaxsdan davlat, obyektiv ijtimoiy jarayonlardan ongli boshqaruv, iqtisoddan siyosat ustunlikka egadir. Bu

tamoyillarga asoslangan davlatlar zamona viy taraqqiyotni ta'minlay olmadi va barbob bo'ldi.

Sotsial demokratiya esa, sotsializm oqimidan farq qilib, inqilobiy yo'l bilan jamiyatni isloh qilishni, sinfiy kurash nazariyasini tan olmaydi. Jamiyatni evolyutsion yo'l bilan isloh qilish g'oyasini, ijtimoiy hamkorlik nazariyasini ilgari suradi (13-chizma).




13-chizma

Bu g'oyalar XX asr ijtimoiy ongiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, biroq demokratik sotsializm modellarining amalga oshmaganligi, "umumiylar farovonlik" davlatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar, "real sotsializm"ning barbob bo'lishi sotsial demokratiyaning jahondagi ta'siriga putur yetkazdi.


Hozirgi zamonda turli yo'nalishdagi mafkuralar kurashi bormoqda. Ularni reaksiyon va gumanistik yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Reaksiyon mafkuralar turli mintaqalarda tinchlikka tahdid solmoqda (14-chizma).



14-chizma

Fashizm u yoki bu irqiy, etnik guruhlarning ustunligi g'oyasiga asoslanuvchi siyosiy mafkura bo'lib, turli ko'rinishlari mavjud. Nemis fashizmi mavjud irqlarni 3 guruhga bo'ladi (15-chizma).




15-chizma

Unga ko'ra, madaniyat yaratuvchi irqlarga (oriylarga) nemislar, inglizlar, bir qator shimoliy xalqlar kirdi. Madaniyatni qo'llab-quvvatlovchi irqlarga slavyanlar, Sharq va Lotin Amerikasidagi ayrim negrlar, yahudiylar, lo'lilar mansub deb hisoblanib, ularni shafqatsiz yo'q qilish siyosati e'lon qilingan.


Shuningdek, shovinizm, millatchilik, terrorizm mafkuralari ham jamiyatda o'ta reaksiyon rol o'yaydigan mafkuralardir.

Hozirgi davrda gumanistik yo'nalishdagi mafkuraviy tizimlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda (16-chizma).



16-chizma

Reaksiyon mafkuralarning yaqinlashuvi va birlashuvi jamiyatning qutlanishiga hamda siyosiy keskinlik ortishiga olib kelsa, gumanistik yo'nalishdagi mafkuraviy tizimlarning yaqinlashuvi natijasida mafkuraviy kurash keskinligi pasayib, kundalik siyosatdagi xususiy masalalardan tashqari muhim masalalarda yakdil bo'limoqdalar (17-chizma).



17-chizma

Hozirgi bosqichda O'zbekistonda sovetcha dogma va stereotiplardan qutulishni ta'minlaydigan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurishga xizmat qiladigan siyosiy mafkura qaror topmoqda. O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmish va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan hayotimiz yo'nalishini belgilaydigan mafkuradir.

Mulkchilik xilma-xilligi sharoitida ijtimoiy qatlam va sinflarning mafkurasi bo'lishi ham tabiiy holdir. Ular milliy mafkuramiz maqsadini amalga oshiruvchi aniq mafkuralar bo'lib, siyosiy ongni rivojlantirishga, fuqarolarimiz siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Har bir talaba individual ravishda insert usuli asosida tarqatma materialni o'qib jadval to'ldirgach, tushunmagan masalalarini aniq savol shaklda ifodalaydi. O'qituvchi tarqatma materialni qay darajada o'zlashtirilganini qisqa so'rov yoki boshqa usulda nazorat qilishi zarur.

Tarqatma material o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilgach, oqimdagidagi talabalar soniga qarab ularni 3-4 jamoaga ajratamiz. Har bir jamoa a'zosining savollarini jamoaviy muhokama qilib, o'qituvchiga beriladigan eng muhim muammolar tanlanadi. Talabalar jamoasi savollarni muhokama qilayotganda yoki tanlayotganda o'qituvchi ularni nazorat qilib boradi, zarur yordam beradi. Qaysi jamoa mavzuning muhim qirralarini chuqurroq tushunishga yordam beradigan, dolzarb masalalar bo'yicha savollar tuzganligi baholanishi aytildi. Jamoa hal qilgan, o'qituvchi tomonidan tushuntirish shart bo'limgan savollar “+”, tushuntirish lozim bo'lgan savollar “+” bilan belgilanadi. Jamoa savollari doskada namoyish qilinadi.

Biz talabalarni 3 jamoaga ajratib quyidagi savollar bo'yicha tushuntirib berish taklifini oldik:

1-jamoa savollari (boshqa jamoa savollarida takrorlanganlari tushirib qoldirildi):

– U yoki bu guruhning hokimiyat uchun kurashida siyosiy mafkura hal qiluvchi rol o'ynaydimi?

+ Siyosiy mafkuraning jamiyatga ta'siri borasida o'rta asr, yangi davr va hozirgi zamonning qanday o'ziga xosliklari mavjud?

– Ilmiy mafkura bo'ladimi?

– Siyosiy mafkura va siyosiy subyektlar munosabatida qaysi biri birlamchi mavqeni egallaydi?

– Siyosiy mafkuraning darajalari o'rtasidagi munosabat haqida gapirib bering.

+ Milliy mafkurani hukmon mafkura deyish mumkinmi?

+ Mafkuraviy plyuralizm ijobiy hodisami?

– Sotsializm mafkurasi o'tmishga aylandi, deyish mumkinmi?

+ O'zbekiston siyosiy mafkurasi qaysi yo'nalishga (neoliberalizm, konservativizm) mansub?

+ Siyosiy mafkuraning siyosiy madaniyatga bog'liqligi.

2-jamoa savollari (boshqa jamoa savollarida takrorlanuvchilar tushirib qoldirildi):

– Har qanday mafkura siyosiy mafkurdadir deyish mumkinmi?

+ Milliy mafkura siyosiy mafkurdadir, deyish mumkinmi?

– Elita va kontrelita siyosiy mafkuralari hukmon mafkuralardir, deyish mumkinmi?

– Mafkuralar rivojida vorislik haqida gapirib bering.

– Qarama-qarshi siyosiy mafkuralar o'rtasida murosa bo'lishi mumkinmi?

– Mafkuraviy tizimlarning o'zaro ijobiy ta'siri va yaqinlashuvli to'grisida gapirib bering.

+ Jadidlar siyosiy mafkurasiga baho bering.

– “Bosmachilik” deb atalgan milliy-ozodlik harakati mafkurasini tafsiflang.

– Sobiq Ittifoq davrida yagona hukmron mafkuradan tashqari mafkuralar bo‘lganmi?

– Mafkuraning tez o‘zgaruvchanligini mustaqil O‘zbekiston siyosiy mafkurasi misolida ko‘rsatib bering.

3-jamoa savollari (boshqa jamoa savollarida takrorlanuvchilar tushirib qoldirildi):

+ O‘zbekiston siyosiy mafkurasining asoschisi kim yoki kimlar?

– Siyosiy mafkuralar miqdori siyosiy partiyalar miqdorida ifodalananadi, desak bo‘ladimi?

– Terrorizm siyosiy mafkura hisoblanadimi?

– O‘zbekistonda terrorizm siyosiy mafkurasi mavjudmi?

– Yangi jamiyat qurila borgan sari siyosiy mafkuralar O‘zbekistonda ko‘payadimi, kamayadimi?

– Siyosiy mafkuraning falsafiy, axloqiy va boshqa mafkuralarga bog‘liqligini tushuntirib bering.

– Milliy mafkura total mafkura emasmi?

– Siyosiy-mafkuraviy yaqinlashuv jarayonini O‘zbekiston misolida tushuntirib bering.

+ Siyosiy mafkura va siyosiy dunyoqarashning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari.

+ Dunyoda siyosiy mafkurasi bir xil davlatlar bormi?

3-bosqich. Jamoalardan tushgan savollar ko‘rinarli joyga osib qo‘yilgach, o‘qituvchi ularga javob beradi. Bunga har xil yondashish mumkin. Savollarni mazmun jihatdan turkumlarga ajratib javob berish yoki navbat bilan javob berish. Maslahat (savol-javob) shaklidagi mashg‘ulotda turli texnik vositalarni qo‘llash qiyin. Chunki ularni tayyorlashga vaqt ajratilmagan. Shuning uchun asosan doskadan foydalaniлади.

Ikkinchidan, javob berish jarayoni suhbat shaklida bo‘lishi, ya’ni yangidan tug‘ilgan savollar yo‘l-yo‘lakay hal qilib ketilishi maqsadga muvofiqdir. Javob berishda talabalar ham ishtirok etishi, o‘z mulohazalarini aytishlari mumkin.

4-bosqich. Mashg‘ulot o‘tilib, talabalarning savollariga javob berib bo‘lgach, ularning dars davomida olgan bilimlari nazorat orqali aniqlanadi. Nazorat shakli qolgan vaqtning ko‘p-ozligiga ham bog‘liq. Agar “Aqliy hujum” yoki “Qor parchalari” usulini qo‘llasangiz, “Siz ma’ruza davomida qanday yangi bilimlar oldingiz”, “Bugungi ma’ruzani amaliy faoliyatizingizda qanday ahamiyati bor?” kabi savollar bilan murojaat qilishingiz, 4-8 talabannng javobini eshitishingiz mumkin. Test, esse, qisqa so‘rov va boshqa nazorat usullaridan ham foydalansa bo‘ladi.

Yangi bilimlarga va uni talabalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasiga alohida e’tibor beradi. Shu bilan dars yakunlanadi.

4-bo'lim. XALQARO TIZIMLAR VA UMUMBASHARIY TARAQQIYOTNING SIYOSIY MUAMMOLARI

4.1. Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi

Bu kursimizning so'nggi mavzusi bo'lib, uni konferensiya shaklida o'tkazamiz. Buning uchun tayyorgarlikni kamida 1-2 oy ilgari boshlash kerak. Avvalo talabalarga mashg'ulotning maqsadi, ahamiyati, undan kutiladigan natijalar tushuntiriladi. So'ng mavzu rejasи, tayanch so'z, referatlarning taxminiy mavzulari, mavzuni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Reja:

1. Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi. Xalqaro tizim va xalqaro siyosat.
2. Global siyosiy muammolar va ularning siyosiy yechimlari.
3. Xalqaro terrorizm.
4. Mintaqaviy mojarolar va ularning siyosiy yechimlari.

Tayanch so'zlar

Xalqaro munosabatlar, xalqaro tizim, xalqaro siyosat, davlatlarning tashqi siyosati, global muammolar, urush va tinchlik muammosi, xalqaro terrorizm, geosiyosat, xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy mojarolar, mintaqaviy xavfsizlik, yalpi xavfsizlik.

Referat mavzulari

1. Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi – siyosiy fan qismi sifatida.
2. Xalqaro munosabatlar va xalqaro siyosat.
3. O'zbekiston – xalqaro munosabatlar subyekti.
4. Hozirgi davrda xalqaro tashkilotlar rolining oshib borishi.
5. Hozirgi davrda mintaqaviy tashkilotlarning rivojlanishi.
6. Davlatlarning tashqi siyosati: mohiyati, vazifalari.
7. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
8. XXI asr boshida jahon davlatlari tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlar.
9. Shanxay hamkorlik tashkilotining xalqaro siyosatdagi turi.
10. I.Karimov – mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asoschisi.
11. Hozirgi zamон taraqqiyoti va terrorizm.
12. Terrorizmning ijtimoiy negizlari.
13. Terrorizm – dunyo xavfsizligi uchun tahdid.
14. Xalqaro terrorizmga barham berishning huquqiy va siyosiy muammolari.
15. Terrorizmning diniy ekstremizm, agressiv millatchilik va xalqaro jinoiy guruhlar bilan aloqasi.
16. I.Karimov xalqaro terrorizmga qarshi hamjihatlikda kurash tashabbuskori.
17. Mintaqaviy mojarolar va ularning ko'tinislari.
18. Mintaqaviy mojarolarni hal qilish yo'llari.
19. Xalqaro xavfsizlik – ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti.
20. Hozirgi davrda xalqaro xavfsizlikning yangi mazmuni.
21. Hozirgi zamон ijtimoiy-siyosiy tafakkurida urush va tinchlik muammosi.
22. I.Karimovning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash haqidagi siyosiy qarashlari.

23. O'zbekistoning milliy xavfsizlik strategiyasi.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lisliga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'llini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
6. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
7. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
8. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие. – М., 2006.
9. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
10. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

1-bosqich. 1.1. Talabalarga mavzu bo'yicha tarqatma material ham taqdim etamiz.

1. Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi turli xalqaro siyosiy munosabatlarning mohiyatinigina emas, ular rivojining tarixiy bosqichlarini, ularning turli sharoitdagi ijtimoiy tiplarini, istiqbolini o'rgatadi. U umummilliy (xalqaro) institutlarning alohida mamlakatlar siyosiy tizimi unsurlariga ta'sirini, davlat institutlarning xalqaro hayotni tashkil etishdagi rolini o'rgatadi.


Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi siyosiy va nosiyosiy, davlat va nodavlat tashkilotlarning turini ham o'rganadi. Asosiy davlat guruhlarining (harbiy-siyosiy guruhlar, qo'shilmaslik harakati, umumiy bozor, ASEAN, transmilliy korporatsiya kabi o'ziga xos birlashmalarning) siyosiy vazifalarini o'rganadi. Siyosiy mafkuralarni hokimlik munosabatlari va ularni amalga oshiruvchi unsurlarining ijtimoiy-sinfiy manfaatlari mexanizmini ifodalovchi nazariy go'yalar, qarashlar, tasavvurlar yig'indisi sifatida o'rganadi.

Xalqaro munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan aloqalarni ifodalaydi, umumiy manfaatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Xalqaro hamjamiyatning 4 asosiy subyektini ajratib ko'rsatish mumkin (1-chizma).



1-chizma


Ular orasida davlatlar va xalqarо tashkilotlar alohida o'rin tutadi. Xalqarо munosabatlarning asosiy mezoni umuminsoniy qadriyatlardir. Ayniqsa, hozirgi davr buni taqozo qilmoqda (2-chizma).



2-chizma


Xalqarо siyosat – xalqarо munosabatlар, subyektlarining xalqarо me'yorlar, normalar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarni saqlab turishga, takomillashtirishga qaratilgan faoliyatidir.

Tashqi siyosat – davlatning mamlakat tashqarisida, davlatlararo munosabatlarda o'zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatidir. Davlatning tashqi siyosatini belgilashga bir qancha omillar ta'sir qiladi (3-chizma).




3-chizma


Xalqaro siyosiy muammolarni hal qilishda ikki xil yondashuv ajralib turadi (4-chizma).



Har bir siyosiy yondashuv o'ziga xos xususiyatlarga ega (5-6-chizmalar).



5-chizma




6-chizma

Ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda tashqi siyosatning yangi konsepsiysi yangicha fikrlarga asoslanmoqda. Hozirgi dunyo qanchalik xilma-xil bo'lmasin, uning yaxlitligini, bir butunligini tan olish tashqi siyosatda muayyan yutuqlarga erishishning asosini tashkil qiladi. Tashqi siyosatni takomillashtirish emas, qat'iy

isloh qilish davr talabidir. Natijada xalqaro munosabatlarda bir qancha ijobiy tendensiyalar ko'zga tashlanmoqda.


2. Global muammolar – butun yer sharini qamrab olgan, insoniyat kelajagiga xavf solayotgan, uni butun mamlakatlar va xalqlar faqat birlashibgina hal qila olishi mumkin bo'lgan muammolardir. Hozirgi kunda bunday muammolar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lib, murakkab tarkibga ega.

Ijtimoiy sohada bu muammolarning 3 guruhini ajratib ko'rsatish mumkin (8-chizma).



8-chizma

Siyosiy sohadagi umuminsoniy muammolar ham, ayniqsa, dolzarbdir (9-chizma).



9-chizma

Bugungi kunda xalqaro taraqqiyotga "Ikki qutbli" qarash turida ko'p qutbli yondashuv shakllanmoqda. Xalqaro siyosatni umuminsoniy tamoyillarga bo'yundirish, u yoki bu davlatning yetakchiligidan voz kechish, davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik, umumbashariy muammolarni birgalikda hal etish xalqaro siyosatda kuchlar nisbatini barqorlashtirishda, o'zaro ishonchning qaror topishiga va global muammolarni birgalikda hal qilishda qulay sharoit yaratishga olib keladi.

Global siyosiy muammolarning eng muhimi, ularni hal qilishning dastlabki sharti urush va tinchlik muammosidir. XX asrda jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi (10-chizma).

**XX asr jahon ahaniyatiga
ega bo‘lgan 4 ijtimoiy-siyosiy
hodisa**

Yevropaning ijtimoiy integratsiya yo‘liga o’tishi

Jahon sotsializmining parchalanishi


Rivojlangan mamlakatlar aholisining o’sishi,
ya’ni iqtisodiy markazlarning vujudga kelishi

Global muammolarning keskinlashuvi

10-chizma

Biroq har bir mintaqaning, G‘arb va Sharqning o‘z muammolari borki, ularni xalqaro siyosatda e’tiborga olish zarur. G‘arb mamlakatlarda tabiat va jamiyat o‘rtasida, rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy boylik va ochlik o‘rtasida global nizo mavjud. G‘arbiy Yevropada ijtimoiy ziddiyatlar nisbatan pasaydi, Sharqda esa kuchaydi. Yevropada jahon urushi xavfi pasaydi, Sharq va Janubda esa mintaqaviy mojarolar keskinlashib borayotgani kuzatilmoqda.

Tub ijtimoiy o‘zgarishlarning, jumladan urushning sabablarini izohlashda ikki asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin (11-chizma).



11-chizma

Birinchi yo‘nalish inson o‘z tabiatiga ko‘ra yaxshi ham, yomon ham emas, muhit uni yaxshi yoki yomon bo‘lishga olib keladi, degan mulohazaga asoslanadi. Ammo tashqi muhit o‘z-o‘zicha urushni keltirib chiqarmaydi. Agar inson boylikka, uni qayta taqsimlashga, kuch ishlatalishga intilmasa, urushlar ham bo‘lmadi. Inson boylik, yer, mulk uchun urushgan, lekin havo uchun urushmagan, demak tashqi sharoit turki bo‘lishi, insonda bo‘ladigan intilishlarni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin.

Ikkinci yo‘nalish urushning yagona sababini inson tabiatida ko‘radi. Ammo inson yovuzlik sababi bo‘lishi bilan bir qatorda, do‘slik, o‘zaro yordam, o‘zini saqlab qolishga urinish instinctiga ega.

Ikki yo'nalishni ham ma'lum asoslari bor, shu bilan birga kamchiliklari ham bor. Tashqi muhitni ham, insonni ham o'zgartirish lozim. Urushning oldini oluvchi asosiy omil insonning o'z-o'zini saqlab qolishiga intilishi instinktidir.

Hozirgi dunyoda urushga qarshi ikki real tendensiya ko'zga tashlanmoqa (12-chizma).

Hozirgi davrda urushga qarshi 2 real tendensiya

Global muammolarni hal qilish uchun insoniyatning birlashmayotganligi

Yadro quroli mavjudligi, unga qarshi kuchlarni jipslashtirayotganligi

12-chizma

3. Insoniyat kelajagiga g'oyat katta xavf solayotgan muammolardan biri terrorizmdir. Hozirgi zamon terrorizmi 3 xususiyat bilan ajralib turadi (13-chizma).

Hozirgi zamon terrorizmiga xos 3 xususiyat

Aniq chegaralarga ega emasligi

Xalqaro terrorchilik markazlari bilan hamkorlik

Qat'iy tashkiliy tuzumga egaligi

13-chizma

Uning o'nlab shakllari, ko'rinishlari bor. Terrorizmmning mavjudligini bir yoki bir nechta sabab bilan izohlab bo'lmaydi (14-chizma).

Terrorizmning 3 asosiy sababi

Umuminsoniy muammolarga noilmiy yondashuv

Manfaatlari taraqqiyotga tubdan zid jinoiy guruhlar mavjudligi


Demokratiyaning keng yoyilishiga qarshilik

14-chizma

Terrorizmga qarshi kurashning asosiy huquqiy dasturlari ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi. XX asrning 60-70 yillarida bir qancha huquqiy va siyosiy hujjatlar qabul qilindi. Terrorizm o'z kurash shakllarini ustalik bilan


o'zgartirib kelmoqda, boshqaruvchi yagona xalqaro markazlarga uyushib, tinchlik va barqarorlikka katta xavf solmoqda.

Terrorizmga qarshi qaratilgan xalqaro uyushmalar faoliyati yanada takomillashtirilishi zarur (16-chizma).



16-chizma

Terrorizmni bartaraf qilishning 4 umumi omili haqida gapirish zarur (17-chizma).



17-chizma

Ularni hal qilmasdan insoniyat terrorizm ofatidan qutula olmaydi.

4. Dunyo ikki qarama-qarshi tizimga ajralgan davrda sinfiy ziddiyatlardan boshqa ziddiyatlar ikkinchi darajali deb hisoblangan edi. Diniy, etnik to'qnashuvlar, partizan urushlarining tub negizlaridan yiroqlashib, ularning sabablarini sinfiy kurash bag'ridan axtarish, niyoyat ikki qutb to'qnashuvining ko'rinishi sifatida talqin qilingan edi.

Mojarolarga masfuraviy dogmatlardan kelib chiqib yondashilib, siyosiy yechimi atroficha o'ylab ko'rilmagan edi.

XX asrning 90-yillar boshlaridan mojarolarga yondashuv keskin o'zgardi. Ularga o'z harakat mexanizmi, negiziga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida qarala boshlandi. Milliy va tarixiy qadriyatlardan kelib chiqib yondashuvning roli osha boshlandi.

O'zbekiston Respublikasiring Prezidenti I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot

kafolatlari” hamda boshqa asarlarida mintaqaviy mojarolarning xalqaro xavfsizlikka tahdid ekanligini, uning halokatli oqibatlarini tahlil qilib berdi. Mintaqaviy nizolar ko‘pincha terrorizm va zo‘ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog’ bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy sur’atda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda.

Mintaqaviy mojarolar kelib chiqishining ikki sababi mavjud (18- chizma).


Mintaqaviy mojarolar kelib chiqishining 2 sababi

Mamlakat ichida yechilmagan ziddiyatlari muammolarning mavjudligi

Tashqi kuchlarning g‘arazli niyatda mintaqaga yopirilishi

18-chizma

Uning 3 asosiy ko‘rinishi ajralib turadi (19-chizma).



19-chizma

I. Karimov ta’kidlashicha, mintaqaviy mojarolar o‘z vaqtida hal qilinmasa, hech qachon bir mamlakat doirasida qolib ketmaydi, ularni kuch orqali hal qilishga urinish ko‘p kishilarning nobud bo‘lishidan tashqari muammoni izchil va uzil-kesil hal qila olmaydi. Uning siyosiy yechimi murakkab jarayon bo‘lib, siyosiy vazminlik, realizm, o‘ta chidamlilik kabi fazilatlarni taqozo etadi. Afsuski, hanuzgacha bu fazilatlar jahon amaliyotida ustun bo‘lgani yo‘q.

Mintaqaviy muammolami bartaraf etishda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning rolini kuchaytirish zarur.

Talabalarga ma’ruza rejasi bo‘yicha mavzuni o‘rganish, ko‘rsatilgan adabiyotlarni va qo‘sishmcha adabiyotlarni o‘qib, xohlovchi talabalar yozadigan referat mavzularini tanlashlari tavsiya qilinadi. Referat mavzularini talabalar berilgan ro‘yxatdan tanlashlari yoki o‘zlarini mustaqil mavzu topishlari mumkin. Eng yaxshi referatlar ma’ruza-konferensiyaga tanlab olinishi, qolganlari seminar mashg‘ulotida ko‘rilishi haqida ogohlantiriladi. Talabalarni rag‘batlantirish maqsadida ma’ruza-konferensiyada qilinadigan ma’ruzalarga beriladigan ball yuqori qilib belgilanishi haqida tushuntiriladi.

1.2. Talabalar tanlagan referat mavzulari bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini va rejasini o'qituvchi ishtirokida muhokama qilishlari lozim.

Referatlar yozib bo'lingach, o'qituvchi ma'ruzada eshitish va muhokama uchun ularni saralashda quyidagi talablardan kelib chiqishi lozim.

1. Referat ma'ruza mavzusining nazariy va amaliy asoslarini qay darajada ifodalaydi.

2. Yangi adabiyotlardan unumli foydalanganlik darajasi.

3. Talabaning referat mazmunining qay darajada o'zlashtirganligi.

4. Referatning hajmi (ajratilgan 5-10 daqiqada mazmunni yoritib bera olish imkoniyati).

5. Referat talabalarga mavzu bo'yicha qanday yangilik beradi?

2-bosqich. Konferensiya darsi ham faollashtirish bosqichi bilan boshlanadi. Bunga boshqa mashg'ulotlarga nisbatan ozroq vaqt ajratib, ma'lum talablardan kelib chiqishimiz kerak, ya'ni talabalar umumiy mazmunni qay darajada o'zlashtirganlar, darslik, tarqatma material va boshqa manbalarni o'qiganliklari aniqlanadi. Buning uchun "Qisqa so'rov" va "Aqliy hujum" texnikasidan foydalanish mumkin. Masalan, quyidagi savollar bilan murojaat qilsak bo'ladi.

1. Xalqaro munosabatlar siyosatshunosligi nimani o'rgatadi?

2. Xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlari.

3. Xalqaro siyosiy muammolarini hal qilishga yangicha yondashuvning xususiyatlari.

4. Qanday global siyosiy muammolar mavjud?

5. Urushlarni izohlashda ikki yo'nalish.

6. Hozirgi zamon terrorizmining xususiyatlari.

7. Mintaqaviy mojarolarning sabablari?

Talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlagach, ularni yanada faollashtirish uchun qilinadigan mashg'ulotlarning ahamiyati, muammolari haqida gapirib, talabalarning haqiqiy bilimlari muhokamada namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

So'ng talabalar ma'ruza qiladilar. Qilingan ma'ruzalarni alohida, 2-3 tasini umumiy muammo bo'yicha bo'lganda yoki bir yo'la muhokama qilish mumkin. Ma'ruzachi talabalar tomonidan berilgan savolni tushuntirishi, o'z tezislарini himoya qilishi zarur. Muhokamada boshqa talabalar ham so'zga chiqishlari, qo'shimcha qilishlari, ma'ruzalarga baho berishlari mumkin.

3-bosqich. Talabalarning chiqishlari muhokama qilinishi jarayonida tug'ilgan savollar, muammolar bo'lsa, o'qituvchining faol ishtirokida hal qilinadi. Talabalarning chiqishlarini baholashda ularning mulohazalarini hisobga olgan holda eng yaxshilari alohida ta'kidlanadi.

Dars yakuni sifatida "konferensiyada, qanday yangi bilimlarga ega bo'ldim?" mavzusida esse yozdirish maqsadga muvofiqir. Esselar yozilgach, xohlovchi talablardan xilma-xil mazmundagi esselarni eshitish, tahlil qilish darsning qay darajada samara bergenligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan dars yakunlanadi.

XULOSA

Siyosatshunoslik hozirgi davrda jadal rivojlanayotgan, butun dunyoda yoshlarni o'ziga jalb qilayotgan eng zamonaviy fanlardan biridir. Chunki barcha muammolar oxir-oqibatda siyosat orqali hal qilinadi. Shuning uchun siyosiy bilimlarni chuqur egallamagan kishi jamiyatdagi hodisalarining mohiyatini chuqur tushunishi, siyosiy jihatdan to'g'ri baholashi, to'g'ri fikrda turishi qiyin. Siyosatshunoslikni fan sifatida yanada rivojlantirish, ta'lif sifati va samaradorligini oshirish orqali yoshlarning siyosiy dunyoqarashlarini zamon talablari, jamiyat ehtiyojlarini ruhida tarbiyalash mumkin.

Ta'lif sifatini yaxshilashning shartlari ko'p. Avvalo yaxshi darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar kerak. Ammo bularning o'zигина ко'зlangан natijalarga o'z-o'zidan olib kelavermaydi. Hozirgi davrda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida mavjud bilimlarni qiziqarli, ixcham, sodda shaklda berilmasa, o'quvchilarning qiziqishlari, kitoblar mazmunini chuqur o'zlashtirib olishlari qiyin. Biz ana shu ikki nuqtayi nazardan kelib chiqib, bir kitobda ham ma'ruza matnlarini yoki tarqatma materialni, ham uni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish uslubiyatini namunaviy ssenariy sifatida berdik. Bunda kitobning hajmi bilan bog'liq bir qancha qiyinchiliklar kelib chiqishi tabiiy. Tarqatma material (yoki ma'ruza matni) o'ta nazariy qoidalar, tushunchalar, mulohazalardan iborat, hozirgi kun siyosiy hayoti bilan yetarli bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Ammo, nazariy quronga ega bo'lish – jarayonlarni to'g'ri baholash kalitidir. Tarqatma materialni o'rgangan talaba undagi nazariy fikrlarga asoslanib dars jarayonida hozirgi siyosiy hayotni tahlil qiladi, muammolar qo'yadi va yechadi.

Dars davomida ko'tarilgan savollarning, mustaqil ish uchun topshiriqlarning ko'pchiligi hozirgi davr siyosiy hayoti bilan bevosita bog'liqidir. Bundan tashqari "O'zbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti" va boshqa fanlarda o'qitilgan yoki o'qitiladigan materiallarni imkonli boricha takrorlamaslikka harakat qildik. Shuni hisobga olib, qo'llanmani quruq nazariylikda ayblamaslik mumkin deb o'yaymiz.

Mazkur qo'llanmada ko'pgina pedagogik texnologiyalar to'la qo'llaniimagan. Ularning soni ko'pligidan tashqari, chegaralangan vaqt ham, fanning mazmuni ham bunga imkon beravermaydi.

Mualiflar mazkur qo'llanmadagi kamchiliklarni, istaklarni keyingi ishlarida, albatta, hisobga oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. //Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. //Xalq so'zi. 2012-yil 8-dekabr.
7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lami islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi. 2013-yil 20-yanvar.
8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014-yil 6-dekabr, №237(6167).
9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2015-yil 19-yanvar, №7.
10. Каменская Э.Н. Политология. Учебное пособие . – М., 2006.
11. Nosirxo'jayev S. va boshqalar. Siyosatshunoslik. – T.: Fan, 2009.
12. Aliyev V., Yuldashev O. Politologiya. Darslik. – T.: Adib, 2010.

Bekdavlat Aliyevich Aliyev,
Anvar Karimovich Sodiqov,
Jahongir Kaynarbekovich Bayaliyev

SIYOSATSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

*Muharrir
Kamilova D.D.*

*Musahhih
Karshiyeva Sh.D.*

*Kompyuterda sahifalovchi
Gulyamova G.F.*

Bosishga ruxsat etildi 20.02.2017. Qog'oz bichimi 60x80 1/16.
Shartli bosma tabog'i 10,4 b.t. Adadi 100 nusxa.
083-sonli buyurtma.

Litsenziya AI № 240 04.07.2013.
“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo'limida chop etildi.
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.